Kirish. Daryo o‘zanida oqimning paydo bo‘lishiga asosan quyidagi omillar ta‘sir ko‘rsatadi: yog‘in miqdori, bug‘lanish, shimilish, yer yuzasi qatlami va qoplami, yer relefi va boshqalar [1]. Ushbu faktorlar ichida yer relefi oqim yo‘nalishini belgilab beruvchi asosiy omillardan hisoblanadi. Chunki doimo oqim harakati yo‘nalishi qiyalik yuqori qismdan qiyalik past qismga qarab yo‘nalgan bo‘ladi. Shunga ko‘ra suvning oqish yo‘lini belgilab olish mumkin bo‘ladi [2,3]. Qiyalikni aniqlash nafaqat oqimning oqish yo‘lini belgilaydi balki uning tezligiga ham ta‘sir ko‘rsatadi. Ushbu ta‘sirni inobatga olgan holda Shezi erkin oqivchi suv obektlarida Nevelir orqali qiyalikni aniqlash orqali suv sarfini hisoblash formulasini ishlab chiqqan. Ushbu formulada qiyalik tezlikka ta‘sir qiluvchi omil sifatida olinib uning bir biri bilan munosabatida shezi koefitsentini kiritadi ushbu

koefitsent suv harakatlanayotgan o'znan materialiga bog'liq holda o'zgaradi [4,5,6]. Sellar gidrologiyasida ham sel oqimi paydo bo'lish havfi bor hududlarda qiyaliklarni aniqlash orqali sel oqimi kuchi, yo'nalishi va boshqa hossalarni aniqlash imkoniyati mavjud [7,8].



Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yuqorida aytganimizdek qiyalik ortishi oqim tezligining ortishiga olib keladi [9,10]. Natijada esa oqim tashuvchanlik qobiliyati ortib o'zanda yuvilish holatlari yuzaga keladi yoki aksincha qiyalikning kamayishi oqim sekinlashishiga va cho'kindi cho'kishi holatini yuzaga keltiradi. Oqizqlar harakati qonuniyatlarini o'rganishda ham daryo yoki irrigatsiya tizimlarida relefini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi [11,12]. Odatda daryo yoki irrigatsiya tizimlari yerlarning qiyaligi dala tadqiqotlari asosida nevelir yoki GPS qurilmalari orqali o'lchanadi [13,14]. Bu esa ortiqcha resurs sarfiga olib keladi. Yana o'lchashdagi hatoliklarning ko'rsatkichi butinlay inson faktoriga bog'liq bo'lib qoladi. Tajriba va tadqiqotlarda resurs sarfini kamaytirish hamda yo'l qo'yiladigan o'lchashdagi hatoliklardan qochishda DEM tasvirlar va GAT texnologiyalardan foydalanish muhim yechimdir [15]. Biz ushbu izlanishlarimizda aynan yuqoridagi yechimdan yani GAT dasturi va DEM tasvirlaridan foydalanamiz.

Tadqiqot obekti. Hron daryosi. Hron (slovakcha Hron; nem. Gran; vengercha Garam; lotincha Granus) — Dunayning 271 kilometr (168 mil) uzunlikdagi chap irmog'i va Slovakiyadagi ikkinchi eng uzun daryo hisoblanadi. Daryo Slovakiyada shakillanadi va Banska Bystrica va Nitra regionlaridan oqib o'tadi va Vengriya chegarasida Dunay daryosiga kelib quyiladi. Shakillanish nuqtasi Telgárt yaqinidagi Kráľova hoľa tog'lari. Eng yuqori balandlik nuqtasi 980 m (3,220 fut). Quyilish nuqtasi Nitra viloyatining Kamenika nad Hronom qishlog'i. Bu yerda daryo relefi balandligi 112 m (367 fut). Daryoning umumiy uzunligi 271 km (168 mil), daryo havzasi maydoni 5465 km² (2110 sq mi), bu Slovakiya hududining taxminan 11 foizini tashkil qiladi (1-rasm) [16].

Suv sarfi [17]:

- o'rtacha 53,7 m³/s (1900 kub fut/s);
- minimal 7,6 m³/s (270 kub fut/s);
- maksimal 1050 m³/s (37 000 kub fut/s).

Imoqlari: chap-Slatina, o'ng-Zákruť. Hron atrofida joylashgan yirik shahar va qishloqlar: Brezno, Banska Bystrica, Sliac, Zvolen, Žiar nad Xronom, Žarnovitsa, Nová Bana, Tlmache, Levice, Želiezovce va Štúrovo.




1-rasm. Hron daryosi

Tadqiqot metodologiyasi. Tahlillar uchun Nil daryosi gidrologik haritasini yuklab olindi. Bu turdagi elektron haritalarni istalgan ilmiy saytlardan yoki gidrologik markaz saytlaridan olish mumkin. Ushbu haritani GAT ga kiritib ArcGis dagi va haritadagi tanish obektlarni georeferenced qilib haritaga koordinatalarini berib oldik. Bu kelgusida DEM tasvirlari bn haritani birlashtirishda juda muhimdir. So'ngra ushbu haritadan Nil daryosining chiziqli shape fayli yaratib olindi.

Daryo haritasi DEM surati 10 m/pixel aniqlikda. Ushbu ma'lumot Raster ko'rinishida <https://www.geoportal.sk/en/zbgis/download/> saytidan yuklab olindi. Ushbu tahlilning o'ziga hos tomoni ham ko'p ma'lumot talab etmasligidir.


Olingan ma'lumotlarni tahlil qilish uchun ArcGIS Pro dasturidan foydalanildi. Ushbu dastur ni www.arcgis.com sayti orqali yuklab olish va foydalanish mumkin. Buning uchun faqat saytdan ro'yxatdan o'tish talab etiladi.

Tahlil va natijalar. Yuqorida takidlaganimizdek dastlab yuklab olingan haritamizga koordinata berildi, so'nga haritadan foydalanib Nil daryosi chiziqli sheyffayli yaratib olindi so'ngra DEM tasviri dasturga yuklandi. Keyingi bosqichda esa daryo sheyffayli va DEM tasvir o'rtasida quyidagi tahlil amalga oshirildi (2-rasm).



2-rasm. Shartlar asosida tahlil qilish algoritmi (Input surfacega DEM tasvirini, Input futuresga daryo chiziqli sheyffayli qo'yiladi)

Natijada daryo uzunligi bo'yicha quyidagi grafikni olishimiz mumkin (3-rasm).



3-rasm. Daryo trassasi balandlik grafigi

Grafikdan (3-rasm) ko'rinadiki daryo yuqori qismida qiyalik yuqori buning asosiy sababi daryo tog' zonasida shakillanishidir. Quyi qismi dunay daryosiga quyilish nuqtasida ushbu qiyalik kamayadi. Tahlillar natijasi shuni ko'rsatdiki Nil daryosi uzunligi 1200 km bo'lib u har 10 km da o'rtacha 2 m ga pastlab boradi. Daryoning yuqori qismida bu ko'rsatkich 4 m gacha ortsa quyi qismida 1 m gacha tushib boradi. Bu esa o'z navbatida daryo o'zani shakillanishi va o'zgarishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Nil daryosi yuqori qismida qiyalikning yuqori ko'rsatkichlari o'zan yuvilishi holatlariga va aksincha quyi qismidagi qiyalik kamayishi oqimning sekinlashishiga va chokindi cho'kishi holatiga olib kelmoqda.

Xulosa va takliflar. Ushbu tahlillar asosida yaratilgan algoritm orqali har qanday hududda joylashgan daryo o'zani qiyaligini joyga borib geodezik o'lchovlarsiz masofadan turib tahlil qilishimiz mumkin bo'ladi. Buning uchun bizga GIS dasturi DEM tasvir (ushbu tasvirlarni internetda bepul yuklab olish mumkin) va daryo haritasi kerak bo'ladi. Daryo haritasini geografik bog'lash juda oson. Ushbu tahlillar dala tadqiqotlaridan aniqligi ancha yuqori va ma'lumotlar electron bo'lganligi uchun uni qiyinchilarsiz uzatish, qayta tahlil qilish va saqlash, grafiklarni ma'lumotlardan ajratib olish imkoni mavjud.

Minnatdorchilik. Ushbu maqola Slovakiya Respublikasi Milliy Stipendiya Dasturi (NSP) tomonidan moliyalashtirilgan va tadqiqot mualliflari SUA, "TIIAME" NRU ga qo'llab-quvvatlaganliklari uchun minnatdorchilik bildiradilar.

ADABIYOTLAR

1. Arifjanov, Aybek, Maqsd Otaxonov, Luqmon Samiev, and Shamshodbek Akmalov. "Hydraulic calculation of horizontal open drainages." In E3S Web of Conferences, vol. 97, p. 05039. EDP Sciences, 2019.
2. Zhou, Qiming, Petter Pilesjö, and Yumin Chen. "Estimating surface flow paths on a digital elevation model using a triangular facet network." Water Resources Research 47, no. 7 (2011).
3. <https://pro.arcgis.com/en/pro-app/3.1/tool-reference/spatial-analyst/flow-direction.htm>
4. A.M. Arifjanov, Sh.B. Akmalov, I.G. Akhmedov, D.E. Atakulov. "Innovative technologies in evaluation of procedures in riverbed" №3-4(4). p. 10-14. 2019. Journal of "Sustainable Agriculture".
5. Chanson, Hubert. Hydraulics of open channel flow. Elsevier, 2004.
6. <https://study.com/academy/lesson/area-method-slope-examples-quiz.html>
7. <https://testbook.com/question-answer/flow-formula-for-open-channel-chezeis-form--621f43165cd97917dce71f43>
8. https://openjicareport.jica.go.jp/pdf/12043659_02.pdf.
9. Loudyi, Dalila, Moulay Driss Hasnaoui, and Ahmed Fekri. "Flood risk management practices in Morocco: facts and challenges." Wadi Flash Floods (2022).
10. Nguyen, Ba Dung, Dang Tuyet Minh, Adeel Ahmad, and Quoc Long Nguyen. "The role of relative slope length in flood hazard mapping using AHP and GIS (case study: Lam River Basin, Vietnam)." Geography, Environment, Sustainability 13, no. 2 (2020): 115-123.
11. Ramesh, Veerappan, and Sayed Sumaira Iqbal. "Urban flood susceptibility zonation mapping using evidential belief function, frequency ratio and fuzzy gamma operator models in GIS: a case study of Greater Mumbai, Maharashtra, India." Geocarto International 37, no. 2 (2022): 581-606.
12. Kinzel, Paul J., Carl J. Legleiter, Jonathan M. Nelson, and Jeffrey S. Conaway. "Remote measurement of surface-water velocity using infrared videography and PIV: a proof-of-concept for Alaskan rivers." In 37th IAHR World Congress, pp. 1-9. 2017.
13. https://www.fao.org/fishery/static/FAO_Training/FAO_Training/General/x6705e/x6705e03.htm
14. Garbrecht, Jurgen, and Lawrence W. Martz. "Digital elevation model issues in water resources modeling." Hydrologic and hydraulic modeling support with geographic information systems (2000): 1-28.
15. Petrasova, Anna, Helena Mitsova, Vaclav Petras, and Justyna Jeziorska. "Fusion of high-resolution DEMs for water flow modeling." Open Geospatial Data, Software and Standards 2 (2017): 1-8.
16. Hlavčová, Kamila, J. Szolgay, Silvia Kohnova, and TOMÁŠ HLÁSNÝ. "Simulation of hydrological response to the future climate in the Hron River basin." J. Hydrol. Hydromech 56, no. 3 (2008): 163-175.
17. Blahušiaková, Andrea, and Milada Matoušková. "Rainfall and runoff regime trends in mountain catchments (Case study area: the upper Hron River basin, Slovakia)." Journal of Hydrology and Hydromechanics 63, no. 3 (2015): 183-192.



Akmal AXATOV,
Samarqand davlat universiteti professori, texnika fanlari doktori
ORCID: 0000-0003-3834-854X,
E-mail: a-rustamovich@samdu.uz;

Ibodilla XIMMATOV,
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
ORCID: 0000-0002-2899-4495,

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali dotsenti, t.f.d X.Primova taqrizi asosida

USING SIAM MODELS FOR PERSON AS OBJECT RECOGNITION BASED ON DEEP LEARNING

Annotation

It is possible to improve CNN algorithms by using Siamese network in person recognition, and it allows to organize ternary and quadruple networks. After that, it makes it possible to develop a model of Affine transformations. The article considers the modeling of Affine transformations for improving Siamese networks based on lost redundancies. Three different kernel sizes are used for re-identification (ReID) fusion to encode possible deformations. In addition, multi-task loss optimizes the robustness and accuracy of simultaneous detection, and the STNReID approach to the STN-based person re-identification system is improved.

Key words: Siamese networks, Affine transformation, identity recognition, STN, redundancy reduction, CNN.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СИАМСКИХ МОДЕЛЕЙ ДЛЯ РАСПОЗНАВАНИЯ ЧЕЛОВЕКА КАК ОБЪЕКТА НА ОСНОВЕ ГЛУБОКОГО ОБУЧЕНИЯ

Аннотация

Алгоритмы CNN можно улучшить, используя сиамскую сеть для распознавания лиц, что позволяет организовывать троичные и четверные сети. После этого появляется возможность разработать модель аффинных преобразований. В статье рассматривается моделирование аффинных преобразований для улучшения сиамских сетей на основе потеранных избыточностей. Три разных размера ядра используются для слияния повторной идентификации (ReID) для кодирования возможных деформаций. Кроме того, потеря многозадачности оптимизирует надежность и точность одновременного обнаружения, а подход STNReID к системе повторной идентификации людей на основе STN улучшен.

Ключевые слова: сиамские сети, аффинное преобразование, распознавание идентичности, STN, сокращение избыточности, CNN.

DEEP LEARNING ASOSIDA SHAXSNI OB'YEKT SIFATIDA TANIB OLISH UCHUN SIAM MODELLARIDAN FOYDALANISH

Аннотация

Shaxsni tanib olishda Siam tarmog'idan foydalangan holda CNN algoritmlarini takomillashtirish imkoni mavjuda va u uchta va to'rttalik tarmoqni tashkil qilish imkonini beradi. Shundan so'ng esa Affin transformatsiyalarini modelini ishlab chiqish imkonini yaratadi. Maqolada yo'qotilgan ortiqchaliklar asosida Siam tarmoqlarini takomillashtirish uchun Affin transformatsiyalarini modellashtirish ko'rib chiqilgan. Mumkin bo'lgan deformatsiyalarni kodlash uchun qayta identifikatsiyalash (ReID) birlashmasi uchun uchta turli yadro o'lchamlari ishlatiladi. Bundan tashqari, ko'p vazifani yo'qotish bir vaqtning o'zida aniqlashning mustahkamligi va aniqligini optimallashtiradi va STN asosidagi shaxsni qayta identifikatsiya qilish tizimi STNReID yondashuvi takomillashtirilgan.

Kalit so'zlar: Siam tarmoqlari, Affin transformatsiyasi, shaxsni tanib olish, STN, ortiqchalikni yo'qotish, CNN.

Kirish. So'nggi yillarda intellektual tanib olish tizimlarini takomillashtirish zamon talabi bo'lib bormoqda. Mavjud tanib olish tizimlarini takomillashtirish uchun ikkita oqim va ko'p oqimli tarmoqlarga asoslangan jufflik, deepLearninigga asoslangan arxitekturalardan foydalangan holda vizual kuzatish yondashuvlari ko'plab mashinali ko'rish sohalarida tezkorlik bilan rivojlanmoqda. Xususan, Siam tarmog'i - ikki oqimli tarmoq arxitekturasi - hozirgi vaqtda ko'pgina SOT muammolarini hal qilish uchun eng mashhur vizual kuzatish usuli hisoblanadi.

Siam tarmog'ining umumlashtirilgan arxitekturasi umumiy parametrlarga ega ikkita bir xil CNN oqimdan iborat bo'lib, unda yaratilayotgan tarmoq ikkita tarmoq bo'lib, u bir-biriga o'xshash ya'ni, bir xil sinf ob'yektlari va o'xshash bo'lmagan turli sinflarga tegishli ob'yektlar bir juft tasvirni kiritish orqali o'qitiladi. Ikkala oqim tomonidan olingan xususiyatlar taqqoslanadigan yo'qotish mexanizmi yordamida taqqoslanadi va birlashtiriladi, uning maqsadi har qanday juft tasvir berilgan ob'yekt o'xshashligini to'g'ri bashorat qilish uchun o'xshashlik funksiyasini o'rgangan holda tonib olishdir. Kuzatuv vaqtida oqimlardan biri ishga tushirilganda maqsad funksiyasima'lumoti bilan to'ldiriladi ya'ni, ob'yektni o'z ichiga olgan tasvir bo'lagi ajratib olinadi, boshqa oqimda esa butun fonni yoki uning bir qismini qamrab olgan qidiruv maydoni kiritiladi. Bunda asosan, nomzod ob'yektlarini qidirish, namunaviy yamoqni butun qidiruv maydoni bo'ylab siljitish va har bir joy uchun o'xshashlikni hisoblashdan iborat bo'ladi.

Mavuzga oid adabiyotlar tahlili. Vizual kuzatuvning amaliy ahamiyatini hisobga olgan holda, kuzatuvning turli jihatlarini bo'yicha ko'plab so'rovlar amalga oshirilgan. Ushbu so'rovlarning aksariyati klassik mashinali o'qitish yondashuvlariga yoki DeepLearningga asoslangan kuzatish usullariga bag'ishlangan [1]. Ko'pgina so'rovlar vizual kuzatish usullarini turli mezonlarga


muvofiq aniqlangan ma'lum bir taksonomiya nuqtai-nazaridan ko'rib chiqadi [2]. Keyin ular ushbu keng uslubiy mavzular ostida DeepLearningga asoslangan trekerlarning batafsil muhokamasini qilish imkonini beradi. Tarmoq tuzilishi, funksiyasi va o'qitish asosida taksonomiyaning kiritilishi va tavsiya etilgan taksonomiya nuqtai-nazaridan DeepLearningga asoslangan o'qitishlarning batafsil tavsifi taqdim etildi [3]. Xuddi shunday, o'tish vositalarini uch guruhga ajratiladi, ya'ni chuqur tarmoqni o'rnatish, tavsifni yaxshilash va oxirigacha o'qitish vositalariga asoslangan. Keyinchalik ular ob'yektlarni joylashtirish arxitekturalari va chuqur konvolutsion neyron tarmog'i (DCNN) va takroriy neyron tarmog'iga (RNN) asoslangan trekerlarni o'qitish usullari bo'yicha batafsil ishlash imkonini beradi [4]. Shovqinli tasvirlardagi ob'yektlarni kuzatish texnikasiga e'tibor qaratgan holda ular vizual kuzatish usullarini korrelyatsiya filtriga va korrelyatsiya bo'lmagan filtrga asoslangan yondashuvlarga tasnifladilar va umumiy arxitekturalar va kuzatuv tartib-qoidalariga asoslangan holda har bir toifadagi umumiy usullarga keng qamrovli ishlov beriladi.

Ma'lumotlar to'plami, baholash ko'rsatkichlari va turli o'qitish vositalari ishlashining keng tahlilini amalga oshirish orqali ushbu so'rovlarga qo'shimcha ravishda o'qitish vositalari uchun Visual Object Tracking (VOT) bir nechta ob'yektni kuzatish More Object Tracking (MOT) parametrlari bo'yicha shakllantirildi.

Vizual kuzatishda tashqi ko'rinishni modellashtirish muhimligiga qaramay, faqat bir nechta so'rov parametrlari faqat tashqi ko'rinishni modellashtirishga bog'ishlangan. Biroq, hatto bu so'rovlar faqat tashqi ko'rinishni modellashtirishga klassik yondashuvlar asosida ishlashini ko'rish mumkin. Bugungi kunga qadar hech bir ishda tashqi ko'rinishni modellashtirishga DeepLearningga asoslangan yondashuvlar yetarli darajada batafsil yoritilib berilmagan. Ushbu bo'shliqni bartaraf etish uchun ushbu so'rovni taklif qilinmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. DeepLearningga asoslangan Radius Sampling usulini qo'llagan an'anaviy ikki oqimli Siam tizimiga asoslangan SINT (Siam Instance Search Tracker) usuli ham majud bo'lib, unda Siam boshlang'ich parametrlari tepasida maxsus o'zaro bog'liqlik qatlamini ishlatadigan SiamFC qatlami taqdim etiladi. Bunday holda, kuzatuv paytida ob'yekt ma'lumotlarini qidirish maqsadli yamoq va qidiruv bo'lagi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni hisoblash uchun qisqartiriladi. CFNet tarmog'i ob'yektdagi o'xshashlikni baholash uchun o'zaro bog'liqlik qatlamidan foydalanadi. Ammo SiamFC dan farqli o'laroq, CFNet turli xil ko'rinish belgilarini o'rganishga yordam berish uchun Siam ramkasining shablon tasviri bo'limida farqlanadigan CNN moduli sifatida qo'shimcha ravishda korrelyatsiya filtri blokidan foydalanadi [7].


Uzoq muddatli kuzatishda ko'rinmaydigan va to'liq okklyuziv muammolarni hal qilish uchun ular yo'qolgan ob'yekt qayta paydo bo'lgandan keyin ya'ni qayta aniqlash orqali uni qayta tiklash uchun global ko'rinishni ta'minlash uchun qidiruv maydonini bosqichma-bosqich kengaytirish strategiyasi ishlab chiqiladi.



1-rasm. Siam arxitektura tarmog'ining umumiy tuzilishi.

Ba'zi Siamga asoslangan yondashuvlar turli xil abstraksiya darajalarining xususiyatlarini bir nechta CNN qatlamlaridan birlashtirish yaxshi natijalarga olib keladi, ya'ni natijalarni xulosa qilish uchun birlashtirishdan oldin alohida Siam tarmoqlarida past va yuqori darajali xususiyatlarni o'rganishni va takomillashtirish imkonini beradi [8]. Tarmoq sayozroq qatlamlardan invariant vizual xususiyatlarni chiqaradigan tashqi ko'rinish tarmog'idan va yuqori darajadagi semantik tasvirni kodlash uchun chuqurroq xususiyatlardan foydalanadigan semantik tarmoqdan iborat bo'ladi. Bunda ikki oqim uchun o'xshashlik ballari kuzatuv davomida yakuniy o'xshashlik natijasini olish uchun birlashtirilishidan oldin o'quv bosqichida alohida hisoblanadi.


Siam tarmog'ining takomillashuvi tubdan o'zgartirishlari shunisi e'tiborga loyiqki, bir qator yangi siam tarmog'i arxitekturasini, jumladan, pseudo-siam tarmog'i deb ataladigan narsalarni o'rganib chiqilgan. Siam arxitekturalari umumiy og'irliklarga ega ikkita bir xil CNN oqimlarini ishlatish orqali taklif qilingan Pseudo-Siamse arxitekturasini taqsimlanmagan og'irliklarga ega ikkita oqim tarmog'idan foydalanadi. Bunda texnika mashg'ulot vaqtida ko'proq parametrlarni osongina sozlash imkonini beradi [9]. Ushbu konseptsiyani 2-kanal deb ataladigan tarmoqni joriy qilish bilan yanada kengaytiriladi, u butunlay bir-biriga bog'lanmagan ikki oqimli tarmoqlar asosida ishlaydi. Yuqoridagi mulohazalarga asoslanib ushbu turli modellarning ishlashi aniq dastur senariysiga bog'liqligini oshirish, va ortiqchaliklarni yo'qotish maqsadida yangi yangi uchtalik va to'rttalik tarmoqlarini ishlab chiqishni talab etadi (2-rasm).



2-rasm. Uchtalik va to'rttalik tarmoqlarning tegishli yo'qotishlari sxemasi.

Yo'qotilgan ortiqchaliklar asosida Siam tarmoqlarini takomillashtirish uchun Affin transformatsiyalarini modellashtirish ehtiyoji paydo bo'ladi.

Affin transformatsiyalarini modellashtirish bugungi kunda tanib olishda eng samarali algoritmlarni ishlab chiqishga intellektual tanib olish sohasi keng rivojlanishiga olib kelmoqda. Ko'pgina fazoviy transformatsiyalarni modellashtirish yondashuvlari ayniqsa, afin o'zgarishlarga qaratilgan [10]. Maqsadli ob'jektning afin o'zgarishlar parametrlarini o'rganish uchun fazoviy transformator deb ataladigan differentsial modelni o'z ichiga olgan taklif qilingan fazoviy transformator tarmog'i. o'rganilgan transformatsiya parametrlari kiritilgan ma'lumotlardan xususiyatlarni ajratib olish uchun qo'llaniladigan yangi namuna olish yadrolarini yaratishda ishlatiladi [11]. Fazoviy transformatorlar, shuningdek, qarama-qarshi mashg'ulotlar uchun turli xil pozalarda ijobiy namunalar yaratishga yordam berish uchun ishlatiladi [12]. Harakatlanayotgan shaxslarni qayta identifikatsiya qilish tizimida yashirin kompozitsion qismlar uchun lokalizatsiya ma'lumotlarini o'rganish uchun STN(Spatial Transformer Network)dan foydalaniladi. 3-rasmda ko'rsatilganidek, mustahkam shaxsni qayta identifikatsiya qilish uchun o'xshashlikni o'rganish tizimida STN va qayta identifikatsiya modullarini birlashtirish eng maqbul yo'l hisoblanadi.



3-rasm. STN asosidagi shaxsni qayta identifikatsiya qilish tizimi.

STN afin transformatsiya parametrlarini o'rganadi va buzilgan hamda kesilgan tasvirlardagi kuzatilayotgan shaxslarga mos keladigan eng o'xshash yaxlit tasvir yamoqlarini aniq tanlay oladi.

Tahlil va natijalar. Deep Learning asosida ob'jektning kuzatish algoritmlarining sifatini miqdoriy baholash va turli vaziyatlarda ulardan foydalanishni tasdiqlash uchun ko'plab ishlash mezonlari va baholash ko'rsatkichlari mavjud. Ushbu ko'rsatkichlar asosida yuqorida taklif etilgan model asosida natijalarni yaxshilanganligini ko'rish mumkin. Shuningdek, ular tadqiqotchilarga turli modellarning ish faoliyatini solishtirish imkonini beradi. Odatda, turli ma'lumotlar to'plamlari yoki ma'lumotlar to'plamlari oilalari turli baholash protokollari va ko'rsatkichlarini taqdim etiladi. Ushbu tadqiqotda o'rganilgan vizual trekerlarni solishtirish uchun foydalaniladigan aniq STN afin transformatsiya parametrlari ko'rsatkichlar asosida DaSiam RPN deb nomlangan model ishlab chiqildi. Bu modeldan olingan natijalar boshqa modellar natijalari bilan solishtirish amalga oshirildi (1-jadval).

1-jadval:

Vizual obyektlarni kuzatish (VOK) ma'lumotlar to'plamidagi so'rovdan o'tgan zamonaviy trekerlar natijalari - VOK15, VOK16 va VOK17.

Model turi	VOK2015			VOK2016			VOK2017		
	EAO↑	A↑	R↓	EAO↑	A↑	R↓	EAO↑	A↑	R↓
SiamFC	0.289	0.534	0.88	0.235	0.53	0.46	0.188	0.495	2.049
SA-Siam	0.310	0.590	1.260	0.290	0.540	1.080	0.236	0.500	0.459
ECO	–	–	–	0.375	0.55	0.20	0.280	0.48	0.27
CCOT	0.303	0.54	0.82	0.331	0.536	0.895	0.267	0.49	0.32
AFSL	0.366	0.62	0.98	0.342	0.58	1.08	–	–	–
MDNet	0.378	0.603	0.693	0.257	0.54	0.34	–	–	–
Staple	0.300	0.56	0.86	0.295	0.544	0.378	0.169	0.519	2.507
MemTrack	0.275	0.558	1.729	0.272	0.527	1.438	0.243	0.494	1.774
SiamRPN	0.349	0.58	1.13	0.344	0.56	0.26	0.244	0.49	0.46
SiamRPN+	0.38	0.59	–	0.37	0.58	0.24	0.30	0.52	0.41
GDT	–	–	–	0.353	0.585	0.774	0.258	0.558	0.645
DaSiamRPN	–	0.630	0.660	0.411	0.610	0.220	0.326	0.560	0.340

Yuqoridagi jadvalda olingan natijalardan shuni ko'rish mumkinki. Barcha ko'rsatkich parametrlarda eng yaxshi natijalar qalin shriftida belgilab qo'yilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, jadvaldagi 9 ta ustundan faqat 3 tasida boshqa modellarning natijalari taklif etilayotgan modeldan olingan natijasidan yaxshiroq. Qolgan 6 ta parametrlar bo'yicha eng yaxshi natijalarga erishilgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki. Shaxsni tanib olishda Deep Learningdan foydalanib Siam arxitekturasi takomillashgan holda afin transformatsiyasi modelini shakllantirish samarali natijalarga olib keladi. Bunda mumkin bo'lgan deformatsiyalarni kodlash uchun qayta identifikatsiyalash (ReID) birlashmasi uchun uchta turli yadro o'lchamlari ishlatiladi. Bundan tashqari, ko'p vazifani yo'qotish bir vaqtning o'zida aniqlashning mustahkamligi va aniqligini optimallashtiradi va STN asosidagi shaxsni qayta identifikatsiya qilish tizimi STNReID yondashuv takomillashgan holda ishlaydi.

va siam tarmog'i konfiguratsiyasida kesilgan va jiddiy buzilgan tasvirlardagi shaxslarni qayta identifikatsiya qilish uchun STN dan foydalanadi.

O'qitiladigan ma'lumotlar to'plamini generativ raqib tarmoqlari bilan kengaytirish turli xil tashqi ko'rinish sharoitlariga chidamli o'zgarma xususiyatlarni o'rganishning samarali usuli ekanligi isbotlangan bo'lsa-da, bu modellarni o'qitish odatda qiyinroq va ba'zi hollarda konvergentsiyaga erishish mumkin emas. Generativ raqib tarmoqlari tomonidan yaratilgan ma'lumotlar sifatini baholash uchun ishonchli empirik ishlash ko'rsatkichlari ham mavjud emas. Bundan tashqari, ular qo'shimcha hisob-kitoblarni amalga oshiradilar va shu bilan ularning real vaqt rejimida qo'llanilishiga to'sqinlik qiladilar. Diqqatga asoslangan modellar samaradorlik va mustahkam ishlashning yaxshi muvozanatini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Akhatov, A., Nazarov, F., & Rashidov, A. (2021). Increasing data reliability by using bigdata parallelization mechanisms. Proceedings of the International Conference on Information Science and Communications Technologies, 1-4 p. Tashkent. doi:10.1109/ICISCT52966.2021.9670387
2. Newell, A., Yang, K., & Deng, J. (2016). Stacked Hourglass Networks for Human Pose Estimation. Proceedings of the Computer Vision—ECCV 2016: 14th European Conference. VIII (14), pp. 483-499. Amsterdam, Netherlands: Springer International Publ. doi:10.48550/arXiv.1603.06937
3. Ximmatov I. Advantages of biometrik gait recognition. Important factors in evaluation of gait analysis systems. Scientific journal of SamSU, 3(121), 104-107 p. 2020 y.
4. Ximmatov I. Important factors in evaluation of gait analysis systems and advantages of biometric gait recognition. Proceedings of the Conference of the Prospects for the use of innovative and modern information technologies in the fields of education, science and management, 262-267p. 2020 y. Samarkand.
5. Akhatov A., Himmatov I. Effectiveness of user authentication methods based on biometric authentication types. / Proceedings of the Conference Innovative approaches as a key to scientific progress: solutions and perspectives, 20-26p. 2020y. Jizzakh.
6. Akhatov A., Himmatov I. Using a neural network in skeleton-based multiscale human pose estimation. "Sun'iy intellekt va axborot texnologiyalari" mavzusidagi xalqaro scopus konferensiya. Xalqaro konferensiya. Samarqand. 3–4. 11. 2023 yil.
7. Akhatov A., Himmatov I. Use of mathematical models for human pose estimation in person identification. O'zbekiston Milliy universitetining 105 yilligi, Muso Al-Xorazmiy tavnalludining 1240 yilligiga bag'ishlangan "Amaliy matematika va axborot texnologiyalarining zamonaviy muammosi-Al-Xorazmiy 2023" 8-xalqaro konferensiya. Samarqand. 25-26. 09. 2023 y. [274]b.
8. Ximmatov I. Videotasvirlardan olingan ma'lumotlar asosida shaxs pozasini tanib olishning neyrotarmoqli modeli. ILM-fan va innovatsion rivojlanish" jurnali. O'zbekiston, Toshkent 3-son. 2023-yil. [109-112]. b.
9. Akhatov A, Christo Ananth, Ananth Kumar, Himmatov I. System of persons identification based on human characteristics. ICDMAI 2023 Springer, Scopus, Web of Science bazalarida indexlanuvchi, Lecture Notes in Networks and Systems series. received time:29.10.2022y. (7th International Conference on Data Management, Analytics & Innovation. Venue: Defence Institute of Advanced Technology, Pune-India, 20-22 January, 2023. https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-981-99-1414-2_70
10. Marvasti-Zadeh, S.M., Cheng, L., Ghanei-Yakhdan, H., Kasaei,S.: Deep learning for visual tracking: a comprehensive survey. IEEE Trans. Intell. Transp. Syst. 23, 3943–3968 (2021)
11. SM, J.R., Augasta, G.: Review of recent advances in visual tracking techniques. Multimed. Tools Appl. 16, 24185–24203 (2021)
12. Sun, Z., Chen, J., Liang, C., Ruan, W., Mukherjee, M.: A survey of multiple pedestrian tracking based on tracking-by-detection framework. IEEE Trans. Circuits Syst. Video Technol. 31, 1819–1833 (2020)



УДК: 621.396.67

Наргиза БАТИРОВА,

Доцент Ташкентского государственного технического университета,

E-mail: Nargiza311@mail.ru.,

Элеонора ЮСУПХОДЖАЕВА,

Доцент Ташкентского государственного технического университета,

Шоҳодат РУЗИМУХАМЕДОВА,

Докторант института исследований рынка труда,

Диляфруз БИЛАЛОВА,

Докторант Ташкентского государственного технического университета,

На основе отзыва доцента ТашДТУ, Аллаярова Б.И.

РАЗРАБОТКА ВЫЧИСЛИТЕЛЬНЫХ АЛГОРИТМОВ И ПРОГРАММНАЯ РЕАЛИЗАЦИЯ МЕТОДИКИ РАСЧЕТА УРОВНЕЙ ЭЛЕКТРОМАГНИТНЫХ ПОЛЕЙ

Аннотация

При проектировании электротехнических устройств сложной формы возникает необходимость в моделировании объемных электромагнитных полей. Для решения таких задач существуют коммерчески распространяемые комплексы программ, стоимость которых достаточно высока, что не позволяет использовать их в полной мере. В данной работе представлено краткое описание программного комплекса для моделирования трехмерных электромагнитных полей на основе метода пространственных интегральных уравнений применительно к электротехническим задачам. Комплекс позволяет учитывать нелинейности характеристик магнитопроводов, гистерезисные явления (в том числе векторный гистерезис), распределение вихревых токов в сплошных элементах магнитопроводов и токо-проводах, перемещение подвижных частей магнитных систем. С его помощью можно получать различные интегральные характеристики (действующие на элементы системы силы, потокосцепления и т.п.), необходимые для проектирования электротехнических устройств.

Ключевые слова: Программный комплекс; электротехнические задачи; моделирование электромагнитных полей; метод пространственных интегральных уравнений.

HISOBLASH ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH VA ELEKTROMAGNIT MAYDONLAR DARAJASINI HISOBLASH METODOLOGIYASINI DASTURIY AMALGA OSHIRISH

Annatsiya

Murakkab shakldagi elektr qurilmalarni loyihalashda hajmli elektromagnit maydonlarni modellashtirish zarurati tug'ildi. Bunday muammolarni hal qilish uchun tijorat maqsadida tarqatilgan dasturiy paketlar mavjud bo'lib, ularning narxi ancha yuqori, bu esa ulardan to'liq foydalanishga imkon bermaydi. Ushbu maqolada elektr muammolariga qo'llaniladigan fazoviy integral tenglamalar usuliga asoslangan uch o'lchovli elektromagnit maydonlarni modellashtirish uchun dasturiy ta'minot to'plamining qisqacha tavsifi keltirilgan. Kompleks magnit yadrolar xarakteristikasining nochiziqililigini, histerezis hodisalarini (shu jumladan vektor histerizisini), magnit yadrolarning qattiq elementlarida va oqim o'tkazgichlarida girdob oqimlarining taqsimlanishini va magnit tizimlarning harakatlanuvchi qismlarining harakatini hisobga olish imkonini beradi. Uning yordami bilan siz elektr qurilmalarini loyihalash uchun zarur bo'lgan turli integral xususiyatlarni (tizimning elementlariga ta'sir qiluvchi kuchlar, oqim aloqalari va boshqalar) olishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: Dasturiy ta'minot to'plami; elektr muammolari; elektromagnit maydonlarni modellashtirish; fazoviy integral tenglamalar usuli.

DEVELOPMENT OF COMPUTATIONAL ALGORITHMS AND SOFTWARE IMPLEMENTATION OF METHODS FOR CALCULATING ELECTROMAGNETIC FIELD LEVELS

Annotation

When designing electrical devices of complex shape, necessitates the modeling of volume electromagnetic fields. To solve these problems, there are commercially available software packages, which cost quite high, so you cannot use them to their fullest. This paper presents a brief description of the software system for modeling three-dimensional electromagnetic fields based on the method of spatial integral equations as applied to electrical engineering problems. The complex allows to take into account the nonlinearity characteristics of magnetic circuits, hysteresis phenomena (including vector hysteresis), the distribution of eddy currents in the solid elements of the core and the conductors, moving the moving parts of the magnetic systems. With it, you can obtain various integral characteristics (forces acting on the elements of the system, flux, etc.) required for the design of electrical devices.

Key words: Software complex electrical engineering tasks; simulation of electromagnetic fields; the method of spatial integral equations.

Введение. Актуальность темы следует из необходимости высокоэффективных методов численного моделирования при проектировании технических устройств. С ростом сложности технических устройств растут и требования к точности требуемых для их проектирования расчетов. Так, при проектировании современных

ускорительных магнитов зачастую требуется вычисление магнитного поля с точностью до долей процента. Для получения требуемой точности с использованием метода конечных элементов требуются подробные сетки очень высокого качества. Особенно остро эта проблема проявляется в задаче автоматической оптимизации формы ускорительных магнитов, когда требуется постоянно перестраивать сетку и вычислять производные минимизируемого функционала в зависимости от оптимизируемых параметров геометрии магнита. Сохранять в этих условиях качество конечно элементной сетки, с учетом того, что сильные изменения сетки будут крайне негативно отражаться на процессе минимизации, становится весьма нетривиальной задачей. Поэтому в основном рассматривают решение либо двухмерных задач оптимизации, либо ограничиваются линейной задачей магнитостатики, полагая коэффициент магнитной проницаемости независимым от поля.

Применение подхода с совместным использованием методов конечных и граничных элементов позволяет избавиться от необходимости построения сетки в большей части расчетной области, что дает возможность значительно упростить построение сетки. Еще одним преимуществом такого подхода является возможность учета неограниченной внешней области естественным образом, без необходимости задания удаленной границы. Помимо этого, применение метода граничных элементов позволяет получить значительно более гладкое решение, менее чувствительное к особенностям сетки, что улучшает сходимость методов оптимизации.

Вычислительная технология Комплекса основана на автоматизированном вычислительном процессе, в котором пользователю требуется задать геометрию системы, свойства материалов, источники поля, способ представления результатов. На основе этих данных автоматически сформируется соответствующая сетка разбиения моделируемого объекта на элементы для выполнения расчета.

Комплекс представляет собой интегрированную диалоговую систему программ, позволяющую решать следующие полевые трехмерные задачи:

- линейные и нелинейные статические поля (поля электрических зарядов, поля постоянных магнитов и систем с ними);
- линейные и нелинейные стационарные поля (поля систем с постоянным током);
- линейные и нелинейные (в том числе гистерезис, векторный гистерезис) квазистационарные поля (поля электромагнитных систем с переменным током, возможным перемещением элементов магнитных систем, без учета излучения электромагнитных волн).

Основными элементами Комплекса являются: Препроцессор, Решатель и Постпроцессор.

Исходными данными для Препроцессора являются геометрические трехмерные модели объекта (которые в дальнейшем планируется получать из подсистемы конструирования). Основная функция препроцессора - представление объема моделируемого объекта в виде элементарных прямоугольных параллелепипедов (элементарных объемов). Окружающая объект среда на элементарные объемы не разбивается и в исходных данных не задается. При необходимости исследования внешнего поля дополнительно вводятся координаты внешних точек наблюдения [1].

Теоретическая и практическая значимость заключается в направленности на совершенствование методов оценки состояния ЭЭС (электроэнергетическая система), а также в развитии методов расстановки устройств измерений в условиях появления новых технологий в области средств измерения и управления в электроэнергетике [2].

Методология и методы исследования. В исследовании применялись модели энергосистем и средств измерений, разработанные в теории оценивания состояния в ЭЭС. Вычислительные эксперименты выполнялись с использованием метода Монте-Карло для сформированной области варьируемых независимых переменных. Анализ погрешностей средств измерений был выполнен с использованием методов и подходов статистики и метрологии [3]. Для преобразований систем уравнений применялся математический аппарат линейной алгебры. Разработка алгоритмов выбора мест размещения основана на применении теории графов и топологического анализа электрических цепей. Предложенные методики апробировались как на традиционных тестовых моделях энергосистем, используемых в мировой практике, так и на моделях реальных энергосистем.

Существующие инструкции по установке и монтажу традиционно связаны лишь с функциональными требованиями и часто не учитывают взаимодействие электромагнитных помех создаваемых бортовыми электронными устройствами; методы и алгоритмы автоматизированного проектирования трасс жгутов кабелей не учитывают условия электромагнитной совместимости между кабелями и проводниками в жгутах. Поэтому, решение проблем ЭМС является редким не только для инженеров, устанавливающих и монтирующих системы, но и для специалистов, ответственных за разработку оборудования [4]. В связи с вышеизложенным, исследование электромагнитной обстановки внутри системы и разработка моделей и алгоритмов прокладки трасс кабелей подвижных объектов с учетом электромагнитной совместимости, являются актуальными научно-техническими задачами, имеющими важное значение при проектировании бортовых систем подвижных объектов [5].

Разработка алгоритмов поиска трасс жгутов позволяющих обеспечить электромагнитную совместимость проводников и кабелей бортовой сети и размещения приборов и устройств на борту подвижных объектов в областях внутреннего пространства с наименьшим уровнем излучаемых электромагнитных помех. Для достижения указанной цели, в работе решены следующие научно-следовательские и практические задачи: Проведено математическое моделирование влияния излучаемых помех на электрические цепи элементов и устройств с целью исследования резонансных характеристик линии связи.

Разработан алгоритм определения трасс прокладки жгутов кабелей и проводников при условии их электромагнитной совместимости в жгутах с учетом критерии минимальной длины на плоских поверхностях и во внутреннем пространстве конструкции подвижного объекта. Разработан алгоритм размещения бортовых приборов и устройств с учетом влияния создаваемых излучаемых электромагнитных помех. Разработан алгоритм прокладки трасс жгутов кабелей с учетом влияния излучаемых электромагнитных помех от бортовых устройств. Разработана методика испытаний на восприимчивость к излучаемым электромагнитным помехам бортовых устройств и кабелей [6].

В настоящее время на рассмотрении в органах государственного санитарно-эпидемиологического надзора находится методический документ, в котором предлагается с целью уточнения существующих методик расчета для ряда технических средств использовать более строгие математические модели антенн с учетом реальных особенностей их

размещения (например, антенны на крышах зданий). Однако последний не распространяется на радиосредства базовых станций систем подвижной связи и станций телевизионного вещания[7].

Все рассмотренные выше методики ориентированы на расчет электромагнитной обстановки вблизи некоторого технического средства в монохроматическом приближении, т.е. в предположении, что вся мощность излучается антенной на одной частоте в пределах рабочей полосы. Реально же спектр цифрового сигнала (дальше от монохроматической модели и характеризуется достаточно сложным характером спектральной кривой (оглибающей спектральных составляющих) в рабочей полосе частот. Примером тому могут служить сигналы в системах подвижной связи с временным и кодовым разделением каналов. При этом, в силу дисперсионных свойств антенны, реальные уровни электромагнитного поля могут существенно отличаться от определенных в одночастотном приближении. Этот фактор пока не нашел отражения в действующих в настоящее время нормативно-методических документах. С учетом этого назрела необходимость в проведении серьезных исследований электромагнитных полей, создаваемых техническими средствами ЦСПИ различного назначения, которые позволят повысить качество системы электромагнитного мониторинга в целом[8].

Заключение. Обоснованы особенности анализа электромагнитных полей вблизи антенн цифровых систем передачи информации с учетом спектральной характеристики сигнала. Рассмотрены основные варианты характеристик спектральной плотности сигналов для различных цифровых систем передачи информации, включая системы цифрового телевидения, цифрового радиовещания, передачи данных и подвижной радиосвязи при различных способах уплотнения каналов. Проведенная оценка, с учетом частотных и спектральных характеристик сигналов и известных дисперсионных свойств антенн, подтвердила обоснованность предположения о необходимости учета ширины и вида спектра сигнала при расчете уровней электромагнитных полей вблизи передающих антенн цифровых систем передачи информации.

Получена новая модификация интегро-дифференциального уравнения в частотно-пространственной области относительно функции спектральной плотности тока с учетом линейного преобразования спектра во входной цепи антенны. На основе полученного уравнения разработана методика расчета уровней электромагнитных полей вблизи проволочных антенн цифровых систем передачи информации с учетом спектральной характеристики излучаемого сигнала, включающая решение выведенного интегро-дифференциального уравнения в частотно-пространственной области и процедуры усреднения напряженности поля.

Разработаны и реализованы в виде программных модулей вычислительные алгоритмы для проволочных и апертурных антенн, включающие процедуры:

- дискретизации (сегментации) полосы частот, занятой спектром сигнала, аппроксимации функции спектральной плотности, перехода к системе энергетически эквивалентных монохроматических режимов возбуждения;
- электродинамического анализа и отыскания в заданных точках наблюдения монохроматических полей для каждого эквивалентного монохроматического режима;
- отыскания энергетически эквивалентных монохроматических полей неопределенной поляризации в заданных точках наблюдения.

ЛИТЕРАТУРА

1. Бровка А. Компьютерное моделирование. Каталог коммерческих программных пакетов для моделирования электромагнитных полей. Саратов. 2015.
2. Подберезная И.Б. Применение пространственных интегральных уравнений для расчета квазистационарных электромагнитных полей в электромеханических устройствах. ЮФУ. Техн. науки. 2014. № 3.
3. Подберезная И.Б., Ершов Ю.К., Павленко А.В. Метод пространственных интегральных уравнений на примере задачи расчета магнитного поля в призме прямоугольного сечения. М.Электромеханика. 2014. № 2.
4. Подберезная И.Б., Ершов Ю.К., Павленко А.В. Расчет распределения магнитного поля в призме прямоугольного сечения методом пространственных интегральных уравнений при различных формах входного сигнала. Сев.Кавк. регион. 2014. № 5.
5. Подберезная И.Б., Ершов Ю.К., Павленко А.В. Оценка погрешности метода пространственных интегральных уравнений при его численной реализации. М. Электромеханика. 2015. № 5.
6. Ridders C.J.F. Accurate computation of $F'(x)$ and $F''(x)$. *Advances in Engineering Software*. 1982. Vol. 4, № 2.
7. Yusupkhadjayev E.N., Rozimukhamedova SH.B. The effect of electromagnetic waves on the human body. *International Journal*. In volume 18 of eurasian research bulletin. 2023.
8. Yusupkhodjaeva E., Botirova N., Axmedova N., Narzиеv SH. Ruzimukhamedova Sh.B. Negative influence of electromagnetic fields on human health and methods of protection. Республика микёсидаги илмий конференция. ТошДТУ. 2023.
9. Аллаяров Б.И., Ботирова Н.У., Рузимухамедова Ш.Б. Современные электроразведочные аппаратурно-программные комплексы (АПК) при прогнозировании локальных нефтегазо-перспективных объектов в НГО Узбекистана/ *Science and Innovation International Scientific Journal*. Volume 1, Issue 6, UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337.



Munisa BEKMUXAMEDOVA,
Geologiya fanlari universiteti Ilmiy tadqiqot ishlari yetakchi muhandisi PhD
E-mail: bekmuxeamedovamunisa@gmail.com

H.M. Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti, g-m.f.n. N.Shukurov taqrizi asosida

ECOLOGICAL IMPACT OF WASTE FROM INDUSTRIAL ENTERPRISES IN THE MIDDLE PART OF THE AKHANGARAN VALLEY

Annotation

This article examines the impact of industrial enterprises in the middle part of the Akhangaran valley on the environment, the distribution and accumulation of heavy metals, their effect on the human body, and improvement of the ecological state of the environment around large industrial enterprises.

Key words: mining industry region, geoecological situation, heavy metals, permissible norm, human organism.

ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ВОЗДЕЙСТВИЕ ОТХОДОВ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В СРЕДНЕЙ ЧАСТИ АХАНГАРАНСКОЙ ДОЛИНЫ

Аннотация

В данной статье рассматривается влияние промышленных предприятий средней части долины Ахангарана на окружающую среду, распространение и накопление тяжелых металлов, их влияние на организм человека, улучшение экологического состояния окружающей среды вокруг крупных промышленных предприятий.

Ключевые слова: зона горнодобывающей промышленности, геоэкологическая ситуация, тяжелые металлы, предельно допустимая концентрация (ПДК), человеческий организм.

OHANGARON VODIYSI O'RTA QISMIDA SANOAT KORXONALARI CHIQINDILARINING ATROF-MUHITGA TA'SIRI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Ohangaron vodiysi o'rta qismidagi sanoat korxonalarining atrof-muhitga ta'siri, og'ir metallarning tarqalishi va to'planishi, hamda ularning inson organizmiga ta'siri, yirik sanoat korxonalarida atrof-muhitning ekologik holatini yaxshilash masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: tog'-konchilik sanoati rayoni, geoekologik vaziyat, og'ir metallar, ruxsat etilgan chegaraviy miqdor (REChM), inson organizmi.

Kirish. Mazkur ishning tadqiqot obyekti sifatida Ohangaron vodiysi o'rta qismi olingan. Quyidagi holatlar ushbu tadqiqotning Ohangaron vodiysi o'rta qismi misolida bajarilishi maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatadi:

mazkur hududda respublikamizda eng sanoatlashgan Olmaliq-Angren sanoat rayonining mavjudligi va sanoat tarmoqlarining atrof-muhitga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi tog'-konchilik, energetika, kimyo, metallurgiya sanoati tarmoqlaridan iborat ekanligi;


sanoat obyektlari va boshqa antropogen ta'sir turlari oqibatida ekologik vaziyatning keskinlashganligi;

aholining zichligi va aholi yashash joylarining asosan vodiyning tubida, ya'ni gipsometrik jihatdan eng past qismidagi hududlarda joylashganligi;

ushbu hududlarga vodiyning har ikki yonbag'ridan va yuqori oqim tarafdan kimyoviy elementlarning kirib kelishi va to'planishi va h.k.

Yuqorida keltirilgan va boshqa omillar, manbalar aholi salomatligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan mazkur hududda kimyoviy elementlarning tarqalishini o'rganish va uning aholi salomatligiga ta'sirini aniqlash dolzarb masala hisoblanadi.

Ohangaron vodiysi Chotqol va Qurama tizmalari orasida, Chirchiq-Ohangaron tabiiy geografik okrugining janubi-sharqida joylashgan. Ohangaron daryo vodiysi shimoldan Chirchiq daryosining Chotqol, Oqsoqotasoy daryolari vodiylari bilan chegaradosh. Bu daryo vodiylari orasidagi chegara Qizilnura tog'ining suvayirg'ichidan o'tadi. Shimoli-g'arbida esa, Chirchiq daryo havzasiga qarashli Boshqizilsoy vodiysi bilan chegaradosh. Ular orasidagi chegara Qizilnura tog'ining janubi-g'arbiy tarmoqlari orqali o'tadi. G'arbiy chegarasi Belyovutsoy va Toshsoy soylarining suvayirg'ichlari orqali tog' oldi erozion-denudatsion yuzalardan o'tib, so'ngra Chirchiq daryo havzasining Toshkent kompleksiga tegishli IV-V erozion-akkumulyativ terrasalarining suvayirg'ichlaridan o'tib, Qorasuv kanaliga tutashadi. So'ng chegara Qorasuv kanalining o'zani orqali o'tadi. Kanal janubi-g'arbiga tomon davom etib, Alimkent shahri yaqinida Ohangaron daryo o'zaniga qo'shiladi. Shu joydan boshlab Sirdaryogacha bo'lgan chegara shartli ravishda Ohangaron daryosining o'ng qirg'og'idan o'tadi. Chunki bu hududlar to'liq o'zlashtirilgan bo'lib, natijada tabiiy relyef shakllari va tuproq, o'simlik qoplami o'zgarib ketgan va tabiiy chegaralar ko'rinmaydi. Shimoli-sharqiy, sharqiy, janubi-sharqiy chegarasi Qurama tizmasining suvayirg'ichlari orqali o'tadi. Janubiy chegarasi esa Ohangaron havzasining Qurama tizmasi tog' oldida joylashgan Toshkent kompleksiga tegishli IV-V erozion-akkumulyativ terrasalari bilan Sirdaryoning qayir usti II-terrasalarining tutashgan joyidan o'tadi (1-rasm) [7].



1-rasm. Ohangaron vodiysi o'rta qismi kosmik surati

Ohangaron suv omborigacha bo'lgan yuqori qismi daryo havzasining yuqori oqimiga kiradi. Ayrim adabiyotlarda havzaning o'rta qismining quyi chegarasini Kerovchi qishlog'i meridianidan o'tkaziladi. Kimyoviy elementlarning tarqalishida suv oqimi va shamollarning roli katta ekanligini inobatga olib, mazkur tadqiqot ishlarini Ohangaron va Tuyabo'g'iz suv omborlari orasidagi qismida olib borildi.
mm	38,7	42	48	32,6	12,8	1,3	0,7	0,2	1,2	5,2	27,5	30	240,2
%	16,1	17,4	19,9	13,6	5,3	0,5	0,3	0,08	0,5	2,1	11,4	12,5	100
Mingchuqur													
mm	87,6	110,7	119,2	91,2	68,9	19,2	6,5	4,3	7,6	26,1	79	90,2	710,5
%	12,3	15,6	16,7	12,8	9,7	2,7	0,9	0,6	1	3,6	11,1	12,7	100


Hisoblashlar natijalari ma'lumotlari asosida, har to'rtala meteorologik stansiyalarda qayd etilgan atmosfera yog'inlari miqdorlarining, yil davomida oylar bo'yicha taqsimlanishi diagramma ko'rinishida ifodalandi (1-4-rasmlar).




1-rasm. Yillik yog'in miqdorlarining yil davomida oylar bo'yicha taqsimlanishi, mm (Oqrobot meteorologik stansiyasi).



2-rasm. Yillik yog'in miqdorlarining yil davomida oylar bo'yicha taqsimlanishi, mm (G'uzor meteorologik stansiyasi).



3-rasm. Yillik yog'in miqdorlarining yil davomida oylar bo'yicha taqsimlanishi, mm (Qarshi meteorologik stansiyasi).



4-rasm. Yillik yog'in miqdorlarining yil davomida oylar bo'yicha taqsimlanishi, mm (Mingchuqur meteorologik stansiyasi).

Ishning keyingi bosqichida o'rganilayotgan hududda atmosfera yog'inlarining yil fasllari bo'yicha mavsumiy taqsimlanishi masalasi ko'rib chiqildi. Shu maqsadda yog'inlarning oylar bo'yicha taqsimlanishini aniqlash jarayonida bajarilgan hisoblashlar natijalaridan foydalandik (1- jadval). Natijada, 1-jadval ma'lumotlari asosida, qish, bahor, yoz va kuz fasllaridagi yog'in miqdorlari aniqlandi (2-jadval).

2-jadval

Meteorologik stansiyalarda atmosfera yog'inlarining mavsumiy taqsimlanishi 1991 - 2020 yillar bo'yicha (mm va % hisobida).

№	Meteorologik stansiyalar (balandlik, m)	Qish (XII-II)	Bahor (III-V)	Yoz (VI-VIII)	Kuz (IX-XI)	Yillik
1	Oqrabot (1599)	171.9 38 %	201.6 45 %	17.3 4 %	57.7 13 %	448.5 mm 100 %
2	G'uzor (524)	142.7 41 %	152.4 44 %	5.5 1.5 %	46.9 13.5 %	347.5 mm 100 %
3	Qarshi (378)	110.7 46 %	93.4 39 %	2.2 0.9 %	33.9 14.1 %	240.2 mm 100 %
4	Mingchuqur (2100)	288.5 41 %	279.3 39 %	30 4 %	112.7 16 %	710.5 mm 100 %

Bajarilgan tadqiqot natijalari tahlillariga asoslangan holda, **xulosa** sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

1. Oqrabot meteorologik stansiyasida kuzatilgan ko'p yillik atmosfera yog'inlarining mavsumiy taqsimlanishi quyidagicha bo'ldi: qish faslida 171,9 mm yoki 38 %, bahor faslida 201,5 mm yoki 45 %, yoz faslida 17,1 mm yoki 4 %, kuzda esa 57.6 mm yoki 13 %;

2. G'uzor meteorologik stansiyasida kuzatilgan ko'p yillik atmosfera yog'inlarining mavsumiy taqsimlanishi qish faslida 142,7 mm yoki 41 %, bahor faslida 152,4 mm yoki 44 %, yoz faslida 5,5 mm yoki 2 %, kuzda esa 46.9 mm yoki 13 %, ni tashkil qildi;

3. Qarshi meteorologik stansiyasida kuzatilgan ko'p yillik atmosfera yog'inlarining mavsumiy taqsimlanishi qish faslida 110,7 mm yoki 46 %, bahor faslida 93,4 mm yoki 39 %, yoz faslida 2,2 mm yoki 1,0 %, kuzda esa 33.9 mm yoki 14 % ga teng bo'ldi;

4. Mingchuqur meteorologik stansiyasida kuzatilgan ko'p yillik atmosfera yog'inlarining mavsumiy taqsimlanishi qish faslida 288,3 mm yoki 41 %, bahor faslida 279,1 mm yoki 39 %, yoz faslida 29,9 mm yoki 4 %, kuzda esa 112.6 mm yoki 16 % ni tashkil qildi.

ADABIYOTLAR

- Petrov Y., Egamberdiyev H., Alautdinov M., Xolmatjonov B. Iqlimshunoslik. Toshkent. Noshir. 2010. 168 bet.
- Глазырин Г.Э., Хикматов Ф.Х., Тургунов Д.М. и др. Методика исследования гидрологического режима горных рек (на примере р.Угам): Монография. – Ташкент.: «Фан ва технология», 2016. – 172 с.
- Галимова Р.Г. Современный климатический режим атмосферных осадков на территории республики Башкортостан. Географический вестник. 2020. 2(53).
- Маргарян В.Г. Proceedings of VSU, Series: Geography. Geocology, 2021, no. 4, 24-33.
- Н.Ф.Харламова. Статистические характеристики режима атмосферных осадков в Алтайском регионе. Научной статьи по специальности «Науки о Земле и смежные экологические науки».
- M.Hashino. Probability distribution of annual, seasonal and monthly precipitation in Japan. Hydrological Sciences Journal des Sciences Hydrologiques, 52(5) October 2007.
- Ro'ziqulov J.O. Qashqadaryo havzasi daryolarida kam suvli yillar va ularning takrorlanishini baholash. Magistrlik dissertatsiyasi 2022 y. Toshkent O'zMU.
- Глушков В.Г. Вопросы теории и методы гидрологических исследований. -М.: Изд-во АН СССР, 1961. -414 с.
- Тургунов Д.М. Маловоде на горных реках Средней Азии и обуславливающие их климатические условия. Автореф. дисс. ... ПхД. геогр. наук. – Ташкент, 2019. –46 с.
- Hikmatov F.X., Turg'unov D.M. Tog' daryolarida kam suvli yillar, ularning me'yori va kam suvlilikning chuqurlashuvi masalalari // O'zMU xabarlari. Tabiiy fanlar. -Tashkent, № 3/1. 2017. - B. 330 – 335.



УДК: [550.8.02:658.512]:553.981.2.048(575.1)

Одаш КАРШИЕВ,

Доцент ТашГУТУ им. Ислама Каримова

E-mail: odashkarshiev@gmail.com,

Ксения ТОКАРЕВА,

ГУ ИГИРНИИГМ

E-mail: tokarevaksenia5@gmail.com,

Ирмухамат ХАЛИСМАТОВ,

Профессор ТашГУТУ им. Ислама Каримова

E-mail: Irmuxammad.Xalimatov.tdtu@gmail.com

Равшан ЗАКИРОВ,

Профессор ТашГУТУ им. Ислама Каримова

E-mail: r.t_zakirov@mail.ru

доцент ТДТУ С.Агзамова на основе отзыва

PROMISING AREAS OF RESEARCH WORK ON INCREASING THE RESOURCES AND RESERVES OF HYDROCARBON RAW MATERIALS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Annotation

The article presents an assessment of the resource potential of the oil and gas regions of the Republic of Uzbekistan. Certain prospects for the identification of large reserves of deposits are given. The main priority areas of scientific activity contributing to the early development and expansion of promising resources and reserves of oil and gas of Uzbekistan by means of effective scientific support and support of geological exploration for oil and gas are described.

Key words: Republic of Uzbekistan, oil and gas industry, oil and gas regions, oil, gas, gas condensate, resources, reserves.

U'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA UGLEVODOROD XOMASHYOSI RESURSLARI VA ZAXIRALARINI KO'PAYTIRISH BO'YICHA ILMIY-TADQIQOT ISHLARINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI

Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston Respublikasi neft va gaz mintaqalarining resurs salohiyatini baholash keltirilgan. Zaxiralar bo'yicha yirik konlarni aniqlash bo'yicha muayyan istiqbollar keltirilgan. Neft va gazga geologiya-qidiruv ishlarini samarali ilmiy qo'llab-quvvatlash va qo'llab-quvvatlash orqali O'zbekistonning istiqbolli neft va gaz resurslari va zaxiralarini jadal rivojlantirish va ko'paytirishga yordam beradigan ilmiy faoliyatning asosiy ustuvor yo'nalishlari tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasi, neft-gaz tarmog'i, neft-gaz mintaqalari, neft, gaz, gaz kondensati, resurslar, zaxiralar.

ПЕРСПЕКТИВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ РАБОТ ПО НАРАЩИВАНИЮ РЕСУРСОВ И ЗАПАСОВ УГЛЕВОДОРОДНОГО СЫРЬЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Аннотация

В статье представлена оценка ресурсного потенциала нефтегазоносных регионов Республики Узбекистан. Приводятся определенные перспективы по выявлению крупных по запасам месторождений. Описываются основные приоритетные направления научной деятельности, способствующие скорейшему развитию и наращиванию перспективных ресурсов и запасов нефти и газа Узбекистана по средствам эффективного научного обеспечения и сопровождения геологоразведочных работ на нефть и газ.

Ключевые слова: Республика Узбекистан, нефтегазовая отрасль, нефтегазоносные регионы, нефть, газ, газоконденсат, ресурсы, запасы.

Введение. В настоящее время нефтегазовая отрасль Республики Узбекистан представляет собой полноценный и налаженный механизм научно-производственных процессов, включающий в себя такие направления, как: геологоразведочные работы – научные исследования направленные на решение фундаментальных и научно-прикладных задач, геологическое изучение недр, обоснование перспектив нефтегазоносности с количественной оценкой прогнозных ресурсов углеводородов, определение направлений геологоразведочных работ, локальный прогноз нефтегазоносности, поиски и разведка месторождений УВ, научное сопровождение геологоразведочного процесса, комплекс лабораторно-аналитических исследований кернового материала и пластовых флюидов, моделирование залежей УВ и подсчет запасов [5].

В Республике Узбекистан выделено пять нефтегазоносных регионов с доказанной продуктивностью: Устюртский, Бухаро-Хивинский, Юго-Запад-но-Гиссарский, Сурхандарьинский и Ферганский. Кроме того, определенные перспективы связываются с Хорезмским и Средне-Сырдарьинским регио-нами, Заравшанской впадиной и Центрально-Кызылкумским сводом [1]. Каждый из этих регионов отличается от других по истории своего освоения, по глубинному геологическому строению, по плотности размещения открытых месторождений и их типам, по глубинам залегания залежей УВ, по объемам прогнозных и перспективных ресурсов и т.д. Этаж нефтегазовой продуктивности изменяется от палеозойского до неогенового возраста включительно.

Направления научно-исследовательских работ.

Территория Устюртского региона приурочена к трем нефтегазоносным областям: Северо-Устюртской, Южно-Мангышлакской и Восточно-Аральской, которые имеют особенности геологического строения. Вертикальный разрез состоит из кристаллического фундамента докембрийского возраста, промежуточного палеозойского этажа и осадочного чехла. В северной части осадочный чехол сложен терригенными и карбонатными породами мезозоя (юра, мел) и кайнозоя (палеоген, неоген). Открытые газоконденсатные месторождения, залежи газа и конденсата, залегающие в интервале глубин от 1600 м до 4500, приурочены к песчаным отложениям юрского возраста и карбонатам палеозоя. Залежи в палеозойских отложениях приурочены к эрозионным блокам карбонатов нижнего и среднего карбона. Залежи в юрских отложениях связаны с ловушками структурно-литологического типа. Кроме того, в верхнеюрских карбонатных отложениях в Косбулакском прогибе и из нижнеюрских отложений (Куаныш-Коскалинский вал) получены притоки нефти. Продуктивность связана с юрскими отложениями от нижней до верхней юры в интервале глубин 1700-2400 м, газовые залежи связаны с антиклинальными ловушками.

В геологическом строении Бухаро-Хивинского региона принимают участие образования складчатого основания и отложения осадочного чехла, представленные породами юрской, меловой, палеогеновой, неогеновой и антропогеновой систем. В тектоническом плане территория БХР разделяется на две тектонические элемента II порядка: Бухарская и Чарджоуская ступени.

В пределах Бухарской ступени, ввиду полного или частичного отсутствия соляно-ангидритовой формации, месторождения имеют большой этаж газоносности по всему разрезу юры и мела. Как правило, они многопластовые (до 10 и более залежей). Промышленная нефтегазоносность связана с меловыми, юрскими карбонатными и терригенными отложениями. Региональная нефтегазоносность на Чарджоуской ступени связана в основном с карбонатными породами, залегающими непосредственно под соляно-ангидритовым комплексом верхней юры, и с терригенными отложениями ниже-среднеюрских отложений.

Нефтегазоносность юрских, меловых и палеогеновых отложений доказана многими скважинами на месторождениях Южной ступени и Северного борта Ферганской впадины, что даёт возможность продолжения работ по проведению поискового и разведочного бурения как на новых структурах, подготовленных к бурению, так и на объектах, с доказанной нефтегазоперспективностью.

Для обеспечения намеченных объемов прироста запасов углеводородов в Сурхандарьинском регионе с учетом размещения прогнозных ресурсов, геологического строения отдельных тектонических зон, полноты осадочного разреза, глубин залегания продуктивных горизонтов, орографических условий и других критериев выделены приоритетные зоны и районы проведения геологоразведочных работ. При этом в качестве главного поискового объекта на газ определены юрские карбонатные отложения, на нефть – палеогеновые образования.

В Гиссарском регионе основным поисковым комплексом являются юрские карбонатные и терригенные отложения.

В процентном соотношении примерно 86 % извлекаемых начальных суммарных ресурсов углеводородов по Республике Узбекистан приурочены к газообразным углеводородам. При этом 35,6 % приходится на разведанные и предварительно оцененные запасы, и 64,4 % на перспективные и прогнозные ресурсы углеводородов [2]. Распределение извлекаемых начальных суммарных ресурсов углеводородов по регионам представляется следующим образом: на Устюртский регион приходится 25,5 %; на Бухаро-Хивинский – 49,8 %; на Юго-Западно Гиссарский – 4,5 %; на Сурхандарьинский – 9,6 %; на Ферганский – 4,6 %, на Средне-Сырдарьинский – 4,7 % и Хорезмский – 1,2 %.

За весь период геологоразведочных работ (по состоянию на 1 января 2023г.) в Республике Узбекистан открыто 296 месторождений УВ сырья (201 – на стадии разработки, 90 – на стадии геологоразведки), в том числе: в Устюртском регионе - 27 месторождений; в Бухаро-Хивинском регионе - 203; в Юго-Западно-Гиссарском регионе - 19; в Сурхандарьинском регионе - 14; в Ферганском регионе – 33 (рис.1). По фазовому составу открытые месторождения дифференцируются на нефтяные (54), газовые (9), нефтегазовые (27), нефтегазоконденсатные (58), газоконденсатные (148) (рис.2). Из 296 месторождений, 114 – разрабатываемых, 83 – разведываемых, 90 – подготовленных к освоению и 9 законсервированных (рис. 3).

В Устюртском регионе по состоянию на 01.01.2023г. на Государственном балансе Республики Узбекистан числятся 27 месторождений углеводородного сырья, из которых 5 – разрабатываемых, 11 – разведываемых, 10 – подготовленных к освоению и 1 законсервированное.

По фазовому составу открытые месторождения дифференцируются на газовые (1), нефтегазоконденсатные (1), газоконденсатные (25) [3].

В Бухаро-Хивинском регионе по состоянию на 01.01.2023 г. на Государственном балансе Республики Узбекистан числятся 203 месторождения углеводородного сырья, из которых 73 – разрабатываемых, 52 – разведываемых, 71 – подготовленное к освоению и 7 законсервированных.

По фазовому составу открытые месторождения дифференцируются на нефтяные (22), газовые (6), нефтегазовые (16), нефтегазоконденсатные (51), газоконденсатные (108).

В Юго-Западно Гиссарском регионе по состоянию на 01.01.2023 г. на Государственном балансе Республики Узбекистан числятся 19 месторождений углеводородного сырья, из которых 6 – разрабатываемых, 11 – разведываемых и 2 – подготовленных к освоению.

По фазовому составу открытые месторождения дифференцируются на нефтяные (3), газовые (1), нефтегазоконденсатные (2), газоконденсатные (13).

В Сурхандарьинском регионе по состоянию на 01.01.2023 г. на Государственном балансе Республики Узбекистан числятся 14 месторождений углеводородного сырья, из которых 8 – разрабатываемых, 2 – разведываемых и 4 – подготовленных к освоению.

По фазовому составу открытые месторождения дифференцируются на нефтяные (12), газовые (1), нефтегазовые (1) [4].




Рис. 1. Распределение месторождений углеводородов по нефтегазоносным регионам




Рис. 2. Распределение количества месторождений по типу флюида




Рис. 3. Распределение месторождений углеводородного сырья по степени освоения

В Ферганском регионе по состоянию на 01.01.2023 г. на Государст-венном балансе Республики Узбекистан числятся 33 месторождения углеводородного сырья, из которых 22 – разрабатываемых, 7 – разведываемых, 3 – подготовленных к освоению и 1 законсервированное.

По фазовому составу открытые месторождения дифференцируются на нефтяные (17), нефтегазовые (10), нефтегазоконденсатные (4), газоконден-сатные (2).

Перспективность Хорезмского региона связана с оценкой прогнозных извлекаемых ресурсов газа D_1+D_2 , составляющей 2,4 % от общего количества прогнозных извлекаемых ресурсов по РУз, а также газоконденсата – 1,1 % от общего количества прогнозных извлекаемых ресурсов по РУз.

Таким образом в Устьуртском (юрские), Бухаро-Хивинском (юрские терригенные и карбонатные, меловые), Юго-Западно Гиссарском (юрские терригенные и карбонатные) регионах перспективность отложений связана преимущественно с газоконденсатностью, в Сурхандарьинском регионе (юрские, меловые, палеогеновые, неогеновые) преимущественно с нефтяностью и высокими перспективами на газ, в Ферганском регионе с нефтеносностью и нефтегазоносностью юрских, меловых и палеогеновых отложений.

Средне-Сырдарьинский и Приташкентский перспективные территории располагают прогнозными извлекаемыми ресурсами газа D_1+D_2 в объеме 8,6% от общего количества прогнозных извлекаемых ресурсов по РУз и извлекаемого конденсата – 15,8% от общего количества прогнозных извлекаемых ресурсов по РУз, также извлекаемой нефти оцениваемых в 4,5% от общего количества прогнозных извлекаемых ресурсов по РУз.

Промышленные запасы (ABC_1), предварительно оцененные запасы (C_2), перспективные ресурсы (C_3), прогнозные ресурсы (D_1+D_2) и накопленная добыча в сумме формируют начальные суммарные ресурсы. В настоящее время освоенность начальных суммарных ресурсов (отношение суммы запасов ABC_1 и накопленной добычи к

начальным суммарным ресурсам) по Республике Узбекистан достигает 32,0%, и по регионам распределяется следующим образом:

- по Устюртскому региону – 14,0%;
- по Бухаро-Хивинскому региону – 51,6%;
- по Юго-Западно-Гиссарскому региону – 29,0%;
- по Сурхандарьинскому региону – 8,7%;
- по Ферганскому региону – 13,7%.

Анализ ресурсной базы углеводородов показывает, что подавляющее количество начальных запасов УВ промышленных категорий сосредоточено в крупных (43,2%) и уникальных (36,4%) месторождениях. В сумме это составляет 79,6%. В средних месторождениях сосредоточено 9,0% и в мелких – 11,4% начальных запасов УВ.

В настоящее время вероятность открытия крупных по запасам месторождений крайне мала. Исключением может явиться территория Устюртского региона, где выявлены многопластовые залежи, в которых сконцентрированы крупные и средние по запасам залежи УВ. В процессе разработки и доразведки таких месторождений, возможно их объединение в одно целое, что позволит нарастить по ним запасы УВ до размеров крупных.

Также определенные перспективы выявления крупных по запасам месторождений связываются с опосредованным поиском подселевых юрских карбонатных отложений в Сурхандарьинском регионе.

Однако вероятность выявления крупных по запасам месторождений еще достаточно высока. Крупные по запасам УВ месторождения до настоящего времени являлись основой для добычи углеводородов. Такое положение дел сохраниться и в ближайшем будущем.

Выводы. Геологическое изучение недр, направленное на развитие и наращивания перспективных ресурсов и запасов нефти и газа Узбекистана, заключается в эффективном научном обеспечении и сопровождении геологоразведочных работ на нефть и газ в Республике Узбекистан. Для осуществления поставленных целей по воспроизводству минерально-сырьевой базы Узбекистана определены 5 приоритетных направлений научной деятельности института:

- Изучение фундаментальных законов геологических систем нефти и газа и прогнозирование углеводородного потенциала, включающие изучение нефтегазовой геологии Республики и сопредельных государственных территорий и оценка перспектив, исследования керна и шлама, интерпретация геофизических исследований скважин, геохимические, гидрогеологические, газоконденсатные исследования;
- Научная основа и повышение эффективности геологоразведки на нефть и газ, заключающаяся в проектировании геологоразведочных работ, анализе сейсмических и скважинных данных, оценке геологоразведочных работ и подсчете ресурсов и запасов;
- Оценка ресурсов и запасов углеводородов современными методиками и разработка нормативных документов;
- Оцифровка данных и геологическое моделирование нефтегазовых регионов, базирующаяся на 3 основных этапах: в областях площадей и месторождений, перспективных зонах и участках, в масштабе регионов;
- Оценка углеводородного потенциала новых нефтегазовых районов и стратиграфических горизонтов.

ЛИТЕРАТУРА

1. Абдуллаев Г.С. Создание надежной сырьевой базы углеводородов на долгосрочную перспективу. Инновации в области геологоразведочных работ. Ташкент. Узбекский журнал нефти и газа, 2012г. Специальный выпуск:16-22.
2. Абдуллаев Г.С. Состояние и перспективы наращивания сырьевой базы углеводородов Республики Узбекистан. Ташкент. Узбекский журнал нефти и газа. 2019г. Специальный выпуск: 18-25.
3. Абдуллаев Г.С., Богданов А.Н., Насыров Д.Д., Эйдельмант Н.К. Нефтегазовый потенциал Узбекистана – перспективы развития. Материалы Республиканской научно-практической конференции 23 октября 2015 года. «Актуальные вопросы развития нефтегазовой отрасли Республики Узбекистан». 2015. Ташкент: 17-18.
4. Богданов А.Н. Структура сырьевой базы углеводородов Республики Узбекистан. Материалы Международной научно-практической конференции 10-11 октября 2019 года «Актуальные проблемы нефтегазовой геологии и инновационные методы и технологии освоения углеводородного потенциала недр». Ташкент: 32-37.
5. Зайнутдинов Ш.Н., Нурибетов Р.И. Ресурсная база и потенциал производства Узбекистана: Использование и эффективность (Региональный аспект). Бюллетень науки и практики – научный журнал. Нижневартовск: 2017г. №10, 207-212.



UDK: 911.3:612.014(575.1)

Nilufar KOMILOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti professori, g.f.d
E-mail: ni.komilova@nuu.uz
Sirojiddin DO'SBEKOV,
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

Guliston davlat pedagogika instituti ijtimoiy fanlar va san'atshunoslik kafedrasida o'qituvchisi, g.f.f.d. H.E.Egamqulov taqrizi asosida

QASHQADARYO VILOYATINING TIBBIY GEOGRAFIK XUSUSIYALARI

Аннотация

Ma'lumki, aholi salomatligi va kasallanish ko'rsatkichlari hududlarning tabiiy-ekologik, iqtisodiy-ijtimoiy shart-sharoitga, ayniqsa atrof-muhitning ekologik vaziyatiga bog'liq. Ayniqsa, bugungi kunda respublikamizning o'ziga xos geografik tafovutlarga ega viloyatlarida aholi salomatligi bilan bog'liq qator muammolar yuzaga kelmoqdaki ularni ilmiy jihatdan o'rganish va baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot obyekti hisoblangan Qashqadaryo viloyatining tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy xususiyatlari bilan respublikamizda alohida ajralib turadi. Viloyatda, ovqat hazm qilish, qon aylanish tizimi, qon va qon hosil qiluvchi a'zolari hamda immun tizimi xastaliklari yetakchilik qiladi.

Kalit so'zlar: Tibbiyot geografiyasi, aholining umumiy kasallanishi, ekologik vaziyat, inson salomatligi, atrof-muhit, iqlim o'zgarishi, o'lim.

МЕДИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация

Известно, что показатели здоровья и заболеваемости населения зависят от природно-экологических, экономико-социальных условий регионов, особенно от экологической ситуации окружающей среды. Сегодня, особенно в регионах нашей республики, имеющих специфические географические различия, существует ряд проблем, связанных со здоровьем населения, и их научное изучение и оценка имеют большое значение. В регионе лидируют заболевания пищеварения, системы кровообращения, крови и органов кроветворения, иммунной системы.

Ключевые слова: Медицинская география, общая заболеваемость населения, экологическая ситуация, здоровье человека, окружающая среда, изменение климата, смертность.

MEDICAL GEOGRAPHICAL FEATURES OF KASHKADARYA REGION

Annotation

It is known that population health and morbidity indicators depend on the natural-ecological, economic-social conditions of the regions, especially on the ecological situation of the environment. Today, especially in the regions of our republic with specific geographic differences, there are a number of problems related to the health of the population, and their scientific study and evaluation are of great importance. Diseases of digestion, circulatory system, blood and blood-forming organs and immune system are leading in the region.

Key words: Medical geography, general population morbidity, ecological situation, human health, environment, climate change, death.

Kirish. BMT hamda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti prognozlariga ko'ra, 2048-yilda dunyo bo'yicha o'limning umumiy soni 90 millionga yetadi [1]. Mazkur muammo kelgusida aholi salomatlikni mustahkamlash, farovonlik va o'rtacha umr davomiylikni oshirish uchun aholini sifatli tibbiy xizmat bilan ta'minlash, undan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, hududlar ekologik holatini barqarorlashtirish va yaxshilashni talab etadi.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish, atrof muhitning ifloslanish darajasini baholash mexanizmlarini takomillashtirish, atrof muhitni kuzatish, uning ifloslanish darajasini prognoz qilish," kabi muhim vazifalar belgilangan [2].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tibbiy geografik tadqiqotlar, jumladan aholining kasallanish ko'rsatkichlari hamda kasalliklarning hududiy tarkibi masalalari uzoq xorij, sobiq Ittifoq va hozirgi MDH davlatlari olimlari tomonidan tadqiq qilingan. Ular qatoriga eng avvalo, J.May, R.Park, M.Birkin, L.Jacobs, H.Giardet, Ye.N.Pavlovskiy, A.A.Shoshin, A.V.Chaklin, A.P.Avsym, Ye.I.Ignatyev, B.B.Proxorov, Ye.L.Rayx, V.P.Podolyan, A.A.Keller, A.G.Voronov kabilarni kiritish mumkin. Yuqorida qayd etilgan olimlarning har biri tibbiyot geografiyasining u yoki bu tarmog'i rivojiga o'z hissalarini qo'shganlar. Tadqiqot obekti bo'yicha R.Xodiyev, R.Usmonova, Q.S.Yarashev, M.Fayzullayev, X.Jumayev singari qator olimlar tadqiqotlar olib borgan bo'lsada, ularning ishlari viloyatning tabiiy geografik xususiyatlari, rekreatsiya va qishloq xo'jaligi nuqtayi nazaridan o'rganilgan. Biroq aynan, tibbiy geografik jihatdan viloyat ilk marotaba o'rganilmoqda [3].

Tadqiqot metodologiyasi. O'rganilayotga hududni tabiiy geografik jihatdan o'rganishda A.Abdulqosimov, L.Alibekov, S.B.Abbasov Q.S.Yarashev, A.X.Ravshanov, tibbiy geografik tahlillar A.S.Soliyev, X.Tursunov, M.Nazarov, N.Komilova, I.R.Turdimambetov, M.Hamroyev, A.Ravshanov, N.Muhammedova singari mutaxassislar shug'ullanishgan.

Tadqiqotning usullari. Ishda kartografik, tizimli-tahlil, qiyoslash, matematik, statistik, dala-tadqiqot, rekognosirovka, tayanch eksperimental tadqiqot, ma'lumotlarni grafiklar va jadvallarda tizimlash kabi bir qator usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Viloyat maydoni 28,57 ming km². bo'lib, mamlakat hududining 6,4 foizini tashkil etadi. Aholisi, 1-yanvar 2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, 3560,6 ming kishi ya'ni respublika aholisining 9,7 foiz qismi istiqomat qiladi. Aholi zichligi 1 km² ga 124,7 kishiga teng. Shahar aholisining ulushi 42,8 foizga teng. Viloyatning ma'muriy markazi Qarshi shahri bo'lib, uning aholisi 295,6ming kishi (1.01.2024-y.). Qashqadaryo viloyati ma'muriy-hududiy tuzilishida 14 qishloq tumanlari mavjud. Qashqadaryo viloyati respublikamizning janubida joylashgan, u shimoli-g'arbda Buxoro viloyati, shimolda Samarqand va qisqaroq masofada Navoiy viloyatlari, janub hamda janubi-sharqda Surxondaryo viloyati bilan chegaradosh. Viloyat hududi g'arb va janubi-g'arbda Turkmaniston, sharqda Tojikiston bilan ham tutashgan.


Ma'lumki hududlarning relyef, landshaft xususiyatlari tibbiy geografik vaziyatga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Bu jihatdan viloyat o'ziga xos geografik tafovut kasb etadi. Bu jihatdan viloyat hududini geomorfologik jihatdan uchta asosiy shaklga: tog', tog'oldi va tekislik hududlariga ajratish mumkin. Yer usti tuzilishi o'ziga xos murakkab bo'lib, yarmidan ko'proq qismi tekislik va baland bo'lmagan tepaliklardan iborat. Qarshi cho'li ham aynan mazkur hududda joylashgan. Viloyat shimoli-sharq, sharq va janubi-sharqda tog'liklar bilan o'ralgan bo'lib, bu yerda Zarafshon(Qoratepa va Chaqlikalon tog'lari) va Hisor tizmasi (Beshnov, Sumsar, Shertog', Xontaxti, Eshakmaydon, Maydanak, Toytalash, Chaqchar, Qorasirt va boshqalar), Hisor tog'ini janubi-sharqda qismidagi (Osmontarash, Ko'ktog', Konsoy, Kaypantog', Torqopchig'ay va h.k.) tog' tizmalari bilan chegaralanadi. Ular o'z navbatida turlicha tabiat landshaftlari o'zida mujassam qiladi. Viloyatning tekislik qismi Qashqadaryo daryosi o'zanining shimoliy qismi Muborak-Azlar tepa ko'tarilmasi, uning janubiy qismi esa Beshkent-Qashqadaryo tog'oldi bukilmisidan iborat.

Aytish o'rinliki, viloyatning Shaxrisabz, Qamashi, Dehqonobod, Kitob va qisman Chiroqchi tumanining shimoliy qismi tog'liklardan iborat. Viloyatning markaziy va g'arbiy qismlari esa pasttekisliklardan tashkil topgan. Yer usti, orografik tuzilishi shimoli-sharq, sharq va janubi-sharqdan g'arb, shimoli-g'arb yo'nalishida pasayib borishi bilan ta'riflanadi [4]. Tekislik qismida Qashqadaryoni o'rta va quyi sohillari, Muborak va Nishon cho'llarida sayyohlikning noan'anaviy yo'nalishlarini tashkil etish imkoniyatlari mavjud. Viloyat hududi respublikamizda neft va tabiiy gaz zahiralarning ko'pligi bo'yicha ham yetakchi o'rinda turadi. Shuningdek, hudud tuz konlari, qurilish materiallari xom ashyosiga juda boy.

Iqlim sharoitlarining shakllanish xususiyatlariga ko'ra, Qashqadaryo viloyati hududi subtropik iqlim guruhiga mansub bo'lib, Turon provinsiyasining alohida Qashqadaryo iqlim okrugi sifatida ajratiladi. Qashqadaryo viloyatining o'ziga xos iqlimiy xususiyatlari uning geografik o'rniga bog'liq. Viloyatda rekreatsiyada eng foydali iqlimiy omillaridan biri quyosh radiatsiyasi miqdori 6700-7000 mj/m² ni tashkil etadi. Quyoshli kunlar 2600-3000 soatga teng bo'lib, u viloyat hududining deyarli hamma joyida yil davomida musbatdir [5]. Quyoshli kunlarning davomiyligi turistik-ko'ngilochar tadbirlarni o'tkazish imkoniyatlarini belgilaydi va sayyohlarning dam olishini oqilona tashkil etish imkonini beradi. Viloyatning yillik o'rtacha harorati tekislik va tog'oldi rayonlari shimolida 15⁰C (Kitob), janubda 16,1⁰C (G'uzor), Qarshi shahrida iyunning o'rtacha harorati 28,4-29⁰C bo'lsada, ammo kunduz kunlari harorat 36-37⁰C gacha ko'tariladi. Mutlaq maksimum tog'oldi hududlarida (Kitob, Dehqonobod) 43⁰C, tekislikda esa 46-47⁰C gacha (Qarshi, G'uzor) yetadi. Tog'li hududda relyef ta'sirining kattaligidan tekislikka nisbatan ancha salqin va sovuq bo'lmaydiga kunlar o'rta hisobda 226-228 kunga teng va bu turizmni ayrim turlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Insonlar uchun o'rtacha qulay ob-havo sharoitlari quyidagi holatlarda kuzatiladi: havo harorati +18 +26⁰C, nisbiy namlik 40-60 foiz, shamol tezligi-0,1-0,2 m/s hisoblanadi. Havoning nisbiy namligi 30-60 foiz bo'lganda odam o'zini yaxshi his etadi. Agar nisbiy namlik 30 foizdan past bo'lsa quruq havo, 71-80 foizdan yuqori bo'lsa juda nam havo hisoblanadi [6]. Viloyatda bunday qulay ob-havo sharoiti bahor oylariga mansub bo'lib, ichki turizm faollashadi, sayyohlikni "pik" davriga to'g'ri keladi. Viloyatda havoning nisbiy namligi yil davomida o'zgarib turadi. Yozda namlik me'yordan ancha past bo'lib, Muborakda iyulda 22 foiz, Qamashida 25 foiz, tog'larga ko'tarilgan sari esa nisbiy namlik miqdori ortib boradi. Qarshi cho'lida qurg'oqchil kunlar ko'p bo'ladi va bu turizmni ayrim turlarini rivojlantirishda noqulay hisoblanadi.

Qashqadaryo viloyati hududida atmosfera yog'inlarining mavsumiy va hududiy taqsimlanishi juda xilma-xil. Tekislikda yillik yog'inlar miqdori 175-300 mm, o'rtacha baland tog'larda 630-850 mm ni tashkil etadi. Qishki barqaror qor qoplamining mavjud bo'lishi tog' chang'i sporti bilan shug'ullanish ikoniyatini beradi. Viloyatning Kitob, Shaxrisabz, Yakkabog', Qamashi va Dehqonobod tumanlaridagi tog'larda qor qalinligi 20-50 sm, baland tog'larda esa doimiy muzliklar va qor qoplamlari vujudga kelgan bo'lib ikki oydan olti oygacha qor qoplami saqlanib turadi. O'rtacha baland va baland tog'li mintaqalarda qishki tog' sport turizm turlarini rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.


-Qashqadaryo viloyati respublikamizning yuqori iqtisodiy salohiyatiga ega bo'lgan hududlaridan biri hisoblanadi. Viloyatda yoqilg'i-energetika, tog'-kon sanoati va qishloq xo'jaligi singari tarmoqlar rivojlangan. Viloyatning O'zbekiston yalpi ichki maxsulotidagi salmog'i 5,6 foizni, sanoat maxsulotidagi ulushi 4,1; qishloq xo'jaligi maxsuloti yetishtirishdagi hissasi 9,3 foizni tashkil etadi. Qashqadaryo viloyati doimiy aholisining soni 1-yanvar 2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, 3560,6 ming kishini tashkil etgan. Aholi soni bo'yicha O'zbekistonda Samarqand va Farg'ona viloyatlaridan keyingi uchinchi o'rinni egallaydi. Tibbiy geografik xususiyatlariga ko'ra viloyatda ko'pgina kasallik guruhlari, jumladan ovqat hazm qilish, qon aylanish tizimi, qon va qon hosil qiluvchi a'zolari hamda immun tizimi xastaliklari, nafas olish, yuqumli-parazitar kasalliklar salmog'i bo'yicha mamlakatimizda oldingi o'rinlarni egallaydi.



1-rasm. Qashqadaryo viloyati aholisining qon aylanish tizimi a'zolari bilan bog'liq kasalliklar bilan kasallanish darajasi (100 000 ming kishiga nisbatan). Rasm viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi ma'lumotlari[7] asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

Ma'lumki, qon aylanish tizimi kasalliklari qatoriga yurak hamda tomirlar bilan bog'liq kasalliklarni kiritish mumkin. Eng xavfli kasalliklar qatoriga yurak- arterial gipertenziya, aritmiya, yurak-ishemik kasalligi, stenokardiya, va hokazolarni kiritish mumkin. Mazkur kasallik bilan bog'liq o'lim va kasalanish holatlar barcha davlatlar va mintaqalarda yetakchi o'rin egallaydi. 2000-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrda Qashqadaryo viloyatining Kitob (5236,8; 10168,3); G'uzor (3991,4;) 5409,5 singari tumanlarida mazkr kasallik bilan og'riqanlar soni sezilarli tazda ortgan (1-rasm).

Ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari, paydo bo'lish joyiga ko'ra quyidagicha tasniflanadi: og'iz bo'shlig'i, jag', so'lak bezlari, qizilo'ngach, oshqozon, o'n ikki barmoqli ichak kasalliklari, appendiks, ichak kasalliklari, jigar, oshqozon osti bezi, o't pufagi, o't yo'llari. Ushbu kasalliklarning oldini olish uchun parhez va sog'lom turmush tarzi muhim o'rin egallaydi.



Rasm viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi ma'lumotlari[7] asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

Alohida ta'kidlash lozimki, viloyat aholi orasida ovqat hazm qilish a'zolari bilan kasallanganlar soni bo'yicha respublikadan eng yetakchi hududlaran biridir. So'ngi yigirma yil mobaynida mazur kasallik salmog'i ancha kamaygan bo'lsada ko'rsatkichlar mamlakatda hamon yetakchi o'rinlarni egallaydi.

Tadqiqot davomida Qashqadaryo viloyati tibbiy geografik nozoeologik holatini baholashda SWOT tahlili amalga oshirildi (1-jadval). Bunda viloyatning kuchli, kuchsiz, imkoniyatlari va unga xavf solayotgan tahdidlar yoritildi.

1-jadval

Qashqadaryo viloyatida aholi salomatligini yanada mustahkamlash, kasalliklar salmog'ini kamaytirishning SWOT tahlili

KUCHLI TOMONLARI (Strengths)	ZAIIF TOMONLARI (Weaknesses)
-qulay iqtisodiy-geografik joylashuvi; -tabiiy-resurs salohiyatining yuqoriligi; -xilma-xil re'lef, gidrogeologik, daryo va soylar, suv omborlarni mavjudligi; -qulay transport infratuzilmasi, halqaro avtomagistral va temir yo'llarning mavjudligi; -savdo, iqtisodiy va madaniy aloqalarning yo'lga qo'yilishi; -gigant neft-gaz sanoatini zavodlarning joylashganligi; -davolash-sog'lomlashtirish resurslarga juda boyligi.	-tibbiy infratuzilmaning eskiligi va ta'mirlalabligi; --ichimlik suvi bilan taminlanganlik darajasi past; -tibbiy infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi va hududlar bo'yicha notekis joylashganligi; -viloyatdagi rekreatsion, balneologik salohiyatdan yetarli darajada foydalanishni yo'lga qo'yilmaganligi; - xizmat ko'rsatish darajasi pastligi -xorijiy investitsiyalarning tibbiyot sohasiga jalb qilinishi sust darajadaliigi.
IMKONIYATLAR (Opportunities)	XATARLAR (Threats)
-viloyatni geografik o'rni, yer yuzasi tuzilishining xilma-xilligi cho'llar, tekislik, tog'oldi va tog'li mintaqalarning mavjudligini hisobga olib tibbiy xizmat ko'rsatish shahobchalarini joylashtirish; -Kitob, Shahrisabz, Yakkabog', Qamashi va Dehqonobod tumanlarida yuqori sog'lomlashtirish turizmi, ekoturistik salohiyatni mavjudligini hisobga olib aholi salomatligini mustahkamasga xizma qiluvchi 3,5 kunlik sayohalar tashil etish; -Dehqonobod tumanidani Konsoy sho'r ko'li va Xo'jaipok mineral bulog'i atrofida tibbiy-sog'lomlashtirish muassasalarini barpo etish; -viloyatdagi Hisorak, Chimqo'rg'on, Pachkamar, Tallimarjon, Nug'ayli suv omborlari, Sichanko'l, Sho'rko'l atrofida dam olish zonalarini bunyod etish.	-aholi o'rtasida ishsizlik darajasini ko'payishi; -viloyat hududi yerlarining sho'rlanish darajasi ortib bormoqda; -Muborak, Mirishkor tumani cho'l hududlarida aynisa, chorachilikka ixtisoslashgan hududlarda brutsellyoz va shu singari kaalliklar salmog'ining yuqoriligi; - aholi o'rtasida umumiy kasallanish, ayniqsa, yurak, qon-tomir, nafas olish, ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari salmog'ining yuqoriligi; -viloyatning ko'pgina ma'muriy-hududiy birliklarida ichimlik suv bilan bog'liq muammolarning mavjudligi.

Umuman olganda, Qashqadaryo viloyati o'ziga xos tibbiy geografik xususiyalarga ega bo'lib, ularni o'rganish yangidan-yangi tadqiqotlarni talab etadi.

ADABIYOTLAR

- World health statistics 2023: monitoring health for the SDGs, Sustainable Development Goals file:///C:/Users/User/Downloads/9789240074323-eng.pdf
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil, 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni. <http://lex.uz/docs/5841063>
- Komilova N.K. Inson ekologiyasi va nozogeografik tadqiqotlar. Monografiya. -Toshkent. «Zebo prints», 2023, 208 bet.O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari (2000-2022)
- Солиев А.С. Ўзбекистон географияси (Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси).-Тошкент: Университет, 2014.-404 б.
- Баратов А. Ўзбекистон табиий географияси. Т. 1996, "Ўкитувчи", 272 бет.
- Зокиров Ф.З., Рахмонов К.Р. Ўзбекистоннинг шифобахш масканлари. Т. 1991. 120 б.
- Qashqadaryo viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi ma'lumotlari



Mirzoxid QORIYEV,
Namangan davlat universiteti dotsenti v.b. (PhD)
E-mail: qoriyevmirzohid@mail.ru
Akmaljon HALIMJONOV,
Namangan davlat universiteti o'qituvchisi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti, g.f.n. O.Sultashova taqrizi asosida

ANOMALOUS COLD EVENTS OBSERVED IN NAMANGAN REGION AND THEIR EFFECTS ON FRUIT TREES

Annotation

This article describes the results of research conducted to determine anomalous cold events observed in the Namangan region and their negative impact on fruit trees. For this purpose, data on daily minimum air temperatures in January 2023 from the Namangan and Pap meteorological stations, as well as from the Uchkurgan, Kasansay, and Chust agrometeorological stations located in the Namangan region, were analyzed. Additionally, the results of observations aimed at determining the negative impact of anomalous cold events on fruit trees are presented.

Key words: anomalous cold event, protection of fruit trees from frost, climate change.

АНОМАЛЬНО ХОЛОДНЫЕ ЯВЛЕНИЯ НАБЛЮДАЕМЫЕ В НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ПЛОДОВЫЕ ДЕРЕВЬЯ

Аннотация

В данной статье представлены результаты изучения аномально холодных явлений, наблюдаемых в Наманганской области, и их негативного влияния на плодовые деревья. Для этого были проанализированы данные метеостанций Наманган и Пап, а также агрометеорологических постов Учкурган, Касансай и Чуст, расположенных в Наманганской области, по суточным минимальным температурам воздуха за январь 2023 года. Также представлены результаты наблюдений по определению негативного воздействия аномально холодных явлений на плодовые деревья.

Ключевые слова: аномальное явление холода, защита фруктовых деревьев от мороза, изменение климата.

NAMANGAN VILOYATIDA KUZATILGAN ANOMAL SOVUQ HODISALARI VA ULARNING MEVALI DARAXTLARGA TA'SIRI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Namangan viloyatida kuzatilgan anomal sovuq hodisalari va ularni mevali daraxtlarga salbiy ta'sirini aniqlash bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari yoritilgan. Buning uchun Namangan viloyatidagi Namangan va Pop meteorologiya stansiyalari hamda Uchqo'rg'on, Kosonsoy va Chust agrometeorologiya postlarining 2023-yilning yanvar oyidagi kunlik minimal havo haroratlari bo'yicha ma'lumotlari tahlil qilingan. Shuningdek, anomal sovuq hodisasini mevali daraxtlarga salbiy ta'sirini aniqlash bo'yicha olib borilgan kuzatuv natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: anomal sovuq hodisasi, mevali daraxtlarni sovuqdan muhofaza qilish, iqlim o'zgarishi.

Kirish. Dunyoning turli mintaqalarida ayrim yillari yilning ma'lum vaqtlarida noodatiy (anomal) ob-havo sharoitlari kuzatiladi, ya'ni shu hudud uchun shakllangan uzoq yillik iqlimiy sharoitdan chetlanish holatlari uchrab turadi. "Anomal sovuq", "Anomal issiq", "Anomal qurg'oqchilik", "Anomal yog'ingarchilik" kabi hodisalar shular jumlasidandir [1]. Bu kabi hodisalar xalqaro miqyosda belgilangan ma'lum bir me'yorlardan chatlashgandagina anomal bo'lishi mumkin. Misol uchun "Anomal sovuq" hodisasi o'rtacha ko'p yillik ma'lumotlar bo'yicha kundalik o'rtacha miqdordan 7 va undan past darajaga sovuqroq bo'lganda "anomal" deyiladi. Masalan, kuzatilayotgan ma'lum bir kunning o'rtacha ko'p yillik miqdori -6°C bo'lgani holda, shu kuni o'lgangan real harorat -13 va undan ham pastroq darajani tashkil etsa yilning shu vaqti uchun anomal sovuq hisoblanadi [2]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-avgustdagi "Gidrometeorologiya va atrof tabiiy muhit ifloslanishi monitoringi sohasida ixtisoslashtirilgan xizmatlar ko'rsatish reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 501-son qarorida "anomal sovuq ob-havo" hodisasi deb: oktabr oyidan aprel oyigacha bo'lgan davrda besh va undan ko'p kun davomida iqlimiy me'yordan 7°C va undan past bo'lgan o'rtacha sutkalik havo harorati ko'rsatkichlaridir deb ta'rif berilgan. Ushbu qarorga asosan "anomal sovuq ob-havo" o'ta xavfli meteorologik hodisalardan biri sifatida qayd etilgan (1-jadval).

1-jadval

O'ta xavfli meteorologik hodisalarning namunaviy ro'yxati [3]

T/r	Hodisalar nomi	Hodisalar xususiyatlari va mezonlari
1.	Juda kuchli shamol (dovul)	Maksimal shamol tezligi 25 m/s va undan yuqori
2.	Qasirg'a (shiddatli shamol)	Shamol qisqa muddatga keskin (bir necha daqiqa davomida, lekin 1 daqiqadan kam bo'lmagligi kerak) 25 m/s gacha va undan yuqori kuchayishi
3.	Halokatli dovul	Shamol 33 m/s va undan yuqori tezlikda
4.	Kuchli changli (qumli) bo'ron	Tezligi 15 m/s va undan yuqori maksimal tezlikdagi shamol ta'sirida chang (qum) ko'chishi, davomiyliigi 3 soatdan ko'p bo'lmagan meteorologik uzoqlik ko'rinishining 500 m dan kam yomonlashishi
5.	Kuchli qorli bo'ron	Tezligi 15 m/s va undan ko'p shamol ta'sirida yuzadan qorni ko'chishi, davomiyliigi 3 soatdan ko'p bo'lmagan meteorologik uzoqlik ko'rinishining 500 m dan kam yomonlashishi
6.	Kuchli tuman	Suvning eng kichik zarrachalari (chang, yonish mahsulotlari) to'planishi hisobiga havoni kuchli xiralashishi, bunda davomiyliigi 3 soatdan ko'p bo'lmagan gorizontal meteorologik uzoqlik ko'rinishi 50 mm dan kam yomonlashishi
7.	Juda kuchli yomg'ir (yomg'ir qor bilan)	Yog'ingarchilik miqdori 12 soat va undan kam vaqt ichida 30 mm va undan ko'p

8.	Juda kuchli jala	Yog'ingarchilik miqdori 1 soat va undan kam vaqt ichida 15 mm va undan ko'p
9.	Juda kuchli qor	12 soat va undan kam vaqt ichida 20 mm va undan ko'p bo'lgan yog'ingarchilik miqdori
10.	Yirik do'l	Diametri 20 mm va undan katta bo'lgan do'l
11.	Kuchli yaxmalak	Elektr simlarida yaxmalak diametri: yaxmalak — 20 mm dan ko'proq; ho'l qor yoki murakkab qatlamlari — 35 mm dan ko'proq; bulduruq — 50 mm dan ko'proq.
12.	Kuchli sovuq	Noyabr oyidan mart oyigacha bo'lgan davrda 20°C sovuq va undan past bo'lgan minimal havo harorati, shimoliy hududlar uchun 20° sovuq va undan past bo'lgan minimal havo harorati
13.	Kuchli issiq	May oyidan avgust oyigacha bo'lgan davrda 43° C va undan yuqori bo'lgan maksimal havo harorati, janubiy hududlar va cho'l hududlar uchun 46°C va undan yuqori bo'lgan maksimal havo harorati
14.	Anomal sovuq ob-havo	Oktyabr oyidan aprel oyigacha bo'lgan davrda besh va undan ko'p kun davomida iqlimiy me'yordan 7° va undan past bo'lgan o'rtacha sutkalik havo harorati ko'rsatkichlari

Adabiyotlar tahlili. Anomal sovuq hodisasi O'zbekistonda tez-tez takrorlanib turadi. Ayniqsa, so'nggi yillarda ta'siri kuchli sezilayotgan global iqlim o'zgarishi sharoitida bunday hodisalarning takroriyliigi ortib bormoqda. Meteorologik kuzatuvlar tarixida O'zbekistonda ko'plab sovuq qishlar bo'lgan. Jumladan, 1968-1969 yillar qishi eng sovuq kelgan. Ushbu qish mavsumida respublikaning ko'plab hududlarida minimal havo haroratining mutlaq rekordlari qayd etilgan edi. O'zbekistonning shimoliy hududlarida meteorologik kuzatuvlar tarixidagi eng past havo haroratlari 1972 va 1977 yillarda kuzatilgan bo'lib, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Navoiy viloyatining shimolida ushbu yillarda havo harorati -33 dan -36°C gacha va Ustyurt platosida -38 dan -40°C gacha sovuq kuzatilgan. So'nggi 50 yil ichida eng uzun va sovuq qish mavsumi 2007-2008 yillarda qayd etilgan bo'lib, sovuq davr dekabr oxiridan fevral oyining o'rtalariga qadar davom yetgan. Respublika hududi bo'yicha harorat -17 dan -22°C gacha sovuq, ba'zi joylarda -24 dan -26°C gacha sovuq, Qoraqalpog'iston Respublikasi va cho'l hududlarida -30 dan -33°C gacha havo harorati pasayib ketgan. Toshkent shahrida 2008-yilning qishida havo harorati -17,4°C sovuqgacha, 1974-yilning yanvar oyida -18,6°C sovuqgacha pasaygan. 2023-yil 13-yanvar kuni so'nggi 50 yil ichida yanvar oyida kuzatilgan eng past ko'rsatkich, ya'ni -19,80°C sovuq harorat qayd etildi. Toshkent shahrida 1969-yil qishda termometr ustuni -23,1°C sovuqgacha tushgan bo'lsa, minimal havo haroratining mutlaq rekordi 1930-yil dekabr oyida -29,5°C sovuqni tashkil etgan [4].

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan har qaysi anomal ob-havo hodisalari, shu jumladan "anomal sovuq" ham jamiyatning ko'plab sohalariga, xususan, qishloq xo'jaligiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Misol uchun "anomal sovuq" hodisasi qishloq xo'jaligi ekinlariga, mevali daraxtlarga jiddiy shikast yetkazib, hosil miqdorini keskin tushurib yuborishi mumkin. Xatto ayrim mevali daraxtlar butkul qurib qolishi ham mumkin. Shu bois, bu kabi jarayonlarni chuqur o'rganish va unga qarshi samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda adabiyotlar tahlili, statistik tahlil, geografik umumlashtirish va taqqoslash usullaridan foydalanildi.


Ishni bajarish jarayonida Namangan viloyatidagi Namangan va Pop meteorologiya stansiyalari hamda Uchqo'rg'on, Kosonsoy va Chust agrometeorologiya postlarining 2023-yilning yanvar oyidagi kunlik minimal havo haroratlari bo'yicha ma'lumotlar to'planib, ular matematik statistik usullar yordamida tahlil qilindi.

Meteorologiya stansiyalari hamda agrometeorologiya postlarining ma'lumotlari geografik taqqoslash usuli yordamida o'zaro solishtirilib, o'xshash va farqli jixatlari aniqlandi.

Namangan viloyatida kuzatilgan anomal sovuq hodisasini mevali daraxtlarga ko'rsatgan salbiy ta'sirini aniqlash uchun dala kuzatuv usulidan foydalangan holda tadqiqot ishlari amalga oshirildi


Tahlillar va natijalar. O'zbekistonning turli hududlari qatori Namangan viloyatida ham anomal sovuq hodisalari tez-tez takrorlanib turadi. Meteorolog E.Abdulxatovning ma'lumotiga ko'ra Namangan viloyatida eng sovuq qish fasli 1968-1969 yildagi qish mavsumiga to'g'ri kelib, bunda, qish faslining uch oyi - dekabr, yanvar va fevral oylari birdek sovuq kelgan. Namangan shaxri uchun kuzatuvlar tarixidagi eng sovuq kun ham xuddi shu qish mavsumiga to'g'ri kelgan bo'lib, yanvar oyida havo harorati selsiy bo'yicha -25,8°C gacha pasaygan [5]. Bu yillardan keyin ham Namangan viloyatining qish faslida bir necha marta anomal sovuq hodisalari kuzatilgan. Jumladan, Gidrometeorologiya xizmati agentligi tomonidan taqdim etilgan O'zbekistonning 13 ta yirik shahrida qish oylarida kuzatilgan minimal havo harorati to'g'risidagi so'nggi 49 yillik (1972-yildan 2021-yilgacha) ma'lumotlar "gazeta.uz" sayti orqali e'lon qilindi [6]. Ma'lumotlar diagramma shaklida berilgan bo'lib, Namangan shahri bo'yicha ma'lumotlar 1-rasmda berilgan.

Intellektual va evristik qobiliyatlarni rivojlantirish maktabdan boshlanadi, boshlang'ich va o'rta kasb-hunar ta'limi muassasalarida, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida davom etadi va texnik kasblarda amalga oshiriladi. O'rta maktab uchun tavsiya etilgan namunaviy yo'nalishlar orasida texnik, ishlab chiqarish-texnologik, axborot-texnologik, fizik-texnik, qishloq xo'jaligi-texnologik va boshqalar kabi texnik yo'nalishlar mavjud. Intellektual va evristik qobiliyatlarni rivojlantirishda GATdan foydalanib, talabalarga uch o'lchovli relef modelini qurish va mavjud qatlamlar asosida o'zlarining raqamli xaritalarini yaratish, raqamli kontur xaritalarini tahrirlash, taqdimot uchun xaritalarni tayyorlash hamda fazoviy geografik fikrlashni rivojlantirishga hissa qo'shadigan qimmatli GAT funksiyalarini o'rgatish mumkin bo'ladi.

Talabalarning o'quv faoliyatining ushbu metodlarini shakllantirish an'anaviy xaritalardan foydalanganda sekinlashadi, chunki u talabalar orasida qog'oz xaritalar va atlaslar yordamida shakllantirish deyarli mumkin bo'lmagan o'quv faoliyati usullariga, masalan, bir nechta xaritalarni, ba'zan turli masshtablarga solishtirish, qo'shish texnikasiga asoslangan. O'quv faoliyatining bu usuli esa talabalarga geografiyani o'rgatish jarayonida eng muhimlaridan biridir. Xaritani qo'shish natijalari

geografik jarayonlarning fazoviy ko'rinishlarida kuzatilgan o'xshashliklar haqiqiy sabab-natija munosabatlarining ta'siridan kelib chiqqanligini talabalar tomonidan tushunishga yordam beradi.

GAT texnologiyalari bunday muammolarni tezda hal qilish imkonini beradi va talabaga alohida elementlar va ularning munosabatlarini tizimli tahlil qilishda yordam beradi. Natijada, geografik bilimlar talabalar tomonidan ongli ravishda, mustahkam o'zlashtiriladi, o'zlarining bilish harakatlari tufayli talabaning intellektual va evristik qobiliyatlari rivojlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Берлиант А. М., Геоинформационная карта. - М.: Астрей, 1997. - 64 С.
2. Чернобай Е.В., Методические основы подготовки учителей к проектированию учебного процесса в современной информационной образовательной среде. – автореф. дис... докт. пед. наук/Е.В. Чернобай. – М.: [б.и.], 2012. – 50 с.
3. Резник Н.А. Методические основы обучения математике в средней школе с использованием средств развития визуального мышления. – Дисс. на соискание уч. степени д-ра пед. наук. – Санкт-Петербург, 1997. – 500 с.
4. Восточкова А.В., Кошель С.М., Ушакова Л.А. Оформление карты. Компьютерный дизайн. - М.: Аспект-Пресс, 2002. - Ст. 278
5. Сафаров Е.Ю., Абдуллаев И.А'. ГИС-технологии и картографическая база Даннхх Национальный атлас Узбекистана // O'zbekiston geografiya jamiyati VIII s'ezdi materiallari. - Geografiya va geoeкологиya fanning mintaqaviy muammolari - Nukus., 2009. 27-28 noyabr. 227-228 b.
6. Plewe B. GIS Online: Information Retrieval, Mapping, and the Internet. - Geoinformation, International, Cambridge, UK, 1997. - 311 p.
7. Демерс М.Н. Географические информационные системы. Основ // М.: Дата, 1999. - 490 С.



UDK: 910.27:004

Kaxramon SABIROV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti erkin izlanuvchisi
E-mail: qaxramon_7333@mail.ru

O'zMU g.f.n, PhD K.Bekunov taqrizi asosida

HARDWARE AND SOFTWARE OF THE GEOINFORMATION SYSTEM

Annotation

In the last decade, the development of science and society has been accelerated by the transition of society to the information stage due to the active introduction of information and communication technologies into various spheres of human activity. In today's era of informatization, hardware and software of a geoinformation system are of great importance.

The article describes computer technology, its advantages and its use in the GIS system when performing this process.

Key words. Computer, map, diagram, process, system, data, server, station, device.

АППАРАТНЫЕ И ПРОГРАММНЫЕ СРЕДСТВА ГЕОИНФОРМАЦИОННОЙ СИСТЕМЫ

Аннотация

В последнее десятилетие развитие науки и общества ускоряется переходом общества на информационную стадию в связи с активным внедрением информационно-коммуникационных технологий в различные сферы человеческой деятельности. В сегодняшнюю эпоху информатизации важное значение имеют аппаратные и программные средства геоинформационной системы.

В статье рассказывается о компьютерной технике, ее преимуществах и использовании в системе ГИС при выполнении этого процесса.

Ключевые слова. Компьютер, карта, диаграмма, процесс, система, данные, сервер, станция, устройство.

GEOAXBOROT TIZIMINING APPARAT VA DASTURIY VOSITALARI

Annotatsiya

So'nggi o'n yillikda fan va jamiyat taraqqiyoti axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining inson faoliyatining turli jabhalariga faol joriy etilishi tufayli jamiyatning axborot bosqichiga o'tishi tezlashmoqda. Bugungi axborotlashtirish davrida geoaxborot tizimining apparat va dasturiy vositalari muhim ahamiyatga ega.

Maqolada bu jarayonni amalga oshirishda kompyuter texnologiyalari, uning afzalliklari va ulardan GAT tizimida foydalanish to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Kompyuter, xarita, diagramma, jarayon, tizim, ma'lumot, server, stansiya, qurilma.

Kirish. Jahonda tabiatning ekologik holatini monitoring qilishda axborot-analitik tizimlarni ishlab chiqishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu yo'nalishda rivojlangan mamlakatlarda, jumladan AQSh, Yaponiya, Xitoy va Rossiya davlatlarida geoaxborot tizimi asosida tabiiy ofatlar va ob-havo keskin o'zgarishlari jarayonlarini prognozlash, shahar ekotizimi tarmoq monitoringini olib borish, obektlardagi ekologik muammo darajasini aniqlash, atrof-muhit ma'lumotlarini qayta ishlash va yagona ma'lumotlar bazasiga ega bo'lgan axborot-analitik markazlari orqali doimiy monitoring olib borish tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi o'n yillikda fan va jamiyat taraqqiyoti axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining inson faoliyatining turli jabhalariga faol joriy etilishi tufayli hayot tarzimizni butunlay o'zgartirdi. Hozirgi vaqtda jamiyatning postindustrial rivojlanish bosqichidan axborot bosqichiga o'tishini ta'minlovchi axborotlashtirish jarayoni amalga oshirilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. B.Ye.Starichenkoning fikricha, "... zamonaviy jamiyatda qulaylikka ega bo'lish uchun inson quyidagi fazilatlariga ega bo'lishi kerak:

- tanqidiy va mustaqil fikrlash;
- o'z faoliyat sohasi bo'yicha yuqori malaka, dunyoqarash;
- kerakli ma'lumotlarni qidirish, qayta ishlash va ulardan foydalanish texnologiyalarini erkin bilish;
- ishda intizom, aniqlik va tartiblilik;
- o'z faoliyati natijasi uchun javobgarlikka tayyorlik;
- o'z-o'zini tarbiyalash qobiliyati va buning uchun ichki motivatsiyaning mavjudligi" [1].

AKTning, xususan, geografik axborot tizimlarining rivojlanishi va ularning inson faoliyatining turli sohalarida joriy etilishi axborot madaniyatini shakllantirish zaruriyatini keltirib chiqardi. Axborot jamiyati muammosi bilan M.V.Stupina [2], umumiy o'rta ta'lim tizimida axborot-dasturiy ta'minot bilash ishlash masalalari A.O.Syrsova [3]lar tomonidan o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda kompyuter savodxonligi omma orasida ancha oshgan. GATda tuzilgan xarita oddiy qog'ozli xaritadan yaxshi bezalgani, kompyuterli shakldaligi, qo'lda bajarib bo'lmaz darajadagi aniqligi va boshqa bir qator afzalliklari bilan farq qiladi. Xaritaga istagancha o'zgartirish kiritish, yangi mazmun va bo'yoq berish, diagramma va boshqa ma'lumotlarni kiritish, o'chirish va h.k. ishlarni bajarsa bo'ladi. Buning uchun muallifning shaxsan o'zi xarita tuzishning kompyuterli texnologiyalari bilan mukammalroq tanishishi va ular asosida xarita tuzib ko'rishi kerak. Xarita yaratishning bu texnologiyasi bugungi kunda, birinchidan - sezilarli darajada universallashtirilgan, ikkinchida - juda tez rivojlanayotgan, inson faoliyatining hamma sohalarini qamrab olayotgan jarayondir. Geografik axborot tizimlari sohasida asosiy bilimlar kitoblarda va

GATning turli sohalariga oid bo'lgan monografiyalar va konferensiya materiallari orqali kiritilmoqda. Hozirgi paytga kelib GATning 20 dan ortiq ta'rifi mavjud bo'lib, ularning har biri o'zicha e'tiborga loyiq. Internet va davriy ravishda chop etilayotgan ilmiy jurnal va adabiyotlarda GATning turlicha ta'riflari keltirilgan.

Tadqiqot natijalari. Geoaxborot tizimini fazoviy ma'lumotlarni kiritish, saqlash, vizuallashtirish hamda ishlash uchun mo'ljallangan apparat va dasturiy vositalar majmui sifatida ko'rish mumkin. GATlarning asosiy apparat vositalari serverlar va ishchi stansiyalardir. Biroq ishlash uchun ma'lumotlarni kiritish va chiqarishga oid turli periferiya qurilmalari ham zarur. Ma'lumotlarni kiritish periferiya qurilmalari jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. Klaviatura. Alfavit-raqamli axborotni kiritish uchun mo'ljallangan. Uning yordamida atributiv ma'lumotlar barobarida grafik (fazoviy) ma'lumotlarni ham kiritish mumkin. So'nggi holatda bunday kiritish ob'ektlarning u yoki bu koordinatalar tizimidagi koordinatalarini kiritish vositasida amalga oshiriladi.

2. Sichqon. An'ana bo'yicha sichqon grafik axborotni vektorli redaktor vositasida kiritishning asosiy vositasi sifatida qo'llaniladi.

3. Skaner. Skaner boshlang'ich qog'oz yoki boshqa materiallar bo'yicha rastrli ifodani shakllantirish uchun qo'llaniladi. Skanerlar quyidagilar bo'yicha farqlanadi:

- boshlang'ich materialni o'qish uchun uzatish usuli bo'yicha (qo'lda ishlanadigan, planshetli, tortuvchi, masalan, rolikli va barabanli);

- axborotni o'qish prinsipi bo'yicha (yorug'lik yoki yorug'lik aksi bilan ishlaydigan);

- rangning teranligi bo'yicha;

- imkoniy aniqlik bo'yicha;

- geometrik aniqlik bo'yicha;

- skanerlash tezligi bo'yicha;

- format (skanirlanadigan manbaning maksimal o'lchami) bo'yicha.

4. Digitayzer. Bu qurilma grafik hujjatlarni qo'lda raqamlash (parchalash) uchun mo'ljallangan. Parchalash natijasi holati to'g'ri burchakli dekart koordinatalari bilan ta'riflanadigan ob'ektlarning konturlarini aylanib chiqishda yuzaga keladigan nuqtalar ko'pligi yoki ketma-ketligi ko'rinishida ifodalanadi.

5. Grafik planshet. Sichqonning alternativasi hisoblanadi va kursorni maxsus pero va planshet yordamida oddiy ruchka bilan rasm chizishni imitatsiyalagan holda pozitsionirlash imkoniyatini beradi. Sanab o'tilgan periferiya vositalaridan tashqari boshqalari ham mavjud, ular ham fazoviy ma'lumotlarni kiritish uchun mo'ljallangan. Masalan, yo'ldoshlar yordamida foydalanuvchining o'rnatilgan joyi to'g'risidagi ma'lumotlarni avtomatik tarzda shakllantiradigan GPSpriyomniklar ushbu ma'lumotlarni ham real vaqt rejimida, ham o'lchovlar bajarilgandan keyin uzatish uchun kompyuterga ulanishi mumkin.

Erkin dasturiy ta'minotga o'tishga urinishlardan tashqari, 2010 yildan beri maktablarda [4] elektron o'quv majmuasi sinovdan o'tkazilmoqda, unga quyidagilar kiradi:

- ikkita ekranni birlashtirgan "enTourage Edge" planshet kompyuteri - suyuq kristalli va elektron siyoh texnologiyasiga asoslangan (E-Ink);

- darsliklarning elektron shakllari.

Bunday qurilmaning o'ziga xos afzalligi - ikkinchi ekraning mavjudligi, chunki "ishning asosiy qismi ko'rish uchun mutlaqo xavfsiz bo'lgan E-Ink ekranida amalga oshiriladi (zamonaviy riderlarda qo'llaniladigan "elektron siyoh" optik tuzilishda oddiy qog'ozga, ya'ni yorug'likni aks ettirish tufayli ishlaydi) [5]. Ta'lim jarayonida bunday elektron qurilmadan foydalanish sanitariya me'yorlarini buzmaydi.

Haqiqiy o'quv jarayonida elektron darsliklardan foydalanish natijalari tahliliga ko'ra, o'qituvchilar "o'quvchilarning texnik moslama yordamida fan bilan ishlashga bo'lgan motivatsiyasi va qiziqishi, darsda va uyda elektron darsliklardan foydalanishdan zavqlanish, uning vazifalaridan tashqari narsalarni o'rganish va foydalanish faoliyati"ni ta'kidlaydilar [6].

Asosiy axborot chiqarish qurilmasi monitor hisoblanadi. Biroq axborotni qattiq tashuvchiga chiqarish zarurati bo'lganda quyidagi qurilmalar qo'llanilishi mumkin.

1. Printer. Bu ma'lumotlarni chiqarishning eng ommaviy periferiya qurilmasidir. Printerlar quyidagilar bo'yicha farqlanadi:

- bosish uchun materialni uzatish usuli bo'yicha;

- bosish prinsipi bo'yicha (purkovchi, lazer, matritsaviy, barabanli, termik, termomumli va boshq.);

- imkoniy aniqlik bo'yicha;

- bosish tezligi bo'yicha.

2. Grafopostroitel (plotter). Bu ma'lumotlarni grafik shaklda qog'ozga, plastikka, fotosezuvchan materialga yoki boshqa tashuvchiga chizish, o'yish, fotoreGATratsiya yoki boshqa usul bilan chiqarish uchun mo'ljallangan qurilmadir. Grafopostroitellar quyidagilar bo'yicha farqlanadi:

- materialni bosish uchun uzatish usuli bo'yicha (planshetli, rulonli yoki rolikli);

- ijrosi bo'yicha (pol ustiga, stol ustiga qo'yiladigan);

- grafik ob'ektlarning tuzilish prinsipi bo'yicha (vektorli, rastrli);

- bosib chiqarish usuli bo'yicha (elektrostatik, purkovchi, lazer, svetodiod va boshq.);

- ish maydonining o'lchami bo'yicha;

- aniqlik bo'yicha;

- rasm chizish (bosish) tezligi bo'yicha.

GATlarning dasturiy ta'minoti bir nechta asosiy va yordamchi modullardan (ilovalardan) iborat bo'lishi mumkin.

T.N.Polyakovaning ta'kidlashicha, "Klassik qog'oz darsliklarni PocketBook pro 912 qurilmasi asosidagi elektron darsliklarga almashtirish bir qator afzallik va kamchiliklarga ega:

1. Afzalliklar:

- nisbatan og'irligi kam (to'g'ridan-to'g'ri riderning o'zi);

- ixchamlik va qulay o'lcham uyg'unligi (A4 format A5 yoki undan kichikroqdan ancha yaxshi);

- kompyuterga oson ulanish (micro USB port);

- qo'shimcha xotira (micro sd) o'rnatish imkoniyati;

- Internetga kirish imkoniyati (wi-fi);
- Bluetooth mavjudligi;
- tovushni eshittirish imkoniyati;
- grafik muharrirdan foydalanish imkoniyati;
- qurilma bilan stilus va boshqaruv tugmalari sifatida ishlash imkoniyati;
- maktab o'quv dasturida taqdim etilgan barcha darsliklar mavjudligi (shu yerda va hozir);
- katta hajmdagi adabiyotlar (adabiy asarlar: she'rlar, hikoyalalar, g'azallar);
- keng doiradagi lug'atlarning mavjudligi;
- maktab o'quv dasturining bir necha yillik darsliklariga ega bo'lish imkoniyati;
- doc (word) formatidagi hujjatlarni qo'llash va buning natijasida matnli hujjatlarni yuklash imkoniyati;
- eslatmalar qo'yish imkoniyati;
- matn shriftini kattalashtirish imkoniyati.

2. Kamchiliklari:

- yetarlicha og'irlik (o'quvchining o'zi bilan solishtirganda);
- ranglilik yo'qligi;
- "ovozli matn" funksiyasining noto'g'ri ishlashi;
- sekin ishlash va tez-tez o'chish;
- ba'zi darsliklarni yuklab olish va ishlash imkoniyati yo'qligi;
- nazorat va test materiallarining yo'qligi;
- giperhavolalar, gipermatnlarning yo'qligi;
- uzoq o'tish (darsliklar, kitoblarni o'rtasida almashish);
- darsliklar va ma'lum formatdagi kitoblarga xatcho'plar va eslatmalarni qo'yishning iloji yo'qligi (ya'ni hammasi emas);
- bir nechta sahifalarni yoki darsliklarni (kitoblarni) ochib bo'lmashligi, masalan, boshqa paragraf yoki boshqa darslikdagi jadvallar yoki formulalardan foydalanish;

- stilus javobining keng doirasi ko'pincha noto'g'ri ishlashga olib keladi (boshqa hujjatni yuklash)" [7].

Xulosa va takliflar. Odatda GATning asosiy funksiyalari foydalanuvchining an'anaviy grafik interfeysiga ega bo'lgan bitta asosiy ilova bilan amalga oshiriladi. Bunday tizimlarning yordamchi dasturiy ta'minotiga odatda turli dasturkonvertorlar, bosib chiqarish menejerlari, ma'lumotlar vuyverlari, turli tashqi qurilmalar bilan birlashtirish modullari va boshq. kiradi. Tabiiyki, GATlarning dasturiy ta'minoti kompyuterlarda oldindan ko'zlab o'rnatilgan operatsion tizimlar bilan amal qiladi. Shubhasiz, hozirgi vaqtda ta'lim jarayoniga turli xil dasturiy ta'minot va texnik vositalarni joriy etish siyosati tadqiqot xususiyatiga ega va muhokama mavzusi bo'lib, fanlarni kompyuterlari yordamida ma'lum bir dasturiy mahsulotlar to'plamini o'rganish natijalariga Davlat ta'lim standartlari talablari hech qanday tarzda o'rganishni cheklamaydi. Bundan tashqari, fanni o'rganish natijalarini batafsillashtirish informatika darsliklari mazmuni darajasida amalga oshiriladi, ular axborot texnologiyalari rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari va jamiyatdagi u bilan bog'liq o'zgarishlarni hisobga olgan holda tuzilishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Starichenko B.Ye. Teoreticheskie osnovy informatiki: Uchebnik dlya vuzov. - 3-ye izd. pererab. i dop. - M.: Goryachaya liniya-Telekom, 2014. - 367 s.
2. Stupina M. V. Postroenie informatsionno-obrazovatelnoy sredy: texnologicheskiy aspekt (na primere ispolzovaniya oblacnykh servisov) // Pedagogicheskoye obrazovanie v Rossii. - 2016. - №2. - S. 71-77.
3. Сырsova A. O. Ispolzovanie svobodnogo programmnoy obespechenie v sisteme obshchego obrazovaniya // Novyye informatsionnyye texnologii v avtomatizirovannykh sistemax. - 2015. - №18. - S. 440-445.
4. Elektronnyy obrazovatelnyy kompleks - Nashi shkoly [Elektronnyy resurs] URL: <http://live-st.ru/schools.asp> (data obrasheniya: 01.10.2017).
5. Elektronnyy obrazovatelnyy kompleks - Ob ustroystve [Elektronnyy resurs] URL: <http://live-st.ru/items.asp?id=15> (data obrasheniya: 01.10.2017).
6. Tarmin V. A, Lobanov Yu. I., Shpagina T. V. Organizatsiya i osnovnyye rezultaty aprobatsii elektronnykh uchebnikov v obshchobrazovatelnykh uchrejdeniyax RF // Upravlenie obrazovaniem: teoriya i praktika. - 2012. - №4 (8). - S. 121-129.
7. Polyakova T. N., Fadeeva Ye. Yu., Ladymina O. A. Plyusy i minusy interaktivnykh multimediynykh elektronnykh uchebnikov. Opyt ispolzovaniya // Upravlenie obrazovaniem: teoriya i praktika. - 2012. - №2 (6). - S. 93-98.
8. Safarov E.Yu., Abduraximov X.A. Geografiya darslarida geografik informatsion sistemalaridan foydalanish // Geografiya ta'lim va uslubining dolzarb muammolari // Respublika ilmiy-uslubiy anjumani. - Qo'qon, 2008, 27-28 mart. B. 28-30.
9. Fomkina Ye.S., Kukarsev V.V. Vizualnyy yazyk programmirovaniya Google Blockly // Aktualnyye problemy aviatsii i kosmonavtiki. - 2013. №9. - 439 s.
10. Xristova N.A. Obrazovatelnyy veb-kvest kak metod interaktivnogo obucheniya // Vestnik BelYuI MVD Rossii. - 2014. - №2-2. - S. 89-91
11. Chistobaeva L.V. Ispolzovanie mobilnykh multimediynykh ustroystv dlya auditornogo obucheniya inostrannomu yazyku v VUZe // Vestnik Maykopskogo gosudarstvennogo texnologicheskogo universiteta. - 2015. - №4 - S.95-98.
12. Tujikova Ye.S. Informatsionno-kommunikativnyye texnologii v sovremennom obrazovanii // Gumanitarnyye, sotsialno-ekonomicheskie i obshchestvennyye nauki. - 2015. - №2. - S.296-299.



UDK: 332.1(575.1).

Abdusamat SATTAROV,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti rektori, geografiya fanlari nomzodi, dotsent
E-mail: abdisamat_sattarov@tues.uz

UrDU professori, i.f.d B.Ro‘zmetov taqrizi asosida

SURXONDARYO VILOYATIDA TRANSPORT TIZIMI RIVOJLANISHINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada Surxondaryo viloyatida geografik jihatdan ma'lumki, har qanday katta yoki kichik hududlar, shu jumladan alohida olingan hududlar aloqasi qanchalik yuqori izchil bo'lishi, mehnat unumdorligining oshishiga, iqtisodiy aloqalarning ta'siri kengayishi va rivojlanishi ilmiy adabiyotlar asosida bayon etilgan Transport tizimlarini viloyat miqyosida tadqiq qilish shuni ko'rsatadiki, qishloq tumanlarining ko'pchiligi transport salohiyati kuchsiz, bu esa ularning mineral xomashyo salohiyatidan samarali foydalanish imkonini bermaydi. Shu sababdan, mavjud transport hududiy tizimlarini rivojlanishi va kengayishini ta'minlash, ularni modernizatsiya qilish, viloyat transport tizimini hududiy jihatdan takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir. Transport iqtisodiyotning muhim tarmog'i va ayni vaqtda infratuzilma elementi ekanligi uni keng miqyosda tahlil va tadqiq qilishni nazarda tutadi.

Kalit so'zlar: Surxondaryo, viloyat, shahar, qishloq, yo'l, temir yo'l, transport, iqtisodiyot, hudud, tabiiy sharoit, sanoat, korxonalar.

ЗНАЧИМОСТЬ РАЗВИТИЯ ТРАНСПОРТНОЙ СИСТЕМЫ В СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация

В статье на основе научной литературы констатируется, насколько устойчива связь любых географически известных больших или малых территорий, в том числе и отдельно полученных территорий, на повышении производительности труда, расширении и развитии экономических отношений в Сурхандарьинская область. Изучение транспортных систем на региональном уровне показывает, что большинство сельских округов имеют слабую транспортную мощность, что не позволяет эффективно использовать их минерально-сырьевой потенциал. По этой причине обеспечение развития и расширения существующих региональных транспортных систем, их модернизация, региональное совершенствование региональной транспортной системы является одним из актуальных вопросов современности. Тот факт, что транспорт является важной сетью экономики и в то же время элементом инфраструктуры, требует его анализа и исследования в широких масштабах.

Ключевые слова: Сурхандарьинская область, город, село, дорога, железная дорога, транспорт, хозяйство, территория, природные условия, промышленность, предприятие.

THE SIGNIFICANCE OF TRANSPORTATION SYSTEM DEVELOPMENT IN SURKHANDARYA REGION

Annotation

Based on the scientific literature, the article states how stable the connection of any geographically known large or small territories, including separately obtained territories, is on increasing labor productivity, expanding and developing economic relations in the Surkhandarya region. The study of transport systems at the regional level shows that most rural districts have a weak transport capacity, which does not allow the efficient use of their mineral potential. For this reason, ensuring the development and expansion of existing regional transport systems, their modernization, regional improvement of the regional transport system is one of the pressing issues of our time. The fact that transport is an important network of the economy and at the same time an element of infrastructure requires its analysis and research on a large scale.

Key words: Surkhandarya region, city, village, road, railway, transport, economy, territory, natural conditions, industry, enterprise.

Kirish. Hududning tabiiy geografik o'rining qulayligi, uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi, texnika taraqqiyoti kuchayib borayotgan, jahon xo'jalik tizimlari tez rivojlanib borayotgan bir davrda, qulay geografik o'rin, har qanday mamlakatning iqtisodiy istiqbolida alohida o'rin tutadi. Bunda ayniqsa, transportning muhim o'rni bo'lib, chunki, transport xizmati mamlakatimizda g'oyat ko'p va xilma xil ishlarni bajaradi.

Mamlakatimizdagi mavjud xom-ashyo zahirasi markazning siyosiy-harbiy salohiyatini oshirishga xizmat qilgan. Respublikada transport taraqqiyotining rivojlanishi Sovet Ittifoqining Osiyo qit'asi bilan bo'lgan siyosiy-harbiy va iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yishda ham muhim vosita bo'lib, xizmat qilgan[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslarini yoritishda B.A.Rayzberg, A. Soliyev, Saushkin Y.G. singari olimlarning tadqiqot ishlaridan foydalanildi. Shuningdek, Surxondaryo viloyat hokimligining joriy arxi vi va Surxondaryo viloyati hokimligi Iqtisodiyot va statistika bosh boshqarmasi materiallari tahlilga tortildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola umum qabul qilingan metodlar - statistik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston Respublikasida umumiy foydalaniladigan yuk va yo'lovchilar tashuvchi transportning barcha turi - temir yo'l, avtomobil, havo (aviatsiya), shahar elektr transporti (tramvay, trolleybus, metropoliten), suv (daryo), quvur transporti, shuningdek umumiy foydalanilmaydigan (sanoat) transporti - temir yo'l, avtomobil, tasmali transport, osma

arqon transporti rivoj topgan. 1920-1991 yillarda respublika transportining asosiy turlari sobiq Ittifoqning Markaziy vazirliklariga yoki ularning O'rta Osiyo, O'zbekiston bo'yicha hududiy boshqarmalariga bo'ysungan: temir yo'l transportiga O'rta Osiyo temir yo'l boshqarmasi, suv transportiga O'rta Osiyo davlat paroxodchiligi boshqarmasi, havo transportiga Ittifoq fuqaro aviatsiya vazirligining O'zbekiston Fuqaro aviatsiyasi boshqarmasi, umumiy foydalanishdagi avtomobil transportiga O'zSSR Avtomobil transporti vazirligi rahbarlik qilgan [2].

O'zbekistonda avtomobil transporti tizimiga ham alohida e'tibor berilib, xizmat ko'rsatish tarmoqlari shakllandi, avtomobil korxonalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, yangi avtomobil turlarining ta'minoti yaxshilanib borgan. Respublikamizda ilk marotaba avtobus qatnovi 1906 yilda Farg'ona-Marg'ilon marshruti bo'yicha amal qilgan bo'lsa, Toshkent shahrida birinchi avtobus 1909 yil dekabrda boshlab, ish boshlagan, 1910 yili xorijiy davlatlar ishlab chiqarilgan 8 ta kichik va bitta 40 o'rinli avtobuslar yo'lovchilarni tashishga xizmat qilgan [3].

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, viloyatimiz uchun muhim hisoblangan yo'l qurilishlariga jiddiy e'tibor qaratilgan. Masalan, Darband-Termiz, Termiz-Uzun xalqa yo'llarida keng ko'lamli yo'l qurilish ishlari bajarilgan. Bunda xalqaro standartlarga mos keluvchi zamonaviy yo'l qurilish loyihalaridan ham samarali foydalanilgan.

Surxondaryo viloyatida 1990 yillarda boshlab barcha avtobuslar Vengriyaning Ikarus, Ukrainaning LAZ va Rossiyaning PAZ firmalari tomonidan ishlab chiqarilgan. Ikarus 260 rusumli avtobuslar 3 eshikli va sariq rangli bo'lib, shahar ichi va shahar atrofida harakatlanishga mo'ljallangan. Ikarus 256 rusumli avtobuslar qizil rangli va ikki eshikli bo'lib, shaharlararo yo'nalishlarda qatnar, shuningdek, sayyohlik maqsadlarida xizmat qilgan. LAZ-695 avtobusi shahar ichi va unga yaqin hududlarga, LAZ-699 sayyohlar va shaharlararo yo'nalishlarida qatnagan. Kichikroq hajmdagi PAZ-672 avtobuslari tumanlar va shaharlar atrofida yo'nalishlarda aholiga transport xizmatini amalga oshirgan.

1992 yilda O'zbekistonga, shu jumladan, Surxondaryo viloyatiga ham xorijdan yangi, zamonaviy transport vositalarini keltirish yo'lga qo'yildi. Avtotransport vositalaridan Turkiyada ishlab chiqarilgan Tofas-Dogan yengil avtomobillari, Ford-Otosan avtobuslari hamda Koreya Respublikasining DAEWOO avtobuslari keltirildi. Ammo, ehtiyot qismlarni keltirish yo'lga qo'yilmaganligi tufayli ushbu transport vositalari tez orada muomaladan chiqarib tashlandi. Yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish asosan RAF – 2203 rusumli mikroavtobus, LAZ-695, PAZ-672 hamda KAvZ-3270 avtobuslari tomonidan amalga oshirildi. Uzoqroq masofaga yo'lovchilarni tashish uchun Ikarus 256, LAZ-699, shuningdek, Germaniyaning Mercedes va Setra avtobuslaridan foydalanildi [4].

Viloyat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, hududga chet el investitsiyalarini jalb etish hamda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun eng avvalo transport xarajatlarini kamaytirish lozim edi. Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 21 fevraldagi PQ-1712 sonli Qaroriga muvofiq Termiz-Qarshi temir yo'lini elektrlashtirish boshlandi. Loyihaning umumiy qiymati 327,6 mln AQSH dollar bo'lib, ish jarayonida 6 ta - Toshguzar, Dexqonobod, Oqrabot, Boysun, Qumqurg'on, №165-razyezd tayanch nimstansiyalari qurildi. Tayanch nimstansiyalar murakkab ob-havo sharoitlarida barpo etildi. Shuningdek, ushbu uchastka zamonaviy signalizatsiya va aloqa tizimi bilan ta'minlandi. Bundan tashqari, qurilish va kontakt simlariga xizmat ko'rsatish uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi. Termiz lokomotiv deposi to'liq ta'mirdan chiqarilib, chet eldan keltirilgan zamonaviy uskunalar bilan jihozlandi [5].

2018 yilning 9 yanvaridan boshlab, elektrlashtirilgan Qarshi-Termiz temir yo'l uchastkasining ochilish marosimi bo'lib o'tgan. Umumiy uzunligi 325 kilometrdan iborat, ushbu liniyada endilikda dizel yonilg'isi bilan ishlovchi teplovozlar o'rniga zamonaviy elektrovozlar harakatlanadi.

Hozirgi vaqtda viloyat temir yo'llarining umumiy uzunligi km 411,5 km bo'lib shundan 179,4 km elektrlashtirilgan. Viloyat temir yo'l liniyalari 5 ta bo'lib, Termiz-Quduqli, Aqnazar-Qumqo'rg'on, Boldir-Termiz, Termiz-Amuzang, Termiz-Port kabilar. Ulardagi stansiyalar soni esa 27 tani tashkil etadi. Viloyat yuk tashish aylanmasida temir yo'l transportining hissasi katta.

Viloyat hududidan Moskva-Dushanbe, Ashxobod-Dushanbe temir yo'llari o'tgan. Termiz-Toshkent, Termiz-Amuzang, Termiz-Sariosiyo Termiz-Boldir yo'nalishlarida poyezdlar qatnaydi. Shuningdek Termiz shahri orqali Dushanbe-Astraxan, Dushanbe-Konobod, Ko'lob-Astraxan yo'nalishlarida poyezdlar qatnaydi.

Shuningdek, G'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'lini qurilishi Surxondaryo viloyatini mamlakatimizning poytaxtiga 120-130 km ga yaqinlashtirdi. Yuk va yo'lovchi tashish hajmini ko'paytirib, tashqi iqtisodiy aloqalarini kengayishiga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tashabbuslari bilan G'alaba-Amuzang temir yo'li tiklandi va 2018-yil 1 mart kundan Termiz stansiyasidan Tojikistonning Shahrituz tumanidagi Hoshadi stansiyasiga yuk poyezdlari qatnovi yo'lga qo'yildi. Bu yo'l O'zbekistonni Tojikistonning janubiy hududlari bilan bog'ladi.

Surxondaryo viloyatning joylashuvi haqida taniqli olim A.Soliev shunday deydi - "Mamlakatimizda faqat Toshkent va Surxondaryo viloyatlari 3 tadan davlatlar bilan tutash, biroq bunday siyosiy geografik o'rin, geosiyosiy vaziyat Surxondaryo viloyati uchun o'zgacha xususiyat kasb etadi"[6].

Viloyatning tabiiy geografik, ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy rivojlanishi xususiyatlari, uning transport tizimlarini shakllanishida yetakchi omillar vazifasini bajarib kelmoqda. Viloyatda dastlabki temir yo'llar uning tekislik qismidan o'tkazilgan bo'lsa, o'sha hududlarda aholi punktlari shakllangan. Hududining katta qismi tog'li hisoblangani sababli transport tizimlarini tashkil etishda noqulayliklar mavjud.

Viloyatning ichki transport aloqalarida avtomobil yo'lining o'rni beqiyosdir. Avtomobil transporti "eshikdan eshikgacha" yuk va yo'lovchilarni tashishda ahamiyatlidir. Avtomobil yo'llari uzunligi 2843 km bo'lib, bu yo'llar xalqaro, davlat, mahalliy ahamiyatga ega yo'llardir. Viloyat avtomobil yo'llarining 2843 km li umumiy yo'ldan 351 km li qismi xalqaro ahamiyatga molik yo'llardir. Shuni ta'kidlash joizki, yana ba'zi yo'llarni xalqaro ahamiyatli yo'llar toifasiga o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Ularga Denov-Qarshi, Denov-Shahrisabz, Denov-G'uzor, Denov-Urganch, Denov-Samarqand yo'nalishidagi avtomobil yo'llari shular jumlasidandir.

Surxondaryo viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida havo va quvvur transporti ham muhim o'rin tutadi. Havo transporti orqali respublikamizning yirik shaharlari va boshqa mamlakatlar bilan aloqa o'rnatilgan. Termiz-Toshkent, Termiz-Moskva, Termiz-Samarqand-Namangan, Termiz-Buxoro, Termiz-Ashxobod, Termiz-Andijon, Termiz-Olmaota, Termiz-Qobul va boshqa havo yo'llarining yo'lovchi tashishda ahamiyati yuqoridir.

Viloyatda aeroport Termiz shahrida mavjud bo'lib, 2011 yilda qayta ta'mirlandi. "Termiz" aeroporti O'zbekiston Respublikasidagi yirik aviatashkilotlardan biri hisoblanib, uning asosiy faoliyati quyidagilardan iboratdir: havo kemalariga yerda xizmat ko'rsatish, yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish, yuklarga xizmat ko'rsatish, pochtaga xizmat ko'rsatishlarni o'z ichiga oladi.

Viloyatda quvur transporti endilikda rivojlanmoqda. U xo'jaliklar va sanoat korxonalarini, shaharlar va aholi punktlarini chuchuk suv bilan ta'minlash va gazlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda "To'palang" suv ombori suvidan foydalanish hisobiga Surxondaryo viloyatining ichimlik suv ta'minoti yaxshilash loyihasi doirasida qurilish-ta'mirlash ishlari jadallik bilan davom etmoqda. Loyihaning foydalanishga topshirilishi natijasida viloyatdagi 495 ta mahalladagi 1,7 mln nafar aholi toza ichimlik suvi bilan ta'minlanadi[7].

Yo'lovchilarni avtomobil transportida tashish 2018 yilda 257,5 mln kishini tashkil etgan, bu tumanlar miqyosida turlicha ko'rinishga ega. Jumladan, Termiz shahrida 2018 yilda 39,7 mln kishi, Denov tumanida 37 mln kishi, keyingi o'rinlarda Angor, Jarqo'rg'on, Muzrabot tumanlari egallaydi. Albatta, bu tumanlar xo'jaligi viloyatning boshqa tumanlar orasida yetakchi o'rinlarni egallaydi. Avtomobil transportida yo'lovchi tashish bo'yicha yeng past ko'rsatkichlarga ega tumanlarga kelsak Boysun, Oltinsoy, SHO'rchi tumanlari hisoblanadi. Boysun tumanida 2018 yilda 5 mln kishi tashilgan. Bu o'z o'rnida tumanning tog'li hududda hamda rivojlanmagan transport tizimi, aholi soni kamligi bilan baholanadi.

Viloyat tumanlarini ko'p tarmoqli sanoat rivojlangan Termiz, Denov, Jarqo'rg'on, SHO'rchi, agrar sohaga ixtisoslashgan Angor-Qiziriq, tog'-kon sanoati katta salmoqqa ega bo'lgan Boysun, SHERobod, Sariosiyo, Uzun kabi kabi tumanlarga ajratish mumkin.

Hisor tog'larining janubi-sharqiy yonbag'irlarida (Sariosiyo tumani) 1990 yillarning oxirlarida tarkibida qo'rg'oshin, rux va boshqa qimmatbaho elementlarga boy bo'lgan Xonjiza polimetall koni topilgan. Bu polimetall koni o'z zahirasiga ko'ra, dunyodagi eng yirik konlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bu yerda geologik tekshiruvlar natijasida 1,5 mln. tonna rux, 700 ming tonna qalay, 180 ming tonna mis va 2,3 ming tonna kumush borligi aniqlangan. Hozir kunda, jahon bozorida ushbu metallar bahosidan kelib chiqqan holda mazkur kon zahiralari 4 mlrd. AQSH dollari miqdorida baholanmoqda. Bularni ishga solishda esa transportning ahamiyati katta.

Viloyatda qurilish mahsulotlari sanoati ham jadal rivojlanib bormoqda, so'nggi yillarda ko'plab loyihalar amalga oshirildi va yana 189 ta investitsiya loyihasi amalga oshirildi.

2006 yil avgust oyidan boshlab, "Xonjiza" polimetall koni ishga tushirilib, Olmaliq tog' kon metallurgiya kombinati ixtiyoriga berildi. Kondan foydalanish bilan bog'liq barcha ishlar ushbu kombinat tomonidan chet el sarmoyasiz bajarilishi ko'rsatib o'tildi. 2008-2012 yillar oralig'ida ushbu konni ishga tushirish, 3-4 yildan keyin esa kombinat uchun rux, qo'rg'oshin va mis konsentratlari birlamchi ishlab chiqarish tarmog'ini tashkil etildi. Bu kon va ma'danni birlamchi qayta ishlovchi korxonaning ishga tushirilishi Sariosiyo va Denov, Uzun tumanlarida aholi bandligining oshishiga, turmush tarzini yaxshilashga yordam beradi.

Iqtisodiy-geografiya bo'yicha olim Y.G.Saushkin hududni tahlil qilganda o'rganilayotgan obyekt, u bilan bog'liq bo'lgan boshqa rayonlar, transport magistrallari, ishlab chiqarish va iste'mol markazlari bilan birgalikda o'ziga xos kuchlanish maydoni hosil qilishi haqida gapirib, maydondagi obyektlar orasidan o'rganilayotgan obyektga kuchli ta'sir ko'rsata oladiganlarini ajratib olish kerakligini ta'kidlagan[8].

Viloyat transport tizimi rivojlanishi va takomillashishi, nafaqat Surxondaryo viloyatining iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga ta'siri ijobiy bo'libgina qolmay balki, mamlakat eksporti, import aloqalariga va xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy savdoda juda katta rol o'ynaydi.

Eksport mahsulotlari orasida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi juda yuqori, ya'ni umumiy eksport mahsulotlarining 82,4 % ni tashkil etadi. Bunday yuklarni tashishda, albatta avtomobil yoki temir yo'l transporti muhim vosita hisoblanadi.

Aytish joizki, yetishtirilgan poliz va bog'dorchilik va tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlarini, ko'proq Qozog'iston, Afg'oniston, Xitoy, Pokiston va Rossiya davlatlariga eksport qilinadi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Surxondaryo viloyatining tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlanishi, asosan, mintaqada mavjud sanoat korxonalarining transport infratuzilmasi, zamonaviy transport turlari, yo'llar zichligini oshirish bilan ta'minlanganligiga bevosita bog'liq. Shuning uchun tashqi iqtisodiy aloqalarni kelajakda yanada rivojlantirish uchun uzoq xorij mamlakatlarga temir yo'l hamda havo transporti qatnovini yo'lga qo'yib, mavjud imkoniyatlardan to'la foydalanish lozim.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqotda mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida transport omilining ta'sirini Surxondaryo viloyati misolida ko'rib chiqildi va izlanishlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Kelajakda Surxondaryo viloyati transport tizimi rivojlanishini quyidagi variantlarni alohida ko'rsatib o'tish mumkin.

- birinchi variantda, viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti transafg'on loyihasi avtomobil yo'lini ishga tushishiga bog'liq. Mazkur yo'lning eng muhim jihati O'zbekiston Respublikasining Afg'oniston Islom Respublikasi orqali Hind okeani portlari bilan bog'lovchi eng yaqin transport yo'lgi ekanligidir;

- ikkinchi variantda esa viloyatning tekislik orqali Tojikiston Respublikasi orqali o'tadigan transport yo'llaridan foydalanishini qayta tiklash asosida mintaqada transport muammolarini yechish hisoblanadi;

Xulosa qilib aytganda, respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda dunyoning yetakchi davlatlari qatorida bo'lishda muhim ahamiyat kasb etuvchi, yuk va yo'lovchilarni tashishda qatnashuvchi transport tizimi yoinki transport geografiyasi, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari ichida hamda o'ziga xos xususiyatlarga ega Surxondaryo viloyati misolida ko'rib chiqildi.

ADABIYOTLAR

1. Райзберг Б.А. Основы экономики и предпринимательства. – Москва: Просвещение, 1995.
2. Ўзбекистон Республикаси: энциклопедия.-.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. –Тошкент, 2006. – Б.305.
3. Социально-экономическое развитие Узбекистана за годы Советской власти.– Ташкент: Узбекистан, 1984. –С.11.
4. Сурхондарё вилоят хокимлигининг жорий архиви, 1996 йил ноябрь, 11-баённома, 26-варақ.
5. Сурхондарё вилоят хокимлигининг жорий архиви, 2018 йил январь, 4-баённома, 18-19-варақлар.
6. Сурхондарё вилояти хокимлиги Иқтисодиёт ва статистика бош бошқармаси. –Термиз, 1997. –Б.37.
7. Солиев А. Ўзбекистон географияси. Дарслик. Т.: "Университет", 2014.–Б.284.
8. <https://surxondaryo.uz/uz/blog/okimlik-yangiliklari/1631>
9. Саушкин Ю.Г. Избранные труды. – Смоленск: Универсум, 2000. –С.11.



UDK: 912.43 (584.4)

Manuchexr SAFAROV,
O‘zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi
E-mail: safarovmanuchehr75@gmail.com

O‘zbekiston Milliy universiteti professori, g.f.d. N.Komilova taqrizi asosida

SARIOSIYO TUMANINING REKREATSIYA VA TURISTIK RESURSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Sariosiyo tumanining tabiiy sharoiti, iqlimi, relyefi va rekreatsiya imkoniyatlari hamda ularning tahlili yoritilgan. Bundan tashqari tumanning iqtisodiy tarmoqdagi salohiyatini o‘rganish va tahlil qilish, Sariosiyo tumani ijtimoiy sohalarini baholash, zaruriy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hamda tumanning turistik marshrut kartasini ishlab chiqish orqali mavzuga chuqurroq yondashilgan.

Kalit so‘zlar: rekreatsiya, turistik infratuzilma, sayyohlik marshrutlari, ekoinspeksiya nazorati, rekreatsiya maskanlari.

Аннотация

В данной статье описаны природные условия, климат, рельеф и рекреационные возможности Сариасийский района, а также их анализ. Кроме того, к теме подошли углубленно, изучив и проанализировав потенциал района в экономической сфере, оценив социальную сферу Сариасийский района, выработав необходимые предложения и рекомендации, а также разработав туристическую маршрутную карту района.

Ключевые слова: рекреация, туристская инфраструктура, туристские маршруты, экоиnспекционный контроль, базы отдыха.

Annotation

This article describes the natural conditions, climate, relief and recreation opportunities of the Sariasia district, as well as their analysis. In addition, the subject was approached in depth by studying and analyzing the potential of the district in the economic sector, evaluating the social spheres of the Sariasia district, developing the necessary suggestions and recommendations, and developing the tourist route map of the district.

Key words: recreation, tourist infrastructure, tourist routes, eco-inspection control, recreation facilities

Kirish. O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab Respublika hukumati tomonidan turizm sohasini rivojlantirishga ustuvor e‘tibor qaratib kelinmoqda.

“2019-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi”da esa asosiy e‘tibor “...turizm sohasini jadal rivojlantirish bo‘yicha ustuvor maqsad va vazifalarni belgilashga, uning iqtisodiyotdagi o‘rni va ulushini oshirishga, xizmatlarni diversifikatsiyalash va ularning sifatini oshirish hamda turizm infratuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan” [1]. O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 35-maqsadida “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qilish” dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish, hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish, to‘siqsiz turizm infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlarida keng joriy qilish. 2026-yilgacha turizm sohasida band bo‘lgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga yetkazish”, qolaversa Surxondaryo viloyatida turizmni rivojlantirish, viloyat turizmida yangi ish o‘rinlarini yaratishda asosiy drayver soha bo‘lishi uchun alohida dastur qabul qilish belgilab berilgan [2]. Ushbu vazifani bajarish uchun turizm sohasini hududiy jihatdan samarali tashkil etish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi[3].

Respublikamizda turizm sohasini jadal rivojlantirish, uning xalqaro turistik imidjini yuksaltirish, mintaqalarning turistik salohiyatini kuchaytirish turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish, yangi turizm yo‘nalishlari va majmualarini yaratish bo‘yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada, o‘zining tabiati, demografik va ishlab chiqarish salohiyati bilan, shuningdek milliy qadriyatlarini hamda hunarmandchiligi bilan yaxshi tanilgan Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumani turizm va rekreatsiya salohiyatini baholash, hududlarning turistik infratuzilma tizimlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy – amaliy ahamiyat kasb etadi[6].


Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Turizm va rekreatsiya geografiyasining ilmiy va nazariy masalalari xorij olimlaridan K.Krapf, R.Barton, P.Deferem, Y.Varshinska, S.Shprinsova, N.Apostolov, L.Denev va boshqalarning asarlarida ko‘rib chiqilgan. Ushbu masalalar MDH olimlaridan V.S.Perebrajenskiy, N.N.Miroshnichenko, L.I.Muxin, Y.A.Vedenin, I.V.Zorin, N.S.Mironenko, T.T.Xristov, A.D.Chudnovskiy, M.B.Birjakov, V.I.Krujaln, A.A.Shoshina, S.R.Yerdavletov, S.A.Shabelnikova, A.G.Nizamiyev kabi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan[7].

Mamlakatimizda A.S.Soliyev, A.X.Yusupov, M.R.Usmonov, M.M.Muhamedov, D.K.Usmonova, M.Hoshimov, A.Norchayev, B.Sh.Safarov, A.N.Nigmatov, M.T.Aliyeva kabi iqtisodchi va geograf olimlar o‘z ilmiy tadqiqotlarida turizm va uning turli masalalari bo‘yicha tadqiqotlarni amalga oshirganlar. Shuningdek, N.Ibragimov, S.Ro‘ziyev, N.Shamuratova, B.Kamolov, Sh.Yakubjonova, M.Mansurov, Sh.Shomurodova, X.Jumayevlarning tomonidan ilmiy tadqiqot olib borilgan[8].

Tahlil va natijalar. Ma‘lumki, tuman viloyatning shimoliy qismida joylashgan bo‘lib, relefi xilma xil. Shimoliy Hisor (eng baland royi - Xo‘japiryax tog‘i - 4303 m) tog tizmalari va ular orasidagi Surxondaryo, To‘polondaryo va irmoqlarining vodiylaridan iborat. Janubi-g‘arbiy qismi Bobotog‘ va Boysuntog‘ tizmalari (eng baland joyi - Zarkosa tog‘i, 2290 m) va ular

orasidagi pastbaland adirlar bilan band[4]. Xufor, Xondiza, Istoch, Vochax, Maland, Zoxona qishloqlari 2500-2800 metr balandlikda joylashgan. Yer usti tuzilishining xilma-xilligi iqlim, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosiga ham ta'sir etgan. Iqlimi quruq subtropik iqlimga xos, qishi qisqa, yozi esa davomli. Yillik o'rtacha temperatura 15,6°C. Tekislik qismida yanvarning o'rtacha temperaturasi 2,5, iyulniki 28°. Eng yuqori temperatura 44°C. Vegetatsiya davri 270-280 kun. Yillik o'rtacha yog'in miqdori 200-300 mm. Tog'larda 790 mm[12]. Jan.g'arbdan esuvchi, quruq, changbo'ronli afg'on shamoli salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tumanning hududidan o'tuvchi eng uzun va sersuv To'polondaryo Surxondaryoga quyiladi, shuningdek, Obizarang, Sangardakdaryolar ham bor. Yozda daryo va soylarda suv keskin kamayadi. To'polon suv ombori Surxondaryo viloyatining 10 ta tumanini suv bilan ta'minlaydi. Hisor tog'i etaklarida oddiy yoki tipik bo'z, qo'ng'ir bo'z tuproqlar, Bobotog' etaklarida och bo'z, shag'alli bo'z, daryo vodiylarida esa allyuvial o'tloqi, o'tloqibotqoq, tekisliklarda och bo'z tuproqlar tarqalgan[5]. Yovvoyi o'simliklardan: tog'larda zarang, yong'oq, archa, bodom, qatrang'i; butalardan pista, do'lana, itburun, chiya; kserofitlardan tikanli kavrak, betaga, chaytab, oqmomiq, to'ng'izsirt, suvrang, choyo't, chalov, qiziltikan, astragal va boshqa o'sadi. Yovvoyi hayvonlardan: bo'ri, sug'ur, tulki, qora va qo'ng'ir ayiq, qoplon, silovsin, qobon, jayran, jayra, kalamush, qo'shoyoq, ko'rsichqon; o'qilon, O'rta Osiyo kobrasi (ko'zoynakli ilon), bo'g'ma va qora ilonlar, gekkon kaltakesagi; qushlardan tog' lochini, kopcha, kalxat, burgut, so'fito'rg'ay, chil, xilol, kaklik, kaptar; baliklardan shohbaliq, ilonbaliq, laqqabaliq va boshqa bor. O'zbekistonda yagona kokslanuvchi ko'mir olinadigan Sharg'un ko'mir koni, Xondiza polimetall koni, kurilish materiallari, neft, gaz mavjud. Aholisi, asosan, o'zbeklar, shuningdek, tojik, rus, tatar va boshqa millat vakillari ham yashaydi.

Aytish joizki, Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanining turizm salohiyati juda yuqori. Lekin uzoq yillar davomida bundan yetarlicha foydalanilmadi. Bahavo tabiat, qulay iqlim va yilning barcha faslida maroqli hordiq chiqarish imkoniyati bo'lsa-da, hududda sayyohlarni jalb etadigan yirik va zamonaviy loyihalarni amalga oshirilmadi. Bugun Sariosiyo tumanida turistik hududlarni tashkil etish bilan bir vaqtning o'zida qator muhim masalalarni hal qilish ko'zda tutilgan. Sariosiyo tumani rekreatsiya resurslari maskanlari bilan viloyatda alohida ajralib turadi (1-rasm).



1-rasm. Surxondaryo viloyatidagi ayrim rekreatsiya maskanlari

Tumanda rekreatsiya va turizm sohasini yanada rivojlantirish uchun quyidagicha chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- Tog' yonbag'irlarida, o'rmon va suv resurslariga boy hududlarida ko'chma dam olish maskanlari tashkil etilishi;
- Sariosiyo tumani, xususan, To'palang suv ombori atrofidagi qishloqlarda yangi dam olish maskanlari qurish, shu orqali mazkur hududda yashayotgan aholini ish bilan ta'minlash;
- Sariosiyo tumanida bo'sh turgan va samarasiz foydalanilayotgan obyektlarni sotish orqali ular negizida turizm va xizmat ko'rsatish infratuzilmasini rivojlantirish;
- Xususan, ba'zi davlat obyektlarini xususiyashtirish va bu orqali turizm sohasida davlat ishtiroki qisqartiriladi va xususiy tadbirkorlik rivojlanadi, yangi ish o'rni yaratiladi, raqobat kuchayishi hisobiga maqbul narx-navo shakllanadi.
T₃, T₇ qaytaruvchi gorizontlarning stratigrafik bog'lanishi ularning barcha sohalar bo'yicha dinamik ifodalanganligi, yaxshi izlanganligi va aniqlanganligi tufayli muayyan qiyinchilik tug'dirmaydi.

To'liq maydonining xususiyatlari - vaqt bo'limlarining o'zaro bog'liqligi bilan bir vaqtda to'liq naqshlari barcha sarflangan profillar uchun tahlil qilinadi. Shu bilan birga, kuzatilayotgan gorizontning tabiatiga, yozuvning soddaligi va aniqligiga, asosiy mos yozuvlar to'liqlarining vaqt farqining o'zgarishiga e'tibor qaraladi; g'ayritabiiy yozuv asorati sohalar ta'kidlandi.

Aniq, ishonchli kuzatuv bilan bir qatorda, murakkab yozuvlar, to'liq sinfazasining intervalgacha o'qlari bo'lgan joylar mavjud, bu yerda yozuv intensivligi interferensiya to'liqlari fonida mutanosibdir.

Yozuvning har xil bo'lishiga atrof-muhitning geologik va geofizik parametrlarining o'zgarishi sabab bo'ladi.

Tog' jinslarining bo'r majmuasidagi chegaralardan qayd etilgan aks ettirilgan to'liqlar muntazam xarakterga ega va konformal yuzaga kelishi bilan ajralib turadi. Ular orasida neokom-apt (T₂) ning XIII gorizonti bilan bog'liq to'liq eng katta intensivligi bilan ajralib turadi.

Vaqt bo'limlarida uni yeng aniq, xotirjam, ikki fazali tebranish shaklida hech qanday asoratlarsiz kuzatish mumkin, TSP ma'lumotlariga ko'ra aks ettirish koeffitsiyenti 0,18-0,23 ni tashkil qiladi.

Titon gorizonti T₃ (K_{otr} – 0,08-0,23) tomi bilan bog'liq bo'lgan to'liq yeng dinamik ifodalanaadi. Ushbu to'liqni ishonch bilan kuzatish mumkin, T₂ va T₃ to'liqlarining ro'yxatga olish vaqtlaridagi farq quyi bo'r cho'kindilarining kuchida ozgina tebranishlar bilan ta'minlanadi. Ayrim maydonlarda (Chuvama, Yangi Marjon, Yangiqizilrabot va boshqalar.), gorizont T₃ nisbatan chuqurroq, T₇ to'liq ajratilgan, XVIII gorizonta usti cheklangan, kamroq kuchli, balki dinamik ifoda etilgan, ikki fazali.

Xulosa va takliflar. Buxoro tektonik pog'onasining janubi-sharqiy kismida shu jumladan: Djarqum, Sharqiy Ambartepa, Sharqiy Djyidalik, Shimoliy Qizilrabot va shu kabi maydonlarda izlov va batafsil izlov seysmik qidiruv ishlarini davom ettirish;

-Yana ham chuqur qatlamlarni o'rganish va seysmik qidiruv ishlarini sifatini oshirish maqsadida UCHN-2D usulini karraligini oshirgan holda hamda zamonaviy texnika-texnologiyalarni qo'llash;

Tadqiqot o'tkazilgan maydonlarda yura davri terrigen va yura davrigacha bo'lgan yotqiziqalar bo'yicha aniqlangan yangi obyektlarni geologik tuzilishini yanada mukammal o'rganish maqsadida batafsil seysmik qidiruv ishlarini o'tkazish hamda ulardan eng istiqbollilarini chuqur izlov burg'ilashga tayyorlash.

ADABIYOTLAR

1. Шоймуратов Т.Х., Худойбердиев Х.Ф., Буриева С.Р., Гафуров Ш.О., Жураев Ф.О. Гидрогеологические особенности пластовых вод юрского водонапорного комплекса структуры Иймон Бешкентского прогиба и перспективы его нефтегазоносности // Геология и минеральные ресурсы, Ташкент, 2019 год. №2. С. 53-55.
2. Жураев Ф.О. Гидрогеохимический контроль за обводнением газоконденсатного месторождения Шуртан // Инновацион технологиялар Қарши 2019 йил. №3. (35)-сон 18-22 бет.
3. Жураев Ф.О., Норинов Ф.Қ. Глубинные сейсмогеологические условия Бешкентского прогиба. // ISCIENCE.IN.UA Актуальные научные исследования в современном мире выпуск №5(49) Часть (1Май 2019 г.) С. 83-86.
4. Жураев Ф.О. Гидрогеохимические параметры – как основа поисков залежей углеводородов (на примере Бешкентского прогиба) // Инновацион технологиялар. Қарши 2020 г. №1(37). С. 3-7.
5. Jurayev F.O. Shurtan gaz kondensati konining quduqlarini suvlanishi va uni bartaraf etish monitoringi // Innovatsion taraqqiyotni amalga oshirishda fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasining ahamiyati Qarshi 2019 yil 179-180 bet.
6. Шоймуратов Т.Х., Худойбердиев Х.Ф., Гафуров Ш.О., Жураев Ф.О. Гидродинамические методы прогноза залежей углеводородов на площади Туйгу в Бешкентском прогибе // Узбекский нефть и газ журнал, Ташкент 2019 год. №3 С. 22-25.
7. Jurayev F.O. Gidrogeoximicheskiy kontrol za obvodneniyem gazokondensatnogo mestorojdeniya Shurtan // Innovatsion texnologiyalar Karshi-2019, №3(35) S.18-22.



Mirqobil XAKIMOV,
University of Business and Science nodavlat universiteti o‘qituvchisi
E-mail: mirqobil.hakimov@gmail.com

NamDU geografiya kafedrasida katta o‘qituvchisi, PhD I.M.Boymirzaev taqrizi asosida

CONCEPTUAL BASIS OF NATURE PROTECTION AND PROVISION OF LANDSCAPE DIVERSITY OF FERGHANA VALLEY

Annotation

This article examines the conceptual foundations of nature protection, i.e., the norms established by law, on the example of the Fergana Valley. In the article, using methods such as conceptual analysis, geographical comparison, cartographic analysis, in accordance with the measures taken at the state level, based on the existing conceptual foundations, the implementation of scientific research results at the local level, the faster organization of protected natural areas, to determine the factors that negatively affect the stability of landscapes by types and types and to develop their optimal solutions, as well as to introduce norms that require planning and measures to reduce the negative impact of the population on the environment, and to protect nature and the need for international cooperation and systematic implementation at the state level in ensuring landscape stability is substantiated.

Key words: landscape, stability, concept, basin, diversity, anthropogenic pressure, selected landscape.

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ОХРАНЫ ПРИРОДЫ И ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЛАНДШАФТНОГО РАЗНООБРАЗИЯ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ

Аннотация

В данной статье рассматриваются концептуальные основы охраны природы, то есть нормы, установленные законодательством, на примере Ферганской долины. В статье с использованием таких методов, как концептуальный анализ, географическое сравнение, картографический анализ, в соответствии с мерами, принимаемыми на государственном уровне, на основе существующих концептуальных основ, внедрение результатов научных исследований на местном уровне, более быстрая организация охраняемые природные территории, определять факторы, отрицательно влияющие на устойчивость ландшафтов по типам и типам, и разрабатывать их оптимальные решения, а также вводить нормы, требующие планирования и мероприятий по снижению негативного воздействия населения на окружающую среду, и по охране природы и обоснована необходимость международного сотрудничества и системной реализации на государственном уровне в обеспечении устойчивости ландшафтов.

Ключевые слова: ландшафт, устойчивость, концепция, бассейн, разнообразие, антропогенная нагрузка, выбранный ландшафт.

FARG‘ONA VODIYSI TABIATINI MUHOFAZA QILISH VA LANDSHAFT XILMA-XILLIGINI TA‘MINLASHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysi misolida tabiatni muhofaza qilishning konseptual asoslari, ya‘ni qonun bilan belgilab qo‘yilgan normalari ko‘rib chiqilgan. Maqolada konseptual tahlil, geografik taqqoslash, kartografik tahlil kabi metodlardan foydalanilgan holda davlat miqyosida ko‘rilayotgan chora-tadbirlarga hamohang tarzda, landshaftlarni muhofaza qilish borasida, mavjud konseptual asoslardan kelib chiqib, ilmiy tadqiqot natijalarini lokal darajada amalga oshirish, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tezroq tashkil etish, landshaftlar tiplari va xillari bo‘yicha barqarorligiga salbiy ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ularning optimal yechimlarini ishlab chiqish, hamda aholining atrof-muhitga salbiy ta‘sirini kamaytirish borasida rejali, chora ko‘rishni talab qiladigan normalarni joriy qilish va tabiatni muhofaza qilish va landshaft barqarorligini ta‘minlashda xalqaro hamkorlikning amalga oshirilishi va davlat miqyosida tizimli amalga oshirilishining zarurati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: landshaft, barqarorlik, konsepsiya, kotlovina, xilma-xillik, antropogen bosim, seliteb landshaft.

Kirish. Hozirgi kunda jahon miqyosida aholi sonining keskin sur‘atlar bilan o‘shishi, tabiiy resurslarga bo‘lgan bosimning ortishi, ishlab chiqarish jarayonining jadallashuvi orqali tabiiy muhitga insonning salbiy ta‘siri tobora ortib bormoqda. Buning natijasida, hududlar tabiiy manzarasi – landshaftlari o‘zgarishlarga uchrab, o‘zining barqarorlik xususiyatini yo‘qotib bormoqda. Shu jihatdan, biologik va landshaft xilma-xilligi degradatsiyasiga insoniyatning yashash muhiti va hayotiy zarur bo‘lgan resurslar ta‘minotini izdan chiqaruvchi jiddiy tahdid sifatida qaralmoqda [1]. Bu borada jahon bo‘yicha rivojlanish jarayonlarini barqarorlashtirish, tabiat muhofazasiga e‘tiborni kuchaytirish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2015-yilda 2030-yilgacha “Barqaror rivojlanish Dasturi” ishlab chiqilgan [2]. Mazkur dasturda 17 ta maqsadga erishish uchun 169 ta vazifalar belgilab olingan. Ushbu maqsadlardan VI, XIII, XIV, XV bandlari aynan tabiatni muhofaza qilish hamda landshaft barqarorligini ta‘minlashga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tabiatni muhofaza qilish doirasida yuqoridagi xalqaro konsepsiyadan kelib chiqqan holda, barcha mamlakatlar o‘z milliy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqdi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan BMT 70-sessiyasida tabiatni muhofaza qilishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, ozon qatlamini tiklash bo‘yicha dasturli harakat qilish, ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasida tobora avj olayotgan Orol muammasidan

kelib chiqadigan ekologik inqiroz kuchini kamaytirish borasida sammitda o'rinli takliflar berilgan. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan barcha sohalar qatori tabiat muhofazasi yuzasidan kompleks chora-tadbirlar ko'rilga boshlandi. Orolbo'yi mintaqasida ihotazorlar maydoni kengaytirildi, yer va suvdan foydalanishni tartibga solish maqsadida Qishloq va suv xo'jaligi Vazirligi alohida Vazirliklar sifatida qaytadan tashkil etildi, tomchilatib sug'orishga o'tish bo'yicha topshiriqlar berildi. Ushbu muhim qadamlarning asosi sifatida bir necha me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinadi. Chunonchi, 2019-yil 30-oktabrdagi «2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5863-sonli Farmoni qabul qilinadi [3]. Ushbu Farmon VII bobdan iborat bo'lib, Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish; Yer resurslari va yer osti boyliklarini muhofaza qilish; Suv resurslarini muhofaza qilish; Atmosfera havosini muhofaza qilish; Biologik resurslarni muhofaza qilish va qayta tiklash; Qayta ishlanishi talab qilinadigan tashlamalardan foydalanish tizimini takomillashtirish vazifalari belgilangan.


Qolaversa, Respublikamizda tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish, ekologik vaziyatni yaxshilashga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda va ijobiy natijalarga erishilmoqda. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash» yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan [4]. Bu borada, jumladan, Farg'ona vodiysi landshaftlariga antropogen bosimning ortib borishi natijasida yuzaga kelayotgan ekologik muammolarni bartaraf etish, hududda ekologik vaziyatni yaxshilash masalalariga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi «2019–2028 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash Strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi 484-sonli Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Ayniqsa, tabiatni muhofaza qilish bo'yicha eng fundamental, asosiy qonun mamlakat Konstitutsiyasida maxsus moddalarning berilishi va uning 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan Yangi nashrida uning takomillashtirilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi [5]. Xususan, uning 49-moddasida "...Har kim qulay atrof-muhitga... ega bo'lish; davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik; davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish" kabilar belgilab qo'yilgan. Bularning barchasi tabiatni muhofaza qilish va landshaft xilma-xilligini saqlashda konseptual asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada konseptual tahlil, geografik taqqoslash, kartografik tahlil kabi metodlardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Ўзбекистоннинг aholisi eng ko'p va eng zich hududlardan biri Farg'ona vodiysi tabiatini muhofaza qilishga e'tibor qaratish dolzarb ahamiyatga ega. Farg'ona vodiysi – O'rta Osiyoda joylashgan o'ziga xos botiq bo'lib [6], G'arbiy va Janubiy Tyanshan tizmalarining oralig'idagi tektonik botiqda joylashgan (1-rasm). Tabiiy geografik sharoitining qulayligi bois, qadimdan aholi mazkur hududda zich yashab kelgan.

Farg'ona vodiysining geografik o'rniga mos ravishda, shimoliy qismini o'rab turuvchi Chotqol tizmasining janubida tog'-dash landshaftlari tarkib topgan. Sharqiy qismida joylashgan Farg'ona tizmasining g'arbi vodiya qarashli bo'lib, nam havo massalarining ta'sirida o'simlik qoplami zich.



1-rasm. Farg'ona vodiysining geografik joylashuvi

Janubi Oloy va Turkiston tizmalarining shimoliy yonbag'ridan iborat. G'arbiy qismidagi Qurama tizmasining g'arbiy namchil qismi Chirchiq-Ohangaron vodiysiga tegishli. Aksincha, uning arid mintaqasi Farg'ona vodiysiga qaraydi. Vodiyning markaziy qismi esa tektonik botiqdan iborat bo'lib, qumli cho'l va yer osti suvlari ta'sirida tuproq tarkibidagi minerallar miqdori yuqori bo'lgan tekislik mintaqasidan iborat. Demak, uning geografik o'rniga bog'liq holda landshaftlari tarkib topgan hamda shunga mos holatda flora va faunasi shakllangan.

Vodiyning suvayirg'ichlar bilan hisoblanaganda, maydoni (O.Lange bo'yicha) 78 ming km kv ni tashkil qiladi. Uning markaziy – tekislik va tog' oldi qismi O'zbekiston (Andijon, Farg'ona, Namangan vil.), tog'li qismlari esa Qirg'iziston (Jalol-Obod, O'sh, Batken vil.) va Tojikiston (So'g'd vil.) Respublikalariga tegishli. Unda jami qariyb 16 mln aholi (1-jadval) istiqomat qiladi [7].

Farg'ona vodiysida cho'l, adir, tog' va yaylov mintaqalari mavjud bo'lib, atrofni o'rab turuvchi tog' cho'qqilarida glyatsial-nival zonasi mavjud. Yuqorida keltirib o'tilganidek, vodiya mil. avv. I ming yillikdan buyon aholi o'troq hayot kechiradi. Agroirrigatsion tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hududda sug'orish jarayoni bilan bog'liq tarzda yuzaga kelgan qatlamlarning qalinligi bir necha metrn tashkil qiladi [8].

1-jadval

Farg'ona vodiysi demografik vaziyatining ayrim ko'rsatkichlari (01.01.2021.)

Mamlakatlar	Viloyatlar	Maydoni (ming km kv)	Aholisi (ming kishi)	Aholi zichligi (1 km ²)	Tumanlar soni
O'zbekiston	Andijon	4,2	3253,5	774,6	14
	Namangan	7,44	2931,1	393,9	11
	Farg'ona	6,76	3820,0	565,8	15

Jami	3	18,4	10 004,6	543,7	40
Qirg'iziston	O'sh	29,2	1414,7	48,4	7
	Jalolobod	33,7	1282,2	38,1	8
	Batken	17,0	558,6	32,0	3
Jami	3	79,9	3 255,5	40,7	18
Tojikiston	So'g'd	25,2	2 658,4	104,6	18
Umumiy	7	123,7	15 918,5	128,7	76

Izoh: Jadval O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (www.stat.uz), Кыргыз Республикасынын Улуттук статистика комитети (www.stat.kg) va Агенти омори назди Президенти Цумхурии Тоҷикистон (www.ahd.tj) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Markaziy tekislik mintaqasidan atrofga ko'tarilgan sayin adir mintaqasi joylashadi. Adir landshaftlarining barqarorligi va antropogen ta'sirga uchrashi atroflicha yoritib berilgan bo'lib, ularning transformatsiyasiga urg'u qaratilgan [9]. Landshaftlarni rayonlashtirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar shuni ko'rsatadiki, vodiya 5 xil landshaft tiplari va 28 ta landshaft xillari ajratiladi [10]. Jumladan, Farg'ona vodiysida quyidagi landshaft tiplari tarkib topgan:

- baland tog' landshaftlari;
- o'rtacha baland tog' landshaftlari;
- tog' oldi va adir landshaftlari;
- alluvial-prolyuvial tekislik landshaftlari;
- seliteb landshaftlar.

Yuqoridagi landshaft tiplariga qo'shimcha ravishda, tog'larning cho'qqilaridagi glyatsial-nival landshaftlarini keltirish mumkin. Zero, Farg'ona vodiysining suv ayirg'ich qismlarida yuzga yaqin kichik muzliklar mavjud [11].

Umuman olganda, hudud aholisining tez sur'alar bilan o'sib, yangi yerlar jadal o'zlashtirilayotgani bois, ekotizim keskin o'zgarib bormoqda. Bu borada, ekotizimlar o'zgaruvchanligini tabiatdan foydalanish jarayonida hisobga olish muhimdir. Chunki, ularning aksariyati, beqarorligi tufayli, xo'jalikda foydalanish paytida o'zgarib, turli salbiy hodisalarning vujudga kelishiga sababchi bo'lishi mumkin. Ekotizimlarning o'zgaruvchanligi ularning strukturasi bog'liq. Aniqlanishicha, ular cho'l, qum, tuproqlarda nihoyatda o'zgaruvchan, sho'rxoklarda, ular suv-tuz rejimining vaqt mobaynida nobarqarorligi natijasida, galofitlarning tur jihatidan (bir yillik sho'ralar-sarsazan-qorabaroq-yulg'un) o'zgarishi sodir bo'lishi mumkin. Tog'oldi prolyuvial tekisliklar, adir va tog' yonbag'irlarida ham ekotizimlarning o'zgaruvchanligi faol. Archaning kesilishi natijasida uning o'rnida yangi archa niholining o'sishi juda qiyinchilik bilan kechadi, ba'zan umuman o'smasligi ham mumkin. Bunday vaziyatda uning yaqinida boshqa turdagi o'simlik unib chiqishi ehtimoldan xoli emas. Adirlarning o'zlashtirilishi tufayli tuproqlarning sho'rlanishi galofitlarning tarqalishiga olib kelmoqda [10]. Yuqori terassalardagi qishloq xo'jaligi faoliyatining natijasida tekisliklarda yer osti suv sathining ko'tarilishi, tuproq mineral tarkibining o'zgarishi va eroziya kabi jarayonlarda nayomon bo'lmoqda.

Xulosa va takliflar. Demak, tabiat va uning resurslaridan oqilona foydalanish uchun mavjud tabiat qonuniyatlarini bilish, ekologik-geografik xususiyatlarini to'g'ri hisobga olish, ilmiy tamoyillardan obyektiv foydalanish hamda mos tadqiqot usullarini qo'llash natijasidagina oshirilsa yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Chunonchi, yuqorida keltirilgan konseptual, me'yoriy-huquqiy hujjatlarning ahamiyati bu borada yuqori bo'lmoqda.

Davlat miqyosida ko'rilayotgan chora-tadbirlarga hamohang tarzda, landshaftlarni muhofaza qilish borasida, quyidagi taklif va tavsiyalarni berish o'rinli bo'ladi:

- mavjud konseptual asoslardan kelib chiqib, ilmiy tadqiqot natijalarini lokal darajada amalga oshirish;
- muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tezroq tashkil etish;

landshaftlar tiplari va xillari bo'yicha barqarorligiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ularning optimal yechimlarini ishlab chiqish;

aholining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish borasida rejali, chora ko'rishni talab qiladigan normalarni joriy qilish va hokazo.

Agarda Farg'ona vodiysida geotizim barqarorligini ta'minlashga qaratilgan faoliyatlar to'liq yo'lga qo'yilsa, ekologik karkas tashkil qilinsa hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanilsa, hududning landshaft barqarorligi va biologik xilma-xilligida jiddiy salbiy o'zgarishlarning oldi olinadi.

ADABIYOTLAR

1. Абдуғаниев О. Муҳофаза этиладиган табиий ҳудудлар тизимини такомиллаштириш ва улардан фойдаланишнинг геологик асослари (Фарғона водийси мисолида) // География фанлари доктори (DSc) илмий дар. олиш у-н тақдим этилган дисс. – Фарғона, 2022. – Б. 243.
2. Sustainable Development UN, 2015. URL: <https://sdgs.un.org/goals>.
3. 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-5863-sonli Farmoni. URL: <https://lex.uz/docs/-4574008>. 31.10.2019.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli Farmoni. URL: <https://lex.uz/docs/5841063>. 28.01.2022.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qayta tahrir qilingan, yangilangan 2-nashr. URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>. 01.05.2023.
6. Абдуллаев О. Фарғона водийси [Монография]. – Наманган: "Наманган" нашриёти, 2000. – Б. 186.
7. Jumaxanov Sh.Z. Markaziy Osiyo anklav/eksklav hududlarining iqtisodiy geografik va siyosiy geografik tadqiq etishning metodologik asoslari // Geografiya fanlari doktori (DSs) ilmiy dar. olish u-n taqdim etilgan diss. – T., 2023. – 227 b.
8. Boymirzaev K.M. Farg'ona botig'i vohalaridagi agroirrigatsion yotqiziqqlarning multifunksional landshaft tahlili // Geografiya fanlari doktori (DSs) ilmiy dar. olish u-n taqdim etilgan diss. avtoref. – Samarqand, 2020. – 59 b.
9. Mirzamaxmudov O. T. Farg'ona vodiysi adir landshaftlarining antropogen transformatsiyasi va ularni kartalashtirish // Geografiya fanlari doktori (DSs) ilmiy dar. olish u-n taqdim etilgan diss. avtoref. – Samarqand, 2023. – 65 b.
10. Назаров А.А. Фарғона водийсида (Ўзбекистон қисми) табиатни муҳофаза қилишнинг экологик-географик асослари // Геог-я фанлари док. (DSs) илмий дар. олиш у-н тақдим этилган дисс. автореф. – Т., 2022. – Б. 63.
11. Штетеников А. Олидениние в Ферганское долине [Монография]. – Тошкент, 1987.



Dilnavoz XOLJIGITOVA,

"Gidrogeologiya va injenerlik geologiyasi instituti" DM stajyor tadqiqotchisi

E-mail: xoljigitovadilnavoz@gmail.com

Saidnasim BAKIYEV,

"Gidrogeologiya va injenerlik geologiyasi instituti" DM professori, g-m.f.d

Erkin ANORBOYEV,

"Gidrogeologiya va injenerlik geologiyasi instituti" Davlat muassasasi

"GAT va innovatsion ishlanmalar" laboratoriyasi mudiri, PhD

Geologiya fanlari universiteti kafedra mudiri, PhD, k.i.x M.Jurayev taqrizi asosida

SIGNIFICANCE OF HEAVY METALS IN GROUNDWATER IN MEDICAL HYDROGEOLOGY

Annotation

The use of groundwater in the water supply system for the population is becoming increasingly important due to the increasing degradation of the quality of surface water sources. The analysis of world and domestic literature made it possible to determine the nature and causes of negative changes in their composition. The article substantiates the formation of a new interdisciplinary scientific direction - medical hydrogeology. In this regard, the relationship and interdependence of related disciplines - hygiene, environmental toxicology and epidemiology, hydrogeochemistry, hydrogeology - are considered. The importance of mastering the fundamentals of medical hydrogeology by water management specialists in order to effectively solve the problems of groundwater resource management together with hygienists is noted.

Key words: medical hydrogeology, GIS, hydrogeology, atmosphere, hydrosphere, terrestrial hydrology, oceanology, toxic substances, endemic goiter, heavy metals.

ЗНАЧЕНИЕ ТЯЖЕЛЫХ МЕТАЛЛОВ В ПОДЗЕМНЫХ ВОДАХ В МЕДИЦИНСКОЙ ГИДРОГЕОЛОГИИ

Аннотация

Использование подземных вод в системе водообеспечения населения приобретает все большее значение в связи с нарастающей деградацией качества поверхностных водоисточников. Проведенный анализ мировой и отечественной литературы позволил определить характер и причины негативных изменений их состава. В статье обосновывается формирование нового междисциплинарного научного направления – медицинской гидрогеологии. В связи с этим рассмотрены взаимосвязь и взаимозависимость смежных дисциплин – гигиены, экологической токсикологии и эпидемиологии, гидрогеохимии, гидрогеологии. Отмечена важность освоения основ медицинской гидрогеологии специалистами водохозяйственного профиля для совместного с гигиенистами совместного эффективного решения задач управления подземными водными ресурсами.

Ключевые слова: медицинская гидрогеология, ГИС, гидрогеология, атмосфера, гидросфера, земная гидрология, океанология, токсические вещества, эндемический зоб, тяжелые металлы.

TIBBIY GIDROGEOLOGIYADA YER OSTI SUVLARIDAGI OG'IR METALLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Yer usti suv manbalari sifatining yomonlashuvi tufayli aholi uchun suv ta'minoti tizimida yer osti suvlaridan foydalanish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon va mahalliy adabiyotlarni tahlil qilish yer osti suvlarining tarkibidagi salbiy o'zgarishlarning mohiyati va sabablarini aniqlash imkonini berdi [1].

Maqolada yangi fanlararo ilmiy yo'nalish - tibbiy gidrogeologiyaning shakllanishi asoslanadi. Shuningdek turdosh fanlar - gigiena, atrof-muhit toksikologiyasi va epidemiologiyasi, gidrogeokimyo, gidrogeologiyaning o'zaro bog'liqligi o'rganiladi. Bundan tashqari, yer osti suv resurslarini boshqarish muammolarini samarali hal etishda suv xo'jaligi mutaxassislarining tibbiy gidrogeologiya asoslarini o'zlashtirishlari muhimligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: tibbiy gidrogeologiya, GAT, gidrogeologiya, atmosfera, gidrosfera, quruqlik gidrologiyasi, okeanologiya, toksik moddalar, endemik bo'qoq, og'ir metallar.

Kirish. Yer sharining har bir mintaqasi o'ziga xos tabiiy-iqlim, ijtimoiy-ekologik, etnodemografik xususiyatlarga ega bo'lib, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning mohiyatini belgilaydi [1]. Ushbu muammolarning dolzarbligi va muhimligi ilmiy-texnikaviy inqilob davrida ishlab chiqarish sohasining tez sur'atlarda rivojlanishi tufayli aholi sonining oshishi bilan bog'liq holda oshib bordi.

Bugungi kunda ko'pgina davlatlar ichimlik suvi sifatini yaxshilash uchun chora tadbirlarni amalga oshirdilar, biroq yer osti suvlari bilan bog'liq muammolar ulardan haddan tashqari ko'p foydalanish yoki ularning ifloslanishi sababli yuzaga keladi. Hindistonlik olimlar tomonidan yer osti foydali qazilmalari ichimlik suvining asosiy manbasini tashkil etuvchi quduqlardan olinadigan qayta ishlanmagan suvning asosiy ifloslantiruvchi moddalari ekanligi kuzatilgan. Shuningdek, qishloq aholisining qo'l nasoslari o'rnatilgan qazilgan quduqlardan tozalanmagan suv ichishi va bu ularning sog'lig'iga salbiy ta'sir qilishi hamda suv orqali yuqadigan kasalliklarning yuqori ko'rsatkichlari aniqlangan [8].

So'nggi yillarda turli kimyoviy elementlar va birikmalarning ta'siri natijasida atrof-muhitni muhofaza qilish, aholi turmush sifati va salomatligini muhofaza qilish muammolariga e'tibor sezilarli darajada oshdi. Qadim zamonlardan beri

sayyoramizning turli mintaqalarida tabiiy muhitda turli xil kimyoviy elementlar va birikmalarning yetishmasligi va ortiqcha bo'lishi bilan bog'liq endemik kasalliklar keng tarqalgan hududlar ma'lumdir. Bunday kasalliklarga misol qilib, tabiiy muhitda yod tanqisligi bilan yuzaga keladigan endemik bo'qoq, suv va tuproqda selen, litiy, og'ir metallar yetishmasligi hamda me'yoriy miqdordan oshib ketishi bilan bog'liq bo'lgan kasalliklar, ichimlik suvida ftoridning ko'pligi sababli tish va skelet florozi hamda Rossiyada ma'lum bo'lgan boshqa kasalliklarni keltirish mumkin [2, 7]. Bugungi kunda Janubi-Sharqiy Osiyo, Bangladesh va Hindistonning qator shtatlarida mishyak bilan ifloslangan sifatsiz suvdan foydalanish bilan bog'liq qator kasalliklarning sabablari ishonchli tarzda aniqlangan. Rossiyaning bir qator hududlarida mishyakning aholi salomatligiga ta'siri haqida ma'lumotlar manbalarda keltirilgan [2].

Yer osti suvlari butun dunyo bo'ylab qurg'oqchil va yarim qurg'oqchil hududlarni ichimlik suvi bilan ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Dunyo bo'ylab 2,5 milliardga yaqin odam ichimlik ehtiyojlarini yagona manba sifatida yer osti suvlaridan foydalangan holda qondiradi [8]. Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, tez sanoatlashuv, aholi sonining ko'payishi, antropogen va geogenik faoliyat, haddan tashqari ekspluatatsiya, qishloq xo'jaligida o'g'itlar, pestitsidlarning intensiv ishlatilishi va tozalanmagan shahar suvlarining oqizilishi kabi turli omillar tufayli yer osti suvlarining sifati vaqt o'tishi bilan yomonlashmoqda. Ifloslangan ichimlik suvini iste'mol qilish inson salomatligiga tahdid soladi, bu esa dunyoning ko'plab mintaqalarida turli xil sog'liq muammolariga olib keladi [9].

Tadqiqotning o'rganilganlik darajasi. Bugungi kunda xorijiy davlatlarda tibbiy gidrogeologiya yo'nalishi bo'yicha bir qator olimlar: A.I. Виноградов, В.В. Ковалский, И.Ф. Волфсон, Е.Г. Фаррахов, Л.И. Эппинер, О.Б. Бейсеев va boshqalar ilmiy ishlarida tadqiqot olib borgan [4, 10].

Mamlakatimizda Ю. Шадиметов, А.С. Хасанов, Б.А. Бедер, С.А. Бакиев, Д.С. Ибрагимов, Н.И. Еникев, А.А. Калабугин va boshqa olimlar ushbu yo'nalishga tegishli ma'lumotlarni tadqiqot ishlarida keltirgan [10].

Tadqiqot usullari. Tadqiqotning yana bir yo'nalishi - qidiruv va tog'-kon sanoati korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq holda aholi salomatligi. Masalan, silikoz, asbest, antrakozlar kvarts, asbest va ko'mir changlari ta'siridan kelib chiqadigan kasalliklardir. Bu shuningdek, tabiiy radioaktivlik va radon xavfsizligi muammosini o'z ichiga oladi. Kimyoviy moddalarning potensial xavfi ularning fizik va kimyoviy holatiga bog'liqdir. Kimyoviy elementlar va birikmalarning atrof-muhit va aholi salomatligiga ta'sirining mexanizmlari va oqibatlarini tushunish mineral xom ashyoni xavfsiz qazib olish va qayta ishlash, zaharli elementlar va birikmalarning inson salomatligiga ta'sirini minimallashtirish imkonini beradi. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, elementlar va birikmalar – toksik moddalarning yer usti atmosferasi, gidrosfera va atmosferada konsentratsiyasi mexanizmlari va sharoitlari hamda ularning tirik organizmlarga ta'sirining oqibatlari ham aniqlangan. Turli xil tibbiy va ekologik sharoitlarni shakllantirish uchun geologik modellar ishlab chiqilgan. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan tobora ko'proq foydalanilmoqda va geologik xavfli hududlarda atrof-muhit monitoringini o'tkazish uchun geoaxborot texnologiyalari (GAT) loyihalari ishlab chiqilmoqda [3].

Turli xil kasalliklarning ortib borishi muammosi, shubhasiz, suv havzalarining, shu jumladan yer osti obyektlarining antropogen kelib chiqishi bo'lgan organik sintetik moddalar bilan ifloslanishining kuchayishi bilan bog'liq sanaladi. Bunday birikmalar yuzlab moddalarni o'z ichiga oladi [4].


Yer haqidagi fundamental fanlarning tibbiy-ekologik bo'limlarining shakllanishi atrof-muhit omillarining aholi turmush sharoiti va salomatligiga ta'siri bo'yicha tadqiqotlarning jadal rivojlanishi bilan bog'liq. Bu tabiiy suvlarda sodir bo'ladigan hodisa va jarayonlarni, ularning atrof-muhitga ta'sirini o'rganadigan fanlarga to'liq taalluqlidir. Ushbu tadqiqotlar quruqlik gidrologiyasi, okeanologiya va gidrogeologiyadan iborat uchta mustaqil fanni o'z ichiga oladi [5].

Aholini suv bilan ta'minlash muammosini fanlararo yondashuvlar asosida to'liq hal qilish imkoniyatidan xabardor bo'lish nisbatan yangi ilmiy yo'nalish - tibbiy gidrogeologiyaning yaratilishini belgilab berdi. Bugungi kunda tibbiyot gidrogeologiyasi mustaqil fan sifatida allaqachon ba'zi universitetlarda gidrotexnik mutaxassislarni tayyorlash uchun kurs ishchi rejalariga qabul qilingan [6].

Ushbu ma'lumotlarning tahlili [6] sifatsiz yer osti suvlaridan foydalanish natijasida bir qator yuqumli bo'lmagan (shu jumladan, onkologik va yurak-qon tomir) va yuqumli (bakterial va virusli) kasalliklar darajasining oshgani haqida ishonchli ma'lumotlar mavjudligini ko'rsatadi. Yer osti suvlarining tabiiy mikro va makroelementlar tarkibi tabiatning patogenetik ahamiyatini tasdiqlovchi ma'lumotlar bazasi sezilarli darajada kengaytish zarur. Biroq, zamonaviy ma'lumotlar kimyoviy moddalarning biologik ta'siri va konsentratsiyasining tabiatiga qarab nafaqat salbiy, balki ijobiy ta'sirga ham tegishlidir [4].


Tahlil va natijalar. Tabiiy muhitda tarqalgan og'ir metallarni o'rganish, ularni tadqiq etish maqsadida tadqiqot ishlari olib borildi. Tadqiqot ishida dala ishlari amalga oshirilgan bo'lib, guruch, guruch poyasi, guruch ekilgan grunt va guruchni oziqlantirish uchun beriladigan o'g'itdan na'munalar olib kelindi hamda laboratoriya sharoitida tahlil qilindi.

Laboratoriya sharoitida na'munalarning suvda erigan qismi bo'yicha natijalar olingan (1-rasm).




1-a, b-rasm. Na'munalarning suvda erigan qismidagi pH va quruq qoldiq miqdori grafiqi.

Na'munalarning suvda erigan qismi bo'yicha anionlar miqdori ham aniqlangan (2-rasm).



2-a, b, v, g-rasm. Na'munalarning suvda erigan qismidagi anionlar miqdori grafigi. Shuningdek, na'munalarning suvda erigan qismi bo'yicha kationlar miqdori aniqlandi (3-rasm).



3-a, b, v, g-rasm. Na'munalarning suvda erigan qismidagi kationlar miqdori grafigi.

Na'munalarning suvda erigan qismi bo'yicha anionlar va kationlar miqdori ham aniqlandi. Yuqorida keltirilgan grafiklar tahlili natijasi grunt, o'g'it, guruch hamda uning qobig'i va poyasining suvda erigan qismida pH, quruq qoldiq, anionlar va kationlarning ko'p miqdorda ekanligini ko'rsatadi. Shu boisdan, ushbu na'munalarning tarkibida og'ir metallarning miqdorini aniqlash muhim ahamiyat ega hisoblanadi.

Xulosa. Yuqoridagi olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yer osti suvlaridan foydalanishda uning ekologik holati muhim ahamiyatga ega. Chunki, yuqorida keltirilgan adabiyotlar tahlili yer osti suvlari tarkibidagi og'ir metallarning me'yoridan oshishi inson tana a'zolariga salbiy ta'sir qilish ehtimoli mavjudligini asoslaydi. Shuningdek, ushbu olib borilayotgan tadqiqotlar suv sifatini monitoring qilish va sifatli ichimlik suvidan foydalanish zarurligi haqida jamoatchilikni xabardor qilish uchun tavsiyalar ishlab chiqishga ko'maklashadi.

Shu bilan O'zbekistonda yangi ilmiy yo'nalish-tibbiy gidrogeologiya sohasi rivojlantirilmoqda hamda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar insonlar salomatligini yaxshilashga muayyan darajada xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Шадиметов Ю., Региональные проблемы социальной экологии. // Узбекистан, 1992, 111 с.
2. Вольфсон И.Ф., Фаррахов Е.Г. Медицинская геология: состояние и перспективы научного направления // Российское геологическое общество, Медицинская геология: состояние и перспективы. Москва 2010, стр. 13-18.
3. Вольфсон И.Ф., Фаррахов Е.Г. Медицинская геология: состояние и перспективы в России и странах СНГ // Разведка и охрана недр, №2, 2010, стр. 52-62.
4. Эльпинер Л.И. Медицинская гидрогеология - междисциплинарный раздел науки о подземных водах // Гигиена и санитария, 2016, стр. 801-805.
5. Эльпинер Л.И. Медико-экологические аспекты кризиса питьевого водоснабжения // Гигиена и санитария, 2013, стр. 38-44.
6. Вольфсон И.Ф., ред. Медицинская геология: состояние и перспективы. М.: РосГео; 2010.
7. Эльпинер Л.И. Медико-экологические проблемы использования питьевых подземных вод. В кн.: Зекцер И. Подземный сток и ресурсы пресных подземных вод. М.: Научный мир; 2012: 307-46.
8. Hemant Raheja, Arun Goel, Mahesh Pal Assessment of groundwater quality and human health risk from nitrate contamination using a multivariate statistical analysis // Journal of Water and Health Vol 22 No 2, 350 doi: 10.2166/wh.2024.291.
9. Adimalla, N. 2020 Controlling factors and mechanism of groundwater quality variation in semiarid region of South India: An approach of water quality index (WQI) and health risk assessment (HRA). Environmental Geochemistry and Health 42 (6), 1725-1752. <https://doi.org/10.1007/s10653-019-00374-8>.
10. Bakiyev S.A., Anorboyev E.A., Xoljigitova D.B. Tibbiy gidrogeologiya-yangi ilmiy yo'nalish // "Zamonaviy gidrogeologik, muhandislik geologiyasi va geoekologik tadqiqotlarning ilmiy-innovatsion yo'nalishlari" mavzusida Respublika ilmiy-texnik anjuman, T-2022. 38-40 b.



UDK: [628.191:628.39]575.11

Ma'murjon XOLMIRZAEV,
O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi, PhD
E-mail: mamur@mail.ru
Norbek BEGALIEV,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
Fatima MIRFAZIYEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti stajyor o'qituvchisi

ToshDTU. t.-m.f.d.(PhD) dotsent v.b., D.Begimkulov taqrizi asosida.

CHIRCHIK INDUSTRIAL ZONE DEPENDENCE OF THE DEGREE OF MIGRATION OF POLLUTING ELEMENTS IN THE GEOLOGICAL ENVIRONMENT ON NATURAL AND MAN-MADE FACTORS

Annotation

Industrial development not only leads to economic growth of the country, but also affects the geo-ecological situation. Based on this point of view, it should be studied and assessed in order to identify natural and man-made impacts and develop measures to prevent their negative consequences. This article is dedicated to exactly that.

Key words: technogenic factors, bush and single water intake structure, residential area, natural zone, aeration zone, industrial zone, urban planning plant, engineering and economic impact, mineral deposits, upper rocks, ecological and hydrogeological condition, region.

ПРОМЫШЛЕННАЯ ЗОНА ЧИРЧИК ЗАВИСИМОСТЬ СТЕПЕНИ МИГРАЦИИ ЗАГРЯЗНЯЮЩИХ ЭЛЕМЕНТОВ В ГЕОЛОГИЧЕСКОЙ СРЕДЕ ОТ ПРИРОДНЫХ И ТЕХНОГЕННЫХ ФАКТОРОВ

Аннотация

Промышленное развитие не только приводит к экономическому росту страны, но и влияет на геоэкологическую ситуацию. Исходя из этой точки зрения, его следует исследовать и оценивать с целью выявления природных и техногенных воздействий и разработки мер по предотвращению их негативных последствий. Эта статья посвящена именно этому.

Ключевые слова: техногенные факторы, куст и единое водозаборное сооружение, жилая территория, природная зона, зона аэрации, промышленная зона, градостроительный комбинат, инженерно-экономическое воздействие, месторождения полезных ископаемых, верхние горные породы, эколого-гидрогеологическое состояние, область.

CHIRCHIQ SANOAT ZONASI GEOLOGIK MUHITDA IFLOSLANUV-CHI ELEMENTLARNING MIGRATSIYA DARAJASINING TABIIY VA TEXNOGEN OMILLARGA BOG'LIQLIGI

Аннотация

Sanoat rivojlanishi hududlar mamlakatni iqtisodiy yuksalishiga olib kelish bilan bir qatorda, geoeologik holatga ham o'z tasirini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib tabiiy va texnogen bosimlarni aniqlash va salbiy tasirining oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish maqsadida uni tadqiq qilish va baholash lozim. Ushbu maqola aynan shu mazmunni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: texnogen omillar, kust va yakka suv yeg'ish inshooti, yashash uchun moyil hudud, tabiiy, aeratsiya zonasi, sanoat zonasi, shahar-qurilish sanoat majmuasi, injener-xo'jalik ta'sir, foydali qazilma konlari ustki tog' jinslari, hududning ekologo-gidrogeologik holati.

Kirish. Rivojlangan sanoat hududlarida ekologiyaning turli xil ifloslanish sabablarini aniqlash geologik muhitga ifloslanuvchi moddalarning salbiy ta'sir etish omillarini o'rganish, hamda tahlil qilish orqali ularning oldini olish masalasini tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Geologik muhitni, aniqrog'i aeratsiya zonasi orqali yer osti suvlarining ifloslanishini bashoratlash, ifloslantiruvchi unsurlarini xarakterini o'rganish, ularni tasniflash bo'yicha ko'plab tadqiqotlar o'tqazib kelinmoqda. Bu borada olib borilayotgan tadqiqotlarning nazariy, uslubiy va texnologik asoslarini ishlab chiqish inson salomatligi uchun xavfli bo'lgan muammolarni bartaraf qilish barobarida kelajak avlod genafondiga ta'sir etuvchi geoeologik xavfni oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Jahon miqyosida yer osti suvlarining ifloslanish jarayonini o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish masalalari ustuvor yo'nalishlardan bo'lib, bu borada, suvdan foydalanishni tartibga solish, ifloslantiruvchi manbaalarini aniqlash usullarini ishlab chiqish, ifloslanish darajasini o'rganish hamda baholash tizimini takomillashtirish, geoeologik xavfni bartaraf etish texnologiyalarini yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat mustaqilligining o'ttiz bir yilligiga bag'ishlangan tantanal marosimdagi nutqida 2026 yilgacha eng avvalo e'tibor qaratiladigan 5 ta asosiy sohaga alohida to'xtalib, soxa oldida turgan vazifalarni bayon qildi. Shuningdek, joriy yilning 7 dekabr kuni, aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, muammoli hududlarga toza ichimlik suvini yetkazish, ichimlik suvi sifatini yaxshilash borasida alohida dasturlar amalga oshirilish to'g'risidagi ma'ruzasi hamda yer osti suv resurslarini muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanishni tartibga solish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarorni imzolashi yuqoridagi fikrimiz dalilidir.

Hududlarda asosiy ichimlik suvi manbai bo'lgan yer osti suvlarini inson salomatligiga salbiy ta'sir etuvchi zararli moddalar bilan ifloslanish jarayonlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqdaki, fanning oldiga qo'yilgan asosiy maqsadi, muammolarning yechimini topish, yer osti suvlarini ifloslanishdan muhofaza qilish, o'z vaqtida ifloslanish o'choqlarini aniqlash,

ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun tizimli imkoniyatlar yaratishdan iborat. Mazkur faoliyatga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan inson salomatligini saqlash borasidagi vazifalarni bajarishda olib borilayotgan isloxtlarni ijrosini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Zero hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi aholiga farovon hayot tarzini ta'minlashdan iborat.


Mavzuga oid adabiyotlar. Lavrik V.I., Rogal I.V., Yakovlenko P.I.lar ushbu masalada jahon tajribalarini tahlil qilinganda, Rossiya Fanlar Akademiyasi suv muammolari instituti olimlari tomonidan atrof-muhit ifloslanishining xavflilik darajasi, geologik muhitga bo'ladigan umumiy texnogen ta'sirning intensivligi bilan bog'liqligini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. Unda tog'-kon, qishloq xo'jalik va sanoatning boshqa ishlab chiqarish yaxshi rivojlangan Tula viloyati misolida atrof muhitga bo'layotgan umumiy texnogen ta'sirning baholash tamoyillari atrof muhit va yer osti suvlarini ifloslanishiga nuqtaviy texnogen manbaalarning (sanoat korxonalari, shaxtalar, elektrostansiya va boshqalar) xavfliligi qayd etilgan va baholangan [13]. Texnogen manbaalarning xavfliligini baholash uchun ishlab chiqilgan reyting bo'yicha bir qator shahar va aholi yashash punktlarida texnogen ta'sirning atrof muhitga ko'rsatayotgan ifloslanish darajasi tahlil kilinib turli uslublar bilan tadqiqot qilinganligini o'rganilgan.

N.M.Rasskazov tomonidan, Katun daryosi havzasidagi (Oltoy tog'li hudud) yer osti suvlari tarkibidagi kimyoviy elementlar holati bo'yicha tavsifi berilgan, Na+, Mg2+, Ca2+, Mn2+, Fe2+, Pb2+, Su2+, Zn2+ makro va mikroelementlar migratsiyasining asosiy shakllari aniqlangan [3]. Statistik hisob-kitoblar amalga oshirildi va ularning maqsadi texnogen ta'siridagi murakkab shakllanish jarayonlarini modellashtirish natijalarini tasdiqlash edi. Ca, Na, K, Mg, Fe, Cl va F komponentlari asosan ion shaklida migrasion harakat kuzatiladi. Texnogen ta'siridagi murakkab shakllanish jarayonlanish umumiy hisobda 95-99% ni tashkil etadi. Ko'p jihatdan inson faoliyati tabiiy muhitga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ulardan eng muhimi asrlar davomida ko'rib chiqilayotgan hududda amalda bo'lgan va so'nggi o'n yilliklarda faol bo'lgan ekin maydonlarini sun'iy ravishda sug'orishdir [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Ko'p yillar davomida olib borilgan kuzatuv va taxlillar shuni ko'rsatadiki sanoat hududida suffozion jarayonlarni rivojlanishi (cho'kish, zahlash va b.) Bo'zsuv va Qorasuv kanallari bo'ylab botqoqlanish, drenajlarning ta'siri, yangi o'tgan ariqlarning qirg'oqlari bo'ylab yemirilishi, yerning ko'chishi va suvga bo'kish hodisalari kuzatiladi. Bunday hodisalarning asosiy sabablari soz tuproqli jinslarning fizik xususiyatlari va sug'orilishga yo'naltirilgan suvning nazoratsiz oqishi bilan namligi oshgan soz tuproqli jinslar o'z tuzilishini yo'qotadi. Natijada suv omborlari va sug'orish uchun yo'naltirilgan suvlar ta'sirida yoriqlar hosil bo'lib, ularning namligi oshishi tufayli geologik jarayon sodir bo'ladi. Suvning sizib o'tishi natijasida tuproq tarkibidagi tuzlarni eritadi va tuproqning kichik zarrachalarini ariqlarga olib ketadi (mexanik va kimyoviy migratsiya), (1-rasm). Suvga qisqa muddatli ta'sir qilish bilan diametri 0,3-0,5 dan 1,0 m gacha bo'lgan chuqurchalar hosil bo'ladi va uzoq muddatli ta'sir qilish natijasida ularning diametri 1,5 dan 3,0 m gacha yetadi[7]. Shunga ko'ra, ariqlarning yon tomonlaridagi yoriqlar 0,1-0,3 dan 0,7-1,0 m gacha kenglikka ega. Ushbu ma'lumotlar asosida hulosa qilish mumkinki, Bo'zsuv kanaliga quyiladigan soy vodiylari bo'ylab hududda botqoqlanish jarayoni kuzatiladi. Bu esa yuqori to'rtlamchi davr yotqiziqlari bilan chegaralangan va yer osti suvlarining taqsimlanishini nazoratsiz qoldirish bilan bog'liq holatdir. Tog' jinsining surilish hodisalarini kelib chiqish joylari Bo'zsuv, Zax kanallari, Qorasuv ariq bo'ylarida, zovurlarda hamda kichik suv oqishga mo'ljallangan ariqlarda ko'zga tashlanadi. Ushbu hodisaning sababi kanallar va ariqlar qirg'oqlarining erroziviyasi natijasida kanallar qirg'oqlari bo'ylab qulagan, tog' jinslarining muvozanati o'zgaragan va kengligi 0,5-1,0 dan 2,5-3 gacha, uzunligi 2-3 dan 5-7 m gacha bo'lgan hajmga ega [12]. Chirchiq sanoat hududida iqtisodning turli tarmoqlari korxonalari rivojlanganligi, o'z navbatida tabiiy muhitga bo'ladigan texnogen ta'sirning yuqoriligini ko'rsatadi (1-rasm). Sanoat hududida ifloslantiruvchi unsurlarning migratsion darajasiga ta'sir etuvchi texnogen tomillarning masumiy, hududiy, chiziqli va mahalliy (lokal) turlari mavjud bo'lib, manbalarni geologik muhitga ta'sirning o'ziga xosligi, bir xil tarqalmaganligi, ta'sir doirasining turli xilligi, bundan tashqari, ta'sir etuvchi omillarning o'ziga xos xususiyati bilan farqlanadi [12].

Janubiy-sharqiy sanoat hududining ekologo-gidrogeologik qirgimi. (Chirchiq)

1-rasm



1-jadval

Konservativ unsurlarning yer osti suvlarida migratsiya darajasi

Kuzatuv nuqtalari	Ifloslantirish manbasidan uzoqligi, m	Konservativ konsentratsiyasi, mg/l	komponentlar	β	er rasiyasi, mg/l.		Barqarorlik darajasi α
					hisoblangan	fakt	
1	2	3	4	5	6	7	
Ifloslanish manbaasi	-	17000	-	-	4,6	-	
GXX 15	575	8000	0,47	2,16	0,08	0,037	
480 quduq	2460	1216	0,07	0,32	0,024	0,075	
25e quduq	7875	101	0,006	0,069	0,015	0,22	

Hudud doirasida avvalgi «Kaprolaktam» ishlab chiqarish korxonasi maydonida qattiqligi yuqori bo'lgan 7,5 dan 7,8 mg/ekv/l yoki 0,5 ruxsat etilgan me'yora va undan yuqori bo'lgan yer osti suvlari mavjud. Azotli birikmalar (nitratlar va nitritlar) va kaprolaktam tarkibidagi o'zgarishlarni «Maksam-Chirchiq» va «Kaprolaktam» korxonalarida hududlarida maxsus qazilgan (GKK-XXII) kuzatuv quduqlari va undan past (gkk-xx) kuzatuv quduqlarida kuzatiladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, hududdagi barcha kuzatuv nuqtalarida qattiq qoldiqlardan tashqari, yer osti suvlari tarkibidagi komponentlarni bir necha bor o'sishi kuzatilishi mumkin. Sanoat hududidagi bir necha suvni kuzatish nuqtalarida yer osti suvlarida neft mahsulotlarining miqdori ruxsat etilgan me'yorga deyarli yaqinlashib qolgan. Yer osti suv tarkibida mavjud metalloidlardan ruxsat etilgan me'yorga qisman yaqin bo'lgan quyidagi elementlar qayd etilgan: alyuminiy (Al), kobalt (Cd), svines (Pb), marganes (Mn). Neft mahsulotlari esa avvalgi yillarga nisbatan birmuncha me'yordan kamayganligi kuzatiladi[6]. Ifloslanish jarayonidagi ushbu migratsion harakat birinchi texnogen ta'sirli hududda hosil bo'ladi va keyingi texnogen hududlarda rivojlanib boradi, shuningdek, aerasiya zonasi qatlamlarida litologik qatlamlarning o'tkazuvchanlik xususiyatiga bog'liq. Tabiiy sharoitda, texnogen ob'ektlardan muntazam ifloslantiruvchi moddalarning migratsion harakati natijasida litologiya qatlamida ikkilamchi ifloslanish manbai hosil bo'lishi kuzatiladi[12]. Suvning mineralogik turi gidrokarbonat-sulfat-kalsiy-magniydan sulfat-gidrokarbonat-kalsiy-natriygacha o'zgarib turadi. Suv tarkibida qattiq qoldiq 0,26 dan 0,44 g/l gacha va 3,1 dan 5,4 mg/ekv.gacha. Yillar davomida qilingan tahlil shuni ko'rsatadiki, (1990-2020yy) suvning qattiqligi tarkibida 2,0 va 1,5 baravar kamayishi kuzatiladi. Neft mahsulotlari, metalloidlarning miqdoran kamayganligi ya'ni, ularning sifat holatini yaxshilash tendensiyasi mavjudligi kuzatiladi. Suv tarkibida nitratlar miqdori 0,85 ruxsat etilgan me'yordan 0,48 gacha deyarli 2 martaga kamayganligi, suvdagi neft mahsulotlarining tarkibi atigi 0,1 ruxsat etilgan me'yorgacha sifat darajasi oshganligi kuzatiladi. Hudud aerasiya zonasining litologik qatlaminin suvli qatlam himoyalash darajasiga ko'ra o'rtacha himoyalangan hisoblanadi[8]. Litologik tuzilishi soztuproq, gil tuproq, qum hamda mayda zarrali qumli jinslardan iborat. Suvli qatlam yuqori filtrlash xususiyatiga ega bo'lgan allyuvial yotqiziqqlarining shag'al, shag'al-tosh qatlamlaridan tashkil topgan litologik qatlamliligi bilan tavsiflanadi. Chirchiq sanoat korxonalar doirasidagi texnogen ta'sirli hududlar, yer osti suvlarining ifloslanish jarayonini shakllantirish va rivojlantirish shartlarining asosiy xususiyatlari hisoblanadi.

Taxlil va natijalar. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki sanoat hududlarida yer osti suvlarining chuqurligi, oqim yo'nalishi, tezligi tarkibidagi rejimining o'zgarishini baholashga va ifloslantiruvchi moddalar miqdori, turi va ifloslantiruvchi manbalariga qarab quyidagicha ajratish imkonini beradi:

- kimyoviy («Maksam-Chirchiq», «Chirchiqtekstil», «Kaprolaktam»);
- energetika (Transformator zavodi, Chirchiq, Oqqovoq, Qishloq xo'jalik elektr qurilish kombinati, Aranchi GES stansiyalari);
- qurilish materiallari ishlab chiqarish (Chirchiq qurilish materiallari va g'isht zavodi);
- tog'-kon («Yumaloq» shag'al saralash zavodi va karieri, «Chirchiq tajribaviy asfalt-beton» MChJ zavodi, «Yumaloq» inert materiallar kareri);
- rangli metallurgiya («O'zQMMMk», «Yumaloq» metalni qayta ishlash zavodi);
- mashinasozlik sanoati («Chirchiqselmash», «O'zbekkimmash», «Avtoservis»hizmat ko'rsatish hususiy korxonalari);
- oziq-ovqat sanoati («Chirchiqnon», «Chirchiqdon», «Parrandachilik fabrikasi», «Go'shtni qayta ishlash zavodi» va boshqalar;

-temir yo'llar, tezyurar va avtomobil yo'llari, sug'orish kanallari, shahar suv ta'minoti liniyalari, kanalizatsiya va issiqlik tarmoqlari, shuningdek, sanoat korxonalaridan suyuq chiqindilarni olib tashlash uchun keng quvvur tarmoqlari [11,12].

Texnogen ta'sirning chiziqli turlari ta'sirining o'ziga xos xususiyati manbainin ikkala tomonidagi sharoitiga qarab o'zgarishi bilan tavsiflanadi. Ularning aksariyati Chirchiq daryosi o'zani bo'ylab cho'zilgan past terassalar uchun xos bo'lgan yer osti jinslarining zichlashishi, grunt va yer osti suvlarining ifloslanishini keltirib chiqaradigan geologik muhitga texnogen ob'ektlar ta'siri bilan bog'liq bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Canoat hududlarida ifloslantiruvchi moddalarning migratsiyasi jarayoni suvning oqim harakati va xususiyat (gidrodispersiya)lariga bog'liq bo'lgan elementlarning kimyoviy tarkibi, qismlari, ularning migratsion darajasi, faolligi har bir holat uchun alohida baholanadi, ularning xususiyatlari geokimyoviy muhitga va turli xil (harorati, oqim tezligi, kislotali va ishqoriy muhit) omillarga qarab sezilarli darajada o'zgarib turadi. Bu sharoitda organik birikmalardan tashqari metallarning miqdori (mis (47,5 mg/l), rux (12,0 mg/l), molibden (20 mg/l) kabi ko'payadi. Suvli qatlamlarning migratsion darajasi ifloslanish manbai yaqinida kuzatiladi ($\alpha=0,037$) va bu hududda yuqori ishqoriy muhitning mavjudligi bilan izohlanadi. Yer osti suvlari qatlamida yuqori ishqoriy muhitning deyarli neytralga o'zgarishi va suv tog'-jinsi tizimidagi fizikaviy va kimyoviy jarayonlar ta'sirida suvli qatlamlarning barqarorlik darajasini oshib borishiga olib keladi. ($\alpha=0,22$). Shu sababli metallarning yer osti suvlari oqimining quyi qismiga past konsentratsiyalarda (0,024 dan 0,015 mg/l gacha) mavjudligi suvli qatlaminin migratsion darajasi yuqoriligi ($\alpha=0,075 \div 0,22$) bilan izohlanadi[9]. Aerasiya zonasi jinslari gil tuproq bo'lganda ifloslantiruvchi unsurlarni tik mirgasiyasi tezligi 0,05 m/kunni, sog' tuproqlarda 0,20-0,4 m/kunni, qumli giltuproqlarda 1,0m/kungacha, mayda zarrali qumlarda esa 3 metr/kundan 4 m/kungachani tashkil etadi. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ifloslantiruvchi unsurlarning aerasiya zonasida vertikal migratsiya tezligi tuproqli jinslarda qumli va dag'al jinslarga nisbatan 7,5 barobardan 10 barobargacha yuqori bo'lishi kuzatiladi. Ishlab chiqarish hamda iqtisodiyotning turli sanoat tarmoqlari qurilishlari rejalashtirilgan xududlarda jinslarning yuqorida keltirilgan xususiyatlariga e'tibor qaratilishi taklif etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Abdullaev B.D., Xolmirzaev M.J. Osobennosti izucheniya naxojdeniya imigrasiya cherez zoni aeratsii nekotoryx veshestv // Materiali Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii «Sovremennoe sostoyanie podzemnix vod: problemi i ix resheniya» –T.: GP «GIDROINGEO», 2008. №2/1, –S.110–114.
2. Abdullaev Bm. D., Xolmirzaev M.J. Angren shaxri geoeologik xolatiga ta'sir etuvchi texnogen omillar // Materiali Mejdunarodnoy nauchno-texnicheskoy konferensii «Sovremennoe sostoyanie podzemnix vod: problemi i ix resheniya». –T.: GP «GIDROINGEO», 2018. –S.115–118.
3. Bondarev E.N., Nikolaevskiy V.N. Konvektivnaya diffuziya v poristix sredax s uchetom yavleniya adsorbsii. PMTF – 1962. –№5. –S.127 – 134.

4. Bochever F.M., Lapshin N.N., Oradkovskaya A.E. Zashita podzemnix vod ot zagryazneniya. – M: Nedra, 1979. – 254 s.
5. Ber Ya., Zaslavskiy D., Irmey S. Fiziko-matematicheskie osnovi filtratsii vody. – M: Mir, 1971. – 451 s.
6. Verigin N. N., Vasilev S.V., Kuranov N.P. i dr. Metodi prognoza solevogo rejima gruntov i gruntovix vod. -M.: Kolos, 1979. –S 108–336.
7. Goldberg V.M., Gazda S. Gidrogeologicheskie osnovi oxrani podzemnix vod ot zagryazneniya. – M.: Nedra, 1984. - 260 s.
8. Goldberg V.M., Zverev V.P., Arbuzov A.I i dr. Texnogennoe zagryaznenie prirodnix vod uglevodorodami i yego ekologicheskie posledstviya. M: Nauka, 2001–321 s.
9. Yenikeev N.I. Zakonomernosti izmeneniya ximicheskogo sostava podzemnix vod rechnix dolin gornoskladchatix oblastey Uzbekistana v usloviyax texnogeneza. Avtoref. diss. dokt. geol. miner. nauk. T. 1994–43s.
10. Samoylenko V.G. Gidrogeologicheskie osnovi oxrani podzemnix vod ot selskoxozyaystvennogo zagryazneniya // Dis. dokt. geol.-min. nauk.–T.1982–351 s.
11. Xolmirzaev M.J. Izucheniya o zakonomernosti migrasii ximicheskix elementov v gornix porodax nekotorig veshestv // Vestnik NUUZ, 2013. Spes.vipusk. – S.138–142.
12. Xolmirzaev M.J. Sanoat hududlarida ifloslantiruvchi unsur (modda) larni migrasion xususiyatlari (Chirchiq sanoat hududi misolida). // G.-m. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Diss.– T.: 2022. –130 b.
13. Lavrik V.I., Rogal I.V., Yakovlenko P.I. Prognozirovaniye kachestva podzemnix vod pri ix vzaimodeystvii s poverxnostnimi vodami // Tezisi dokladov VII Vsesoyuznogo simpoziuma posovremennim prblemam prognozirovaniya, kontrolya kachestva vodi vodoemov –Tallin, 1985.–S.94-96.



Husniddin EGAMQULOV,
Guliston davlat universiteti katta o‘qituvchisi g.f.f.d (PhD)
E-mail: husniddinguldu93@gmail.com

GulDU dotsenti, g.f.n K.Xidiraliyev taqrizi asosida

IMPACT OF TRANSPORTATION ON THE ENVIRONMENT AND HUMAN HEALTH

Annotation

In this article, the possibilities and positive aspects and harmful aspects of vehicles are covered in detail. At the same time, the amount of harmful substances of transport on the environment and their effect on human health were studied. In addition to the harmful substances emitted by vehicles into the environment, the level of noise they emit, units of measurement, and the effects of civilizational diseases on people's health are highlighted.

Key words: Transportation, motor vehicle, environment, harmful substances, noise, diseases, atmosphere, decibel, carbon monoxide, carbon dioxide.

ВЛИЯНИЕ ТРАНСПОРТА НА ОКРУЖАЮЩУЮ СРЕДУ И ЗДОРОВЬЕ ЧЕЛОВЕКА

Аннотация

В этой статье подробно рассмотрены возможности и положительные стороны и вредные стороны транспортных средств. При этом изучалось количество вредных веществ транспорта на окружающую среду и их влияние на здоровье человека. Помимо вредных веществ, выбрасываемых транспортными средствами в окружающую среду, выделены уровень издаваемого ими шума, единицы измерения, влияние цивилизационных болезней на здоровье людей.

Ключевые слова: Транспорт, автотранспорт, окружающая среда, вредные вещества, шум, заболевания, атмосфера, децибел, окись углерода, углекислый газ.

TRANSPORTNING ATROF MUHITGA VA INSON SALOMATLIGIGA TA’SIRI

Аннотация

Ushbu maqolada transport vositalarining imkoniyatlari va ijobiy tomonlari hamda zararli jihatlari atroflicha yoritib berilgan. Shu bilan birgalikda transportning atrof muhitga ko‘rsatayotgan ta’siri zararli moddalarining miqdori ularning inson salomatligiga ta’siri o‘rganilgan. Transport vositalarining atrof-muhitga chiqarayotgan zararli moddalaridan tashqari o‘zidan chiqarayotgan shovqin darajasi, o‘lchov birliklari hamda insonlarning sog‘lig‘iga ta’siri sivilizatsion kasalliklari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Transport, avtotransport, atrof-muhit, zararli moddalar, shovqin, kasalliklar, atmosfera, ditsibel, uglerod oksidi, karbonat angidrid.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida insonlarni uzog‘ini yaqin qiladigan, yuk va yo‘lovchilarni bir manzildan ikkinchi manzilga yetkazib beradigan vosida bu transportdir. Transportning eng ommalashgan turi bu avtomobil transporti. Yuklarni uzoq masofalarga tashishda quruqlik muhitida temiryo‘l transporti, suvli muhitda kemalar transportning lokamativi hisoblanadi. Bir manzildan ikkinchi manzilga borish uchun inson ikki, uch hatto undan ham ko‘p turdagi transportdan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Transportning ijobiy tomonlari juda ko‘p shu bilan birgalikda uning inson salomatligi va atrof-muhitga ham ta’siri mavjud.

Transport vositalaridan chiqayotgan zararli chiqindilarning ulushi atmosfera havosiga chiqarilayotgan barcha chiqindilarning taxminan 70% ni tashkil qiladi. Transport vositalari tomonidan chiqarilayotgan zararli moddalar kanserogenlar (lotincha Cancer-rak va genes-keltirib chiqarmoq) onkogen moddalar-ma’lum sharoitda organizmga ta’sir qilganda rak va boshqa o‘smalar paydo qiluvchi kimyoviy moddalar hisoblanib bugungi kunda 500 ga yaqin xili ma’lum. Politsiklik uglevodorodlar, azobo‘yoqlar, aromatik aminlar, nitrozaminlar, og‘ir metall tuzlari, alkaloidlar, toksinlar kanserogen moddalarga kiradi. Kanserogen moddalar odam va hayvon organizmiga tashqaridan kirishi (ekzogen kanserogen moddalar) yoki organizmning o‘zida kanserogen bo‘lmagan moddalardan paydo bo‘lishi (endogen kanserogen moddalar) mumkin [1]. Transport vositalaridan chiqayotgan zararli moddalarning ta’sir darajasi sanoat va energiyaga boy ifloslantiruvchi korxonalariga nisbatan insonning nafas olish a’zolariga salbiy darajasida bo‘lgan xavflarni keltirib chiqaradi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ekspertlarining fikricha, avtomobil transporti keyingi bir necha o‘n yilliklarda Yevropa shaharlarida havoning sezilarli darajada ifloslanishiga hissa qo‘shadi. Mavjud amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, shaharda yiliga aholi orasida 100 minggacha o‘lim sodir bo‘lishi mumkin. Shuni alohida takidlash lozimki, o‘lim va boshqa bir qator salbiy ta’sirlar havoga ifloslantiruvchi moddalarning transport vositalari tomonidan chiqarilishi bilan bog‘liq.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Transport tarmoqlari va ularning rivojlanishi va uning shakllanish tarixi hamda tashkil etishning hududiy hususiyatlarini o‘rganilish masalalari XX asrning boshlarida amalga oshirila boshlandi. Dastlabki vaqtlarda Yevropa (G‘arbiy Yevropa) davlatlarida ilk g‘oyalar yaratildi va ishlab chiqildi [2]. Transport sohasida izlanishlar olib borgan uzoq xorij olimlaridan A.Gettner, P Xagget, O.Blyum, K.J.Bekman, R. Monxeimlar, Shu Ling Sho kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan.

MDH olimlari orasida transport sohasida A.A. Kosovskiy, V.N. Bugramenko, S.A. Tarxov, M. O. Tureyeva, N.N. Pashinskaya, T.V. Ramankova, P. Krilovlar singari olimlar o‘z ilmiy ishlarini olib borgan.

O'zbekistonda ham transport tarmoqlarining turli tarmoqlari bilan ilmiy izlanishlar olib borgan olimlardan Y.I.Ahmadaliev, R.V. Nabiyeu, P.X. Maxmudov, D.I.Mengeldin, A.A.Soliyeu, A.A.Isayevlar shug'illangan [2]. Yuqorida sanab o'tilgan olimlar transportning turli xil sohalarida, joylashtirish, hududiy tashkil qilish masalalari bilan shug'ullangan. Shuni alohida takidlash lozimki transportning atrof muhitga va aholi salomatligiga ta'siri bilan Shadimetov Yu. Sh., Ayrapetov D.A. Транспорт, экология и здоровье nomli monografiyasida atroflicha yoritib berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani yozishda Xorij va MDH olimlari va O'zbekistonda transportning turli sohalarida o'z ilmiy ishlarini olib borgan tadqiqotchilarni ilmiy ishlaridan foydalanildi. Shuningdek transportning atrof-muhitga va inson salomatligiga ta'siri bilan bog'liq ilmiy adabiyotlar muallif tomonidan tahlil qilish asosida bajarilgan.

Tahlil va natijalar. Iqtisodiyotning qon tomiri hisoblangan transport tarmoqlarini turli jabhalarda tahlil qilish bugungi kunning asosiy vazifasidir. Transport tarmoqlari eng ommalashgan soha hisoblangan turizm va shu bilan birgalikda tibbiyot sohasida ham o'z o'rniga ega "vosita" vazifasini bajarib kelmoqda. Bir tomondan, transport sayohat vaqtini sezilarli darajada tezlashtiradigan ijobiy omillarga ega. Ammo boshqa tomondan, barcha transport vositalari atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Aholi punkti hududida avtomobillar ko'p bo'lishi mumkinligi sababli, bo'sh joyning katta qismini to'xtash joylari, avtovokzallar va yo'llar egallaydi. Bu yashil zonalariga o'z ta'sirini ko'rsatadi va minimal miqdordagi hududlar ajratilishini anglatadi. Avtotransport vositalari nafaqat atmosferaga zararli moddalarni chiqaradi, shu bilan birgalikda havodagi kislorodni ham o'zlashtirishda faol ishtirak etadi. Misol tariqasida shuni aytish o'rinliki, Bitta avtomobil yil davomida doimiy ishlaganda 4 tonnadan ortiq kislorodni yo'q qiladi.

Transport vositalarining ijobiy hislatlari bilan birgalikda salbiy tomonlari ham mavjud bo'lib, ular havoning ifloslanishi quyidagi sabablarga ko'ra yuzaga keladi:

1. Avtotransport vositalariga ko'rsatiladigan texnik xizmat ko'rsatishning qoniqsiz holati;
2. Avtotransport vositalarida ishlatilgan yoqilg'ining sifati past darajadali;
3. Avtotransport yoqilg'isida qo'rg'oshin moddasining mavjudligi;
4. Transport tarmoqlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi;
5. Avtotransport vositalarida ekologik toza yoqilg'ildan foydalaish imkoniyatlarini pastligi yoki yo'qligi.

Transport vositalari o'z navbatida atrof-muhitga zarar ko'rsatishi bilan birgalikda undan chiqayotgan shovqin inson ruhiyatiga ta'sir qilmoqda. Shovqin - bu kosmosda tasodifiy o'zgarib turadigan barcha kiruvchi, yoqimsiz ovoz tebranihlari.

Shovqin odamni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan kuchsizlantiradi. Inson uchun 20-30 detsibel zararsiz hisoblanadi. Umuman odamga 80 detsibelli shovqin ruxsat etiladi. Qiymati 130 detsibelga teng shovqin inson quloqlarida og'riq paydo qiladi, 150 detsibelga yetganda chidash qiyin bo'ladi, 180 detsibelda hatto metallga ham zarar yetkazishi mumkin. 1970-yillarda shahar ko'chalaridagi shovqin 60-70 detsibelni tashkil qilgan, XXI asr boshida bu ko'rsatkich 100 detsibel va undan ham yuqori ko'rsatkichga yetdi [Wikipediya].

1-jadval

Havoda shovqin (dB) darajasini meyoriy belgilari

Havoda tovush	Ovoz bosimi darajasi (dB)
Eshitish chegarasi	0
Tinch nafas olish	10
Juda tinch xona	20-30
Oddiy suhbat 1 m	40-60
Televizor ovozi 1 m	60
Yengil avtomobil 10 m	60-80
Og'riq chegarasi	130

Manba: muallif tomonidan internet ma'lumotlari asosida tuzildi.

Bugungi kunda tashqi shovqinning asosiy sababchi omili avtotransport vositalari, ishlab chiqarish korxonalarini va qurilish sohasining ayrim turlari hisoblanadi. Shovqinni keltirib chiqaruvchi omillar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: transport shovqini, samolyot shovqini, sanoat shovqini, qurilish shovqini, sport muhlislari shovqini, qo'shnilarning baland musiqasi va boshqalarni kiritish mumkin.

2-jadval

Avtomobil transportidan chiqayotgan shovqin darajalarining inson salomatligiga ta'siri

Yo'l infratuzilmasi	dB ko'rsatkichlari	Insonga ta'sir darajasi
Shaharning asosiy magistral yo'llarida	78-88 dB	Haddan tashqari zo'riqish, zaiflik, zaif immunitet, anemiya va shovqin darajasining ko'rinishi 50 dB-35%; 70 dB-40%; 80 dB-72%
Shahar magistralidagi uylarda	65dB	
Tuman ko'chalaridagi uylarda	55 dB	

Manba: Jadval muallif tomonidan internet ma'lumotlari asosida tuzildi

Transport vositalari harakati ikki baravar kamaysa ham ular tomonidan ishlab chiqariladigan shovqin hajmining qisqarishiga olib kelmasligi mumkin. Insonning eshitish idrokining diapazoni nol dBdan ya'ni eshitish chegarasidan 130 dBgacha shovqin chegarasi o'zgarib turadi.

Transportning shovqinlik darajasiga ko'ra kunning bo'linishi:

-**"Ishning boshlash vaqti"** transportning shovqinlik darajasi eng yuqori bo'lgan ertalab vaqt soat 6:30 dan, soat 8:30gacha bo'lgan vaqt oralig'i;

-**"Ishning tugash vaqti"** transportning shovqinlik darajasi eng yuqori bo'lgan kechki vaqt soat 17:00 dan soat 21:00 gacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi;

-**"Tinin vaqti"** tahlillarga ko'ra tunning ikkinchi yarmida shovqin darajasi eng minimal darajadagi ovoz bilan baholanadi.

Avtomobil harakatlanganda yoqilg'ining yonishidan hosil bo'lib atmosferaga ko'tariladigan CO (Uglerod oksidi rangsiz, ta'msiz va hidsiz yonuvchi gazdir.) ning 50% dan ortig'ini tashkil qiladi. Avtomobil yo'llarining nozozligi sababli ham CO konsentratsiyasi 2,5-4 barobar ortishiga sabab bo'ladi [4].

Fasllar ichida yoz oylarida karbonat angidrid,(CO₂) turar-joy binolari yashil maydonlarida va ochiq hovlilarda ko'proq to'planadi. Uglerod oksidi (CO) atmosferasida o'rtacha yashash muddati taxminan 2 oyni tashkil qiladi. Uglerod oksidi hujayralarga bevosita ta'sir qiladi, to'qimalar tomonidan kislorod iste'molini kamaytiradi va nafas olishni organlarini buzilishiga

olib keladi. Uglarod oksidi asosiy ta'siri gemoglobinning yuqori reaktivligi bo'lib, gipoksiya hosil qiluvchi karboksigemoglobin hosil qilishda ishtirok etadi [5].

Tadqiqot shahar ko'chalarida havoda karbonat angidrid (CO₂) ning yuqori konsentratsiyasi tufayli inson organizmida karboksigemoglobin hosil bo'lish imkoniyatini isbotladi. Yo'l harakati nazoratchilari uchun smena tugashidan oldin karbitsid va karboksigemoglobinning mumkin bo'lgan eng ko'p to'planish darajaga yetadi. Surunkali CO bilan zaharlanish insonda yurak-qon tomir patologiyasining yanada og'ir kechishiga olib keladi: taxikardiya, aritmiya, gipotenziya, ekstrasistol, aqliy va jismoniy asteniya, glyukoza va qizil qon tanachalarining ko'payishi, keyin esa anemiya olib keladi [1].

3-jadval

Avtotransport vositalari va inson salomatligi o'rtasidagi bog'liqlik

№	Avtotransport vositalaridan chiqarilayotgan zararli moddalar	atmosferaga	Avtotransport vositalaridan chiqayotgan moddalarning inson organizmiga ta'siri
1	Uglevodorodlar		Xavfli o'smalarning shakllanishini tezlashtiradi
2	Formaldegid		Ko'z shilliq pardasiga, nafas yo'llariga, Markaziy asab tizimiga, jigarga, buyraklarga ta'sir qiladi.
3	CO ₂		Nafas olish jarayonini qiyinlashtiradi, kislorod yetishmovchiligiga olib keladi.
4	NO ₂		Jiddiy kasalliklarni keltirib chiqaradi.
5	SO ₂		Ko'zni, burunni, tomoqni bezovta qiladi. Jiddiy ta'sir ko'rsatadi.
6	Pb, El _y		Markaziy asab tizimiga va gematopoetik organlarga ta'sir qiladi.

Manba: jadval muallif tomonidan internet asosida tuzildi.

O'rtacha hisobda avtomobil bir yil davomida taxminan 4,5 tonna kislorodni sarflaydi [3]. Avtomobillar atmosferaga chiqarayotgan zararli moddalardan biri oltingugurt dioksididir. Oltingugurt dioksidining shahar havosining ifloslanishiga asosiy ta'siri yoqilg'ining yonishi va sanoat chiqindilari hisoblanadi. Insonning salomatlik darajasi va o'lim ko'rsatkichlarining havo sifatiga bog'liqligi bugungi global ekologik sharoitda o'z tasdig'ini topmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi vaqtda dunyoda har 10 kishidan 9 nafari ifloslangan havodan nafas oladi va bu har yili 7 million qo'shimcha o'limga olib keladi [6;7]. Insult, o'pka saratoni va yurak kasalliklarining oqibatida kelib chiqadigan o'limning uchdan bir qismi havoning ifloslanishidan kelib chiqishini aniqlagan. O'limga asosiy sababchi omil sifatida diametri 2,5 mikron yoki undan katta bo'lgan mayda zarrachalar (PM 2,5) ta'siridan kelib chiqadi, bu esa yurak-qon tomir, nafas olish va onkologik kasalliklarni keltirib chiqaradi.

Xulosa va takliflar. Atrof-muhitning ifloslanishida turli xil avtotransportlar tomonidan chiqarilayotgan zararli moddalar sezilarli darajada ko'payib bormoqda. Avtotransport vositalari tomonidan chiqarilayotgan zararli moddalarning ulushi: Avtobuslar-2,2%, Maxsus avtomobillar-2,8%, Yuk mashinalari-12%, Yengil avtomobillar-83%ni tashkil qilmoqda [8]. Shahar atrofida avtotransport vositalaridan chiqayotgan zararli moddalarni o'zida ushlab qoladigan yashil makon hududlarni kengaytirish zarur.

Shaharlar hududidagi avtotransportni manziliga yetguncha kamroq to'xtashi uchun chorrahalarda piyodalar uchun yerosti yo'llarini tashkil qilish. Avtotransport uchun svitaforlardan ko'ra qavatli ko'priklarni qurish maqsadga muvofiqdir. Svitafor shahar ko'chalarida avtotransportni tartibga soluvchi eng arzon usuli hisoblanadi ammo atrof-muhitga eng ko'p zarar keltiradiga usul sifatida qarash mumkin. Chorrahalarda qavatli ko'priklar qurish qimmatga tushadi biroq atrof-muhitga bo'lgan ta'sirni kamaytirishga sezilarli ta'sir qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Шадиметов Ю. Ш. Айрапетов Д.А. Транспорт, экология и здоровье. – Ташкент: 2022 – 256 с.
2. Isayev A.A. O'zbekistonda transportdan foydalanish imkoniyatlarini takomillashtirish. Geografiya fanlari doktori (DSc) Ilmiy darajasini olish uchun yozilgan Dissertatsiya avtoreferati. Samarqand: 2024
3. Лыкова А. С. Загрязнение воздуха городских улиц окисью углерода и ее вредное влияние : автореф. дис. ... канд. мед. наук. Л., 1953. 16 с.
4. Парцеф Д. П. Гигиеническая оценка загрязнения атмосферного воздуха выхлопными газами автотранспорта (на примере Москвы) : дис. ... канд. мед. наук. Москва, 1967. 193 с.
5. Shadimetov Yu.Sh, Ayrapetov D.A., Ergashev B. Transport, ecology and health // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. Vol 8, Issue 4, no 33, 2021 - PP. 17226-17230. // URL: <http://www.ijarset.com/upload/2021/april/33-botir-28.PDF>
6. Shadimetov, Yusufjan & Ergashev, Botir & Алексеевич, Айрапетов. (2021). TRANSPORT, ECOLOGY AND HEALTH. International Journal of Advanced Research. 4. 17226- 17230 pp..]
7. Шадиметов Ю.Ш. Айрапетов Д.А., Ниязов Х. Возрастание роли здравоохранения в активизации человеческого фактора // Высшая школа, 2021., №21 С. 22-25.
8. Алексеевич, Айрапетов & Shadimetov, Yusufzhan. (2021). ВОЗРАСТАНИЕ РОЛИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ В АКТИВИЗАЦИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ФАКТОРА // INCREASING ROLE OF HEALTH IN THE ACTIVATION OF THE HUMAN FACTOR. 21. 22-25.



УДК: 621.396.67

Эллеонора ЮСУПХОДЖАЕВА,

Доцент Ташкентского государственного технического университета

E-mail: YusupxodiaevaElyanora@mail.ru,

Наргиза БАТИРОВА,

Доцент Ташкентского государственного технического университета,

Шоҳодат РУЗИМУХАМЕДОВА,

Докторант института исследований рынка труда,

Диляфруз БИЛАЛОВА,

Докторант Ташкентского государственного технического университета,

На основе отзыва доцента ТашДТУ Аллаярова Б.

РАЗРАБОТКА ВЫЧИСЛИТЕЛЬНЫХ АЛГОРИТМОВ И ПРОГРАММНАЯ РЕАЛИЗАЦИЯ МЕТОДИКИ РАСЧЕТА УРОВНЕЙ ЭЛЕКТРОМАГНИТНЫХ ПОЛЕЙ

Аннотация

При проектировании электротехнических устройств сложной формы возникает необходимость в моделировании объемных электромагнитных полей. Для решения таких задач существуют коммерчески распространяемые комплексы программ, стоимость которых достаточно высока, что не позволяет использовать их в полной мере. В данной работе представлено краткое описание программного комплекса для моделирования трехмерных электромагнитных полей на основе метода пространственных интегральных уравнений применительно к электротехническим задачам. Комплекс позволяет учитывать нелинейности характеристик магнитопроводов, гистерезисные явления (в том числе векторный гистерезис), распределение вихревых токов в сплошных элементах магнитопроводов и токо-проводах, перемещение подвижных частей магнитных систем. С его помощью можно получать различные интегральные характеристики (действующие на элементы системы силы, потокосцепления и т.п.), необходимые для проектирования электротехнических устройств.

Ключевые слова: Программный комплекс; электротехнические задачи; моделирование электромагнитных полей; метод пространственных интегральных уравнений.

HISOBLASH ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH VA ELEKTROMAGNIT MAYDONLAR DARAJASINI HISOBLASH METODOLOGIYASINI DASTURIY AMALGA OSHIRISH

Аннотация

Murakkab shakldagi elektr qurilmalarni loyihalashda hajmli elektromagnit maydonlarni modellashtirish zarurati tug'iladi. Bunday muammolarni hal qilish uchun tijorat maqsadida tarqatilgan dasturiy paketlar mavjud bo'lib, ularning narxi ancha yuqori, bu esa ulardan to'liq foydalanishga imkon bermaydi. Ushbu maqolada elektr muammolariga qo'llaniladigan fazoviy integral tenglamalar usuliga asoslangan uch o'lchovli elektromagnit maydonlarni modellashtirish uchun dasturiy ta'minot to'plamining qisqacha tavsifi keltirilgan. Kompleks magnit yadrolar xarakteristikasining nohizizligini, histerezis hodisalarini (shu jumladan vektor histerizisini), magnit yadrolarning qattiq elementlarida va oqim o'tkazgichlarida girdob oqimlarining taqsimlanishini va magnit tizimlarning harakatlanuvchi qismlarining harakatini hisobga olish imkonini beradi. Uning yordami bilan siz elektr qurilmalarini loyihalash uchun zarur bo'lgan turli integral xususiyatlarni (tizimning elementlariga ta'sir qiluvchi kuchlar, oqim aloqalari va boshqalar) olishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: Dasturiy ta'minot to'plami; elektr muammolari; elektromagnit maydonlarni modellashtirish; fazoviy integral tenglamalar usuli.

DEVELOPMENT OF COMPUTATIONAL ALGORITHMS AND SOFTWARE IMPLEMENTATION OF METHODS FOR CALCULATING ELECTROMAGNETIC FIELD LEVELS

Annotation

When designing electrical devices of complex shape, necessitates the modeling of volume electromagnetic fields. To solve these problems, there are commercially available software packages, which cost quite high, so you cannot use them to their fullest. This paper presents a brief description of the software system for modeling three-dimensional electromagnetic fields based on the method of spatial integral equations as applied to electrical engineering problems. The complex allows to take into account the nonlinearity characteristics of magnetic circuits, hysteresis phenomena (including vector hysteresis), the distribution of eddy currents in the solid elements of the core and the conductors, moving the moving parts of the magnetic systems. With it, you can obtain various integral characteristics (forces acting on the elements of the system, flux, etc.) required for the design of electrical devices.

Key words: Software complex electrical engineering tasks; simulation of electromagnetic fields; the method of spatial integral equations.

Введение. Актуальность темы следует из необходимости высокоэффективных методов численного моделирования при проектировании технических устройств. С ростом сложности технических устройств растут и требования к точности требуемых для их проектирования расчетов. Так, при проектировании современных

ускорительных магнитов зачастую требуется вычисление магнитного поля с точностью до долей процента. Для получения требуемой точности с использованием метода конечных элементов требуются подробные сетки очень высокого качества. Особенно остро эта проблема проявляется в задаче автоматической оптимизации формы ускорительных магнитов, когда требуется постоянно перестраивать сетку и вычислять производные минимизируемого функционала в зависимости от оптимизируемых параметров геометрии магнита. Сохранять в этих условиях качество конечно элементной сетки, с учетом того, что сильные изменения сетки будут крайне негативно отражаться на процессе минимизации, становится весьма нетривиальной задачей. Поэтому в основном рассматривают решение либо двумерных задач оптимизации, либо ограничиваются линейной задачей магнитостатики, полагая коэффициент магнитной проницаемости независимым от поля.

Применение подхода с совместным использованием методов конечных и граничных элементов позволяет избавиться от необходимости построения сетки в большей части расчетной области, что дает возможность значительно упростить построение сетки. Еще одним преимуществом такого подхода является возможность учета неограниченной внешней области естественным образом, без необходимости задания удаленной границы. Помимо этого, применение метода граничных элементов позволяет получить значительно более гладкое решение, менее чувствительное к особенностям сетки, что улучшает сходимость методов оптимизации.

Вычислительная технология Комплекса основана на автоматизированном вычислительном процессе, в котором пользователю требуется задать геометрию системы, свойства материалов, источники поля, способ представления результатов. На основе этих данных автоматически сформируется соответствующая сетка разбиения моделируемого объекта на элементы для выполнения расчета.

Комплекс представляет собой интегрированную диалоговую систему программ, позволяющую решать следующие полевые трехмерные задачи:

- линейные и нелинейные статические поля (поля электрических зарядов, поля постоянных магнитов и систем с ними);

- линейные и нелинейные стационарные поля (поля систем с постоянным током);

- линейные и нелинейные (в том числе гистерезис, векторный гистерезис) квазистационарные поля (поля электромагнитных систем с переменным током, возможным перемещением элементов магнитных систем, без учета излучения электромагнитных волн).

Основными элементами Комплекса являются: Препроцессор, Решатель и Постпроцессор.

Исходными данными для Препроцессора являются геометрические трехмерные модели объекта (которые в дальнейшем планируется получать из подсистемы конструирования). Основная функция препроцессора - представление объема моделируемого объекта в виде элементарных прямоугольных параллелепипедов (элементарных объемов). Окружающая объект среда на элементарные объемы не разбивается и в исходных данных не задается. При необходимости исследования внешнего поля дополнительно вводятся координаты внешних точек наблюдения [1].

Теоретическая и практическая значимость заключается в направленности на совершенствование методов оценки состояния ЭЭС (электроэнергетическая система), а также в развитии методов расстановки устройств измерений в условиях появления новых технологий в области средств измерения и управления в электроэнергетике [2].

Методология и методы исследования. В исследовании применялись модели энергосистем и средств измерений, разработанные в теории оценивания состояния в ЭЭС. Вычислительные эксперименты выполнялись с использованием метода Монте-Карло для сформированной области варьируемых независимых переменных. Анализ погрешностей средств измерений был выполнен с использованием методов и подходов статистики и метрологии [3]. Для преобразований систем уравнений применялся математический аппарат линейной алгебры. Разработка алгоритмов выбора мест размещения основана на применении теории графов и топологического анализа электрических цепей. Предложенные методики апробировались как на традиционных тестовых моделях энергосистем, используемых в мировой практике, так и на моделях реальных энергосистем.

Существующие инструкции по установке и монтажу традиционно связаны лишь с функциональными требованиями и часто не учитывают взаимодействие электромагнитных помех создаваемых бортовыми электронными устройствами; методы и алгоритмы автоматизированного проектирования трасс жгутов кабелей не учитывают условия электромагнитной совместимости между кабелями и проводниками в жгутах. Поэтому, решение проблем ЭМС является редким не только для инженеров, устанавливающих и монтирующих системы, но и для специалистов, ответственных за разработку оборудования [4]. В связи с вышеизложенным, исследование электромагнитной обстановки внутри системы и разработка моделей и алгоритмов прокладки трасс кабелей подвижных объектов с учетом электромагнитной совместимости, являются актуальными научно-техническими задачами, имеющими важное значение при проектировании бортовых систем подвижных объектов [5].

Разработка алгоритмов поиска трасс жгутов позволяющих обеспечить электромагнитную совместимость проводников и кабелей бортовой сети и размещения приборов и устройств на борту подвижных объектов в областях внутреннего пространства с наименьшим уровнем излучаемых электромагнитных помех. Для достижения указанной цели, в работе решены следующие научно-следовательские и практические задачи: Проведено математическое моделирование влияния излучаемых помех на электрические цепи элементов и устройств с целью исследования резонансных характеристик линии связи.

Разработан алгоритм определения трасс прокладки жгутов кабелей и проводников при условии их электромагнитной совместимости в жгутах с учетом критерии минимальной длины на плоских поверхностях и во внутреннем пространстве конструкции подвижного объекта. Разработан алгоритм размещения бортовых приборов и устройств с учетом влияния создаваемых излучаемых электромагнитных помех. Разработан алгоритм прокладки трасс жгутов кабелей с учетом влияния излучаемых электромагнитных помех от бортовых устройств. Разработана методика испытаний на восприимчивость к излучаемым электромагнитным помехам бортовых устройств и кабелей [6].

В настоящее время на рассмотрении в органах государственного санитарно-эпидемиологического надзора находится методический документ, в котором предлагается с целью уточнения существующих методик расчета для ряда технических средств использовать более строгие математические модели антенн с учетом реальных особенностей их

размещения (например, антенны на крышах зданий). Однако последний не распространяется на радиосредства базовых станций систем подвижной связи и станций телевизионного вещания[7].

Все рассмотренные выше методики ориентированы на расчет электромагнитной обстановки вблизи некоторого технического средства в монохроматическом приближении, т.е. в предположении, что вся мощность излучается антенной на одной частоте в пределах рабочей полосы. Реально же спектр цифрового сигнала (дальше от монохроматической модели и характеризуется достаточно сложным характером спектральной кривой (оглибающей спектральных составляющих) в рабочей полосе частот. Примером тому могут служить сигналы в системах подвижной связи с временным и кодовым разделением каналов. При этом, в силу дисперсионных свойств антенны, реальные уровни электромагнитного поля могут существенно отличаться от определенных в одночастотном приближении. Этот фактор пока не нашел отражения в действующих в настоящее время нормативно-методических документах. С учетом этого назрела необходимость в проведении серьезных исследований электромагнитных полей, создаваемых техническими средствами ЦСПИ различного назначения, которые позволят повысить качество системы электромагнитного мониторинга в целом[8].

Заключение. Обоснованы особенности анализа электромагнитных полей вблизи антенн цифровых систем передачи информации с учетом спектральной характеристики сигнала. Рассмотрены основные варианты характеристик спектральной плотности сигналов для различных цифровых систем передачи информации, включая системы цифрового телевидения, цифрового радиовещания, передачи данных и подвижной радиосвязи при различных способах уплотнения каналов. Проведенная оценка, с учетом частотных и спектральных характеристик сигналов и известных дисперсионных свойств антенн, подтвердила обоснованность предположения о необходимости учета ширины и вида спектра сигнала при расчете уровней электромагнитных полей вблизи передающих антенн цифровых систем передачи информации.

Получена новая модификация интегро-дифференциального уравнения в частотно-пространственной области относительно функции спектральной плотности тока с учетом линейного преобразования спектра во входной цепи антенны. На основе полученного уравнения разработана методика расчета уровней электромагнитных полей вблизи проволочных антенн цифровых систем передачи информации с учетом спектральной характеристики излучаемого сигнала, включающая решение выведенного интегро-дифференциального уравнения в частотно-пространственной области и процедуры усреднения напряженности поля.

Разработаны и реализованы в виде программных модулей вычислительные алгоритмы для проволочных и апертурных антенн, включающие процедуры:

- дискретизации (сегментации) полосы частот, занятой спектром сигнала, аппроксимации функции спектральной плотности, перехода к системе энергетически эквивалентных монохроматических режимов возбуждения;
- электродинамического анализа и отыскания в заданных точках наблюдения монохроматических полей для каждого эквивалентного монохроматического режима;
- отыскания энергетически эквивалентных монохроматических полей неопределенной поляризации в заданных точках наблюдения.

ЛИТЕРАТУРА

1. Бровка А. Компьютерное моделирование. Каталог коммерческих программных пакетов для моделирования электромагнитных полей. Саратов. 2015.
2. Подберезная И.Б. Применение пространственных интегральных уравнений для расчета квазистационарных электромагнитных полей в электромеханических устройствах. ЮФУ. Техн. науки. 2014. № 3.
3. Подберезная И.Б., Ершов Ю.К., Павленко А.В. Метод пространственных интегральных уравнений на примере задачи расчета магнитного поля в призме прямоугольного сечения. М.Электромеханика. 2014. № 2.
4. Подберезная И.Б., Ершов Ю.К., Павленко А.В. Расчет распределения магнитного поля в призме прямоугольного сечения методом пространственных интегральных уравнений при различных формах входного сигнала. Сев.Кавк. регион. 2014. № 5.
5. Подберезная И.Б., Ершов Ю.К., Павленко А.В. Оценка погрешности метода пространственных интегральных уравнений при его численной реализации. М. Электромеханика. 2015. № 5.
6. Ridders C.J.F. Accurate computation of $F'(x)$ and $F''(x)$. *Advances in Engineering Software*. 1982. Vol. 4, № 2.
7. Yusupkhadjayev E.N., Rozimukhamedova SH.B. The effect of electromagnetic waves on the human body. *International Journal*. In volume 18 of eurasian research bulletin. 2023.
8. Yusupkhodjaeva E., Botirova N., Axmedova N., Narziev SH. Ruzimukhamedova Sh.B. Negative influence of electromagnetic fields on human health and methods of protection. Республика микёсидаги илмий конференция. ТошДУ. 2023.